

ILMIY UROLOGIYA

S.A. ALLAZOV



016.0
A 450

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI

SAMARQAND DAVLAT TIBBIYOT UNIVERSITETI

O'ZBEKISTON TURON FANLAR AKADEMIYASI
SAMARQAND MINTAQAVIY FILIALI

S.A. ALLAZOV

ILMIY UROLOGIYA

Monografiya



“FAN BULOG’I” nashriyoti

Samarqand - 2023 yil

UO'K: 616.6.(075.8)

KBK: 56.9ya73

A45

Allazov S.A.

Ilmiy urologiya. Monografiya. "FAN BULOG'I". Samarqand. 2023. 172 bet.

Monografiya tibbiyot institutlari va universitetlarining talabalari, magistrleri, klinik ordinatorlari, yosh olimlari va keng doiradagi ilmiy izlanuvchilar hamda amaliy vrach-urologlar, umumiy amaliyot shifokorlari uchun mo'ljallangan.

Taqrizchilar:

E.E. Qobilov – Samarqand davlat universiteti ekologiya va hayot faoliyati havfsizligi kafedrasini mudiri, t.f.d., prof.

Yu.M. Axmedov – Samarqand davlat tibbiyot universiteti 2-bolalar xirurgiyasi kafedrasini mudiri, t.f.d., prof.

Monografiya Samarqand davlat tibbiyot universiteti ilmiy kengashida (Bayonnoma №8, 13-aprel 2022 yil) va O'zbekiston Turon fanlar Akademiyasi Samarqand mintaqaviy filiali yig'ilishida (Bayonnoma №50/22, 15-dekabr 2022 yil) tasdiqlangan va chop etishga ruxsat berilgan.

ISBN: 978-9943-9263-0-1

©"FAN BULOG'I" nashriyoti. 2023.
©Allazov S.A. 2023.

MUNDARIJA

ANNOTATSIYA.....	4
KIRISH	5
1-BOB. UROLOGIYA FANI SOHASIDA ILMIY IZLANISH	
YO'NALISHLARI	11
1.1. O'zbekiston urologiyasining taraqqiyoti va kelajagi.....	14
1.2. Samarqand urologiyasi tarixi.....	22
2-BOB. UROLOGIYA FANIDA ILMIY IZLANISHLARNI OLIB	
BORISHNING METODOLOGIYASI (USLUBI)	29
3-BOB. OLIMLIK VA ILMIYLIK DA'VOLARI	50
4-BOB. UROLOGIYA SOHASIDA ILMIY IZLANISHLAR	
ETIKASI	62
4.1. Mualliflik huquqi va prioritet masalalari.....	62
4.2. Ilm-fanda plagiatlik (qalloblik) tushunchasi.....	72
4.3. Ilmiy izlanishda "Ilmiy rahbar" va "ustoz-shogird"	
tushunchalari.....	79
5-BOB. UROLOGIYA ILM-FANIDA BUYUKLARNING	
BUYUKLARI	85
XULOSA	161
ADABIYOTLAR	165

ANNOTATSIYA

“Ilmiy urologiya” monografiyasida urologiyada ilmiy izlanish metodologiyasi va etikasining oʻziga xos xususiyatlarining nazariy masalalari, Respublikamizda urologiya fani taraqqiyotining ustivor yoʻnalishlari, oʻqitishdagi axborot va ilgʻor xorijiy tajribalar, mualliflik huquqlari, oʻquv fani dasturining qisqacha tavsifi, mavzu buyicha matn, koʻnikmalar hamda mustaqil taʼlim yuzasidan koʻrsatmalar, taqdimotlar, urologiyada izlanishlar etikasi, ilm-fanda toʻgʻrilik va qalloblik masalalari muallif tajribalari asosida keltirilgan. Shu bilan bir qatorda buyuk olimlarning urologiya fani taraqqiyotiga qoʻshgan hissasi haqidagi maʼlumotlar qiziqarli va qimmatlidir.

АННОТАЦИЯ

В монографии «Научная урология» рассмотрены теоритические вопросы, основные направления развития урологии Республики, электронно-коммуникационная технология и ведущие зарубежные достижения и авторские права, краткая характеристика программы дисциплины, указания самостоятельного занятия, презентации, а также этические вопросы (правилност и плагиатство) научного изыскания на опыте автора. Наряду с этим сведения о заслугах великих ученых в развитии урологической науки интересны и ценны.

ANNOTATION

In the monographe work on the theme «urology» are given theoretical issues, priorities of urology science development in our Republic, information technologies and advanced foreign technologies, copyrights in education, brief description of educational science program, text of the lecture on the subject, case package, practical and monitoring tasks, independent learning skills instructions, presentations as well as conclusions and recommendations. Along with this information about the merits of great scientists is interesting and valuable.



*Bilimli avlod – buyuk kelajakning,
tadbirkor xalq – farovon hayotning,
do‘stona hamkorlik esa – taraqqiyotning
kafolatidir!*

Shavkat Mirziyoev

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

KIRISH

Prezident Shavkat Mirziyoev 2020 yil 24 yanvar kuni Oliy majlisning senati va qonunchilik palatasiga navbatdagi Murojaatnomasida ilm-ma’rifat va texnologiyalar rivojiga alohida ahamiyat qaratdi va 2020 yilni “Ilm-ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili” deb e’lon qildi. Prezidentning bu

murojaatnomasi mamlakatimizda ilmiy izlanishlarga keng imkoniyat yaratdi.

“Birinchi Prezidentimiz I.A. Karimov tashabbusi bilan qator davlat dasturlari tasdiqlanib, ko‘plab tadbirlar amalga oshirildi. Bu har tomonlama sog‘lom avlodni voyaga etkazish yo‘lidagi ishlarimizni izchil davom ettirib, yanada yuksak bosqichga ko‘tarishga xizmat qilmoqda”, - deb ta’kidladi O‘zbekiston prezidenti Sh.M.Mirziyoev. Birinchi navbatda, rivojlanayotgan davlatning negizi bo‘lgan oila institutini mustahkamlash maqsadida qonunchilik va normativ-huquqiy baza yanada kuchaytirildi.

Xususan, “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi qonun ushbu sohaning asosiy yo‘nalishlari bo‘lgan ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va tashkiliy chora-tadbirlarni aniq belgilab berdi.

Sog‘lom bolani voyaga etkazishning muhim sharti bo‘lgan reproduktiv salomatlikni yaxshilash, tug‘ma nuqson va xastaliklar bilan tug‘ilishlarning oldini olish, tibbiyot maskanlarining moddiy-texnik bazasi va kadrlar salohiyatini yanada mustahkamlash uchun tizimli ishlar amalga oshirildi.

Mamlakatimizdagi tibbiyot muassasalarini zamonaviy diagnostika va davolash uskunalari bilan jihozlash uchun kredit va grant mablag‘lari yo‘naltirildi.

Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoev tomonidan ishlab chiqilgan harakatlar strategiyasi bizning kelajak taraqqiyotimizning konseptual g'oyasi bo'lib xizmat qiladi. Bu o'rinda ushbu atamalarning mohiyatiga birinchi navbatda e'tibor qaratilishi kerak: "Harakat" (dvijenie, rus.) arab tilidan olingan bo'lib, "hayajonlanish" mazmunini anglatadi. "Strategiya" atamasi esa grek tilidan olingan bo'lib "harbiy san'at" ma'nosini bildiradi.

Albatta, taraqqiyot jarayoni sotsial o'zgarishlardan boshlanadi.

Bu zarbdor masalalarning ichida akademik va amaliy fanlarni taraqqiy ettirish, bolalar va yoshlarning maxsus sohalarda rivoj topishini ta'minlash, shu bilan bir qatorda o'qituvchilarning ham professional darajalarini oshirish ko'zda tutilgan.

Bugun mamlakatimiz o'zining yangi taraqqiyot davriga kirib boryapti. Ushbu olamshumul maqsadlarni amalga oshirish uchun Prezident Shavkat Mirziyoev davlatimiz taraqqiyotining barcha jabhalarini qamraydigan "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasi taraqqiyotining besh yo'nalishdagi harakatlar strategiyasi" kompleks dasturini ishlab chiqdi.

Bu hujjat O'zbekiston aholisini yangi yutuqlarga ruhlantirib, kelajakda davlatimiz rivojini ta'minlashiga shubha yo'qdir.

Ushbu monografiya O'zbekiston Respublikasi tibbiyot Oliy o'quv yurtlarida Urologiya fani bo'yicha ishlab chiqilgan ilm-fanga bo'lgan talablar hamda Davlat ta'lim standarti va Namunaviy o'quv dasturiga to'la mos ravishda yaratildi.

Jumladan ilmiy izlanuvchilar faoliyatida mavzularning dolzarbligi, ilmiy izlanishning maqsad hamda vazifalari, tadqiqot predmeti va ob'ekti hamda uning amaliy ahamiyati yoritilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va qarorlarida O'zbekiston Respublikasida sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish va uni amalga oshirish, islohotlarni yanada chuqurlashtirish bo'yicha dolzarb vazifalar belgilab berildi.

Oliy ta'lim tizimini tubdan isloh qilish va kadrlar tayyorlash milliy dasturini zamonaviy ilmiy tafakkur yutuqlariga, ilg'or tajribalarga tayangan holda, tibbiyot oliy o'quv yurtlarida ta'lim jarayonini yuqori darajada ta'minlovchi omil ilm-fan vositalaridan samarali foydalanishdir.

Hozirgi vaqtda mamlakatimiz aholisining 32 foizini yoki 10 millionini 30 yoshgacha bo'lgan yoshlarimiz tashkil etadi, ularni ilm-fan sohasiga jalb qilish katta ahamiyat kasb etadi.

Ushbu monografiyaning asosiy maqsadi tibbiy ta'lim jarayonida qo'llanilayotgan ilmiy texnologiyalarning asosini tashkil qiluvchi axborot vositalarini tanlash, ilmiy izlanish

jarayoniga tadbiq etish va erishilishi mumkin bo'lgan natijalar haqida tushuncha berishdir. Ilmiy izlanishlar metodologiyasi va etikasi talablariga amal qilish bu sohada yangi kashfiyotlarga, ixtirolarga asos bo'lishini ham ta'kidlash joizdir.

Urologiya fanida ilmiy izlanishlar metodologiyasi va etikasining o'ziga xos tomonlarini yoritish va bu orqali ta'lim hamda ilm-fan sifatini oshirish asosiy maqsaddir.

Ushbu maqsaddan kelib chiqqan holda quyidagi vazifalar ham belgilandi:

1.Urologiya fani va ilmiy izlanish jarayoni taraqqiyotining ustivor yo'nalishlarini yoritish.

2.Urologiya fani buyicha ilg'or xorijiy davlatlarda bu masalaning sharxiy holati.

3.“Ilmiy izlanish mohiyati va etikasi” mavzuidagi Keyslar, amaliy topshiriqlar, ishlanmalarni yaratish.

4.Tibbiyot oliy o'quv yurtlarida ilmiy izlanuvchi va yosh olimlar uchun urologiya bo'yicha o'ziga xos ilm-fan metodologiyasini va etikasini takomillashtirish.

5.Bu yo'nalishda urologiya ilm-faniga sezilarli xizmatlari singgan buyuk alloma va olimlar haqida tarixiy ma'lumotlar keltirish.

Tadqiqotning ob'ekti davolash ishi va tibbiy pedagogika yo'nalishining katta kurs talabalari, klinik ordinator va

magistrlari, ilmiy izlanuvchilarning urologiya fanini o'zlashtirish darajasini oshirish yo'llarini, ayniqsa ilmiy mavzusini tanlashda, amalga oshirishda studentlar va yosh olimlarning bilim saviyasini yanada oshirishdir.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati urologiya fani taraqqiyotining ustuvor ilmiy yo'nalishlarini yoritish, o'qitishdagi axborot vositalarni va ilg'or xorijiy tajribalarning qo'llanilishini o'rganishdan iboratdir. O'quv fani dasturining qisqacha tavsifi, mavzu matni, fan yuzasidan Keyslar to'plami, amaliy topshiriqlar, ishlanmalar, nazorat topshiriqlari va mustaqil ta'lim yuzasidan ko'rsatmalar, mavzular yuzasidan taqdimotlar namoyish etilishi, shuningdek xulosa va tavsiyalar berilishi ushbu fanni o'qitishda innovatsion ilg'or pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini amaliyotda qo'llanish darajasini tahlil qilish hamda unga baho berishga imkon yaratadi, urologiya fani taraqqiyotiga turtki bo'ladi degan fikrdamiz.

1-BOB. UROLOGIYA FANI SOHASIDA ILMIY IZLANISH YO'NALISHLARI

*Dunyoda turmoq uchun
dunyoviy ilm va fan lozimdir.*

Maxmudxo'ja Behbudiy (1875-919)

Birinchi Prezidentimiz I.A. Karimovning "Yuksak ma'naviyat engilmas kuch" (2008 y.) asarida "Eng dolzarb vazifamiz – barcha jarayonlarning ilmiy-nazariy asoslarini, ularning yangi qirralarini mukammal ochib berish, o'quvchilarimiz, talabalarimizga, keng jamoatchilikka sodda, lo'nda qilib tushuntirib borish va ularni bugungi zamon talablariga javob beradigan jamiyat qurilishining faol bunyodkorlariga aylantirishdan iborat" degan serqirra fikrlari hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini saqlab qolayotganligi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev 2017 yil 5 yanvar kuni sog'liqni saqlash sohasining bir guruh etakchi mutaxassisleri bilan uchrashuvidagi ma'ruzasida o'zining aniq isbotini topdi.

Sog'liqni saqlash sohasini isloh qilish davlat siyosatining eng muhim yo'nalishlaridan biridir, – dedi Shavkat Mirziyoev. Mamlakatimizda sog'liqni saqlash tizimini yanada takomillash-tirish, tibbiyot xodimlari mehnatini rag'batlantirish, davolash-ning zamonaviy texnologiya va usullarini keng joriy etishga

alohida e'tibor qaratilmoqda. Keyingi yillarda pedagog olimlar va o'qituvchilar diqqatini jalb qilgan masalalardan biri pedagogik texnologiyalar bo'lib, uning ilmiy izlanishlarda, maxsus davriy nashrlarda qizg'in o'rganilayotganligi, bahs-munozaraga sababchi bo'layotganligi ham ta'lim-tarbiyada uning o'rni naqadar muhimligiga guvohlik beradi.

Mavjud materiallarni jamlash, uning nazariy va amaliy jihatlarini O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni hamda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablari asosida tahlil qilish, pirovard natijada, qator konseptual texnologiyaning empirik asosini yaratishga harakat qilish, shuningdek, uni ilmiy bilimlar doirasiga o'tkazish kabi ishlar ham jadal davom ettirilmoqda.

Ilm-fan namoyandalari va olimlari samarali uslublarni takomillashtirish, o'quvchi talabanning aqliy mehnatini amalga oshirish usullarini izlashlari natijasida o'ziga xos ta'lim usuli vositalari yaratildiki, buning oqibatida yangicha ilmiy-pedagogik fikrlash tarzi vujudga keldi. Ilm-fan texnologiyalarini bir tizimga solish, unga maqsadli yo'nalish berish ta'limni amalga oshirishdagi shakl va mazmun yaxlitligini ta'minlagan holda kutilishi zarur natijani olishni belgilaydi. Ta'limga testlarning joriy etilishi, diagnoz va diagnostik tahlilning kiritilishi, monitoring nazoratining yuritilishi, bilimlarni reyting tizimida baho-

lashga o'tish, modellashtirish, tizimga solingan nazorat turlarida talabalarning ishlashi va nihoyat noan'anaviy dars shakllarining vujudga kelishi, o'quv jarayonidagi an'anaviy ta'lim o'rniga vujudga kelgan yangi pedagogik texnologiyalar bo'lib, ular yangicha fikrlash tizimidagi ta'limga o'tishni taqozo etadi.

Ilmiy izlanishlar natijalari asosan axborot vositalaridan eng samaradorlari informatsion xat yoki uslubiy ko'rsatmalar shaklida urologlar o'rtasida targ'ib qilinmoqda. Bunga mamlakatimizda urologik kasalliklarning xaligacha ko'p uchrashi ushbu izlanishlarni va keng profilaktik tadbirlarni amalga oshirishni taqozo qilmoqda.

An'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda, unga turli-tuman ta'lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan metodlar bilan boyitish ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasining ko'tarilishiga va ularning dars jarayoniga faol ishtirok etishiga olib keladi.

Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta'lim beruvchi tomonidan ta'lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta'lim jarayonida faolligi muttasil rag'batlantirilib turilishi, o'quv materialini kichik-kichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini ochishda kichik guruhlarda ishlash, bahs-munozara, muammoli vaziyat, yo'naltiruvchi matn, loyiha, rolli o'yinlar, grafik organayzerlar kabi metodlarni qo'llash va ta'lim

oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi. Bu usullar ichida eng oqilonasi “modulli o‘qitish tizimidir”.

«Modulli o‘qitish» atamasining ma‘nosi – faoliyat ko‘rsata oladigan o‘zaro chambarchas bog‘liq elementlardan iborat bo‘lgan tugunni bildiradi.

Bu ma‘noda “Modul” yo‘nalishi pedagogikada adolatli va barcha talaba o‘quvchilarga bir xil ta‘lim berish jarayoniga asos bo‘ladi.

Modul bu o‘quv materialining mantiqan tugallangan birligi bo‘lib, o‘quv fanining bir yoki bir necha fundamental tushunchalarini o‘rganishga qaratilgandir. Samarqand davlat tibbiyot institutida ishlab chikilgan va tadbik etilgan “Urologiya fanidan elektron o‘quv moduli” talabalar va ilmiy izlanuvchilar bilimni oshirish, ob‘ektiv baholash va nazorat olib borishni adolatli ta‘minlaydi.

1.1. O‘zbekiston urologiyasining taraqqiyoti va kelajagi

Urologiya xizmati juda qadimdan tabib yoki ustolar tomonidan ko‘rsatilib kelingan (giyohlar bilan davolash, sunnat yoki xatna va boshqalar). Urologiyani tibbiyotning alohida sohasi sifatida asoslagan olim ko‘pchilik tarixchilar fikricha Fransisko

Dias hisoblanadi. Uning 1588 yilda Madridda chiqqan monografiyasida urologik kasalliklarning barcha masalalari keltirilgan.

Siydik-tanosil a'zolari kasalliklari haqida ilk o'rta asr Sharqi fanining eng yirik namoyandalaridan biri Abu Bakr Roziy (865-925) o'zining «Al-Hoviy» («Katta to'plam») nomli asarida, jumladan bu asarning «Kasalliklar tarixi» qismida 34 ta kasallik tarixi misolida qimmatli fikr-mulohazalar keltirgan. Hajm jihatidan Ibn Sino «Qonuni» dan katta bo'lgan bu asar Ibn Sinoning o'zi uchun, Beruniy va keyingi davr olimu – tabiblari uchun qo'llanma bo'lib xizmat qilgan. Ibn Sinodan 100 yillar oldin Eronning Ray va Bag'dod shaharlarida yashab ijod etgan bu olim Buxoro va Xorazmlarda ham bo'lib, olimu-fuzalolar bilan yaqin aloqa o'rnatgan.

«Al-Hoviy» ning 341 betdan iborat «Siydik yo'li va buyrak hamda boshqa kasalliklar haqida»gi 10-bobi 1962 yilda Hindistonning Haydarobod shahrida nashr qilingan. Bundan tashqari Roziyning urologiya faniga taalluqli «Buyrak va qovuqda bo'ladigan toshlar haqida kitob»i 1905-yilda fransuz tiliga tarjima kilingan, «Jinsiy qobiliyat haqida kitob» O'zbekiston fanlar akademiyasi sharqshunoslik institutida qo'lyozma holida saqlanmoqda.

Siydik-tanosil a'zolari kasalliklari bo'yicha o'z davri uchun to'liq ma'lumot Abu Ali ibn Sino tomonidan 1012-1024 yillarda

yaratilgan «Tib qonunlari» asarida keltirilgan. Bu qomusiy asarda (III jild, 2-kitob) urologiyaning asoslari yoritilgan deyish mumkin.

Ko'p asrlar davomida bu asar Evropa va Osiyoda darslik sifatida juda qadrlangan. Aytishlaricha, Ibn Sino qovuqdagi toshlarni tushirish sir-asrorini bilgan. Zero, buyuk Mikelanjelo-ning «Boshqalarni qo'llab rost bo'lguncha, Galenu Avitsennani qo'llab adashish afzalroqdir» degan gapida jon bor.

Urologiya fanining eng asosiy qismi bo'lmish siydik-tosh kasalligi misolida shuni ta'kidlash mumkinki, siydik-tanosil kasalliklari bilan olim va tabiblar juda qadimdan shug'ullanishgan (ifodali qilib aytadigan bo'lsak, «Ibn Sinodan Arustamovgacha*»). Hatto Gippokrat «Qasamyodi»da ham negadir bu kasallikni davolashga munosabat alohida tarzda tilga olinadi: «Men hech qachon tosh kasalligi bilan xastalangan bemorlarda kesib olishni bajarmay, ularni shu ish bilan shug'ullanuvchilarga topshiraman».

Agar u davrlarda faqat dorilar va tabiiy taassurotlar bilan davolovchilar vrach sifatida tan olinganini, tig' bilan davolovchilar (ularni siydik-tosh kasalligiga nisbatan «tosh oluvchilar»-

*Arustamov Dmitriy Lvovich O'zbekistonda urologiya fani va xizmatini dunyo andozalari darajasiga ko'targan olim.

«kamneseki» - rus. deyishgan) esa sartarosh, etikdo'z va h.k. kabi kasb egalari qatoriga kiritilganini hisobga olsak, buyuk Buqrotning fikrini tushunish mumkin (e'tibor bering, ko'p davr, ba'zan hozir ham ko'pchilik sartaroshlar, ya'ni «ustoz»lar bir vaqtda sunnat qilish bilan ham shug'ullanishadi).

Urologiya ilmiy jihatdan xirurgiya tarkibida XIX asrda shakllana boshladi [39] va XX asrga kelib undan mustaqil fan sifa-tida ajralib chiqdi.

Respublikamizda u fan va tibbiy xizmat sifatida 1921 yildan boshlab professor N.S. Pereshivkin (1878-1933) (1-rasm) sa'y-harakatlari tufayli yuzaga kela boshladi. Bu olimning nomi o'zimizda va dunyo miqyosida ma'lumdir. Uning «Buyrak jomlari va siydik nayi kasalliklarining tashxisi», deb atalgan doktorlik disertatsiyasi klassik ilmiy ish hisoblanib, ko'plab darsliklarda keltiriladi, buyrak jomi va siydik naylari anatomiyasi va kasalliklari bo'yicha asosiy ilmiy ish sanaladi. Uning tomonidan yaratilgan «Sistoskopiya plastik atlas» asari ko'p vaqt dars berishda ko'rsatuv qo'llanma bo'lib xizmat qildi.



Professor N.S. Pereshivkin 1921 yilda Toshkentga kelib, O'rta Osiyo

SamDTU Rasm. N.S. Pereshivkin (1878-1933) axborot-resurs markazi

319326

davlat universiteti tibbiy fakulteti xirurgik propedevtika klinikasi raxbarligiga tayinlangach, siydik-tosh kasalligi va buyrak kasalliklarining issiq klimat sharoitida kechish xususiyatlari bo'yicha katta ilmiy izlanishlarni boshlab yubordi. Bundan tashqari u bu davrda D.A.Vvedenskiy, E.A.Frakman, V.I.Simonova, M.B.Levitanus, M.Mirsagatov, S.M.Igron kabi urolog mutaxassislarni tayyorladi.

1930 yilda Toshkent davlat tibbiyot institutida 25 o'rinli urologiya klinikasi va 1938 yilda esa 1-Toshkent shahar shifoxonasida 20 o'rinli urologiya bo'limi tashkil qilinadi. Ikkinchi jahon urushi paytida (1941-1945 yillar) D.A.Vvedenskiy va S.M.Igron urushga jalb qilingani tufayli faqat 55 o'rinli ToshMI klinikasi faoliyat ko'rsatgan. Bu klinika urush davrida aslida butun Respublika aholisiga urologiya xizmatini amalga oshirgan. Bu xizmatga E.A.Frakman, M.Mirsagatov, I.V.Shubladzelar boshchilik qilishgan. Bundan tashqari, shoshilinch urologiya xizmati Respublikamizdagi Evakogospitallardagi shoshilinch urologiya bo'limlarida bosh urolog konsultant dosent E.A.Frakman boshchiligida ham amalga oshirilgan.

O'sha yillarda dotsent E.A.Frakman tomonidan «To'liq emirilgan orqa uretrani tiklash» (ToshMI ilmiy ishlari to'plami, 1949) ilmiy ishi chop qilingan bo'lib, bu ilmiy asarda keltirilgan yangi usul faqat 1993 yilga kelibgina, u ham bo'lsa, «Urologiya

va nefrologiya» jumali sahifalarida o'tkazilgan katta va uzoq diskussiyadan keyin uretra plastikasining yangi usuli sifatida tan olindi.

1945 yilda urushdan qaytgan prof. D.A.Vvedenskiy 40 o'rinli ToshMI urologiya klinikasini boshqara boshlagan. Bundan tashqari 1945-1949 yillarda Gospital qayta tiklash xirurgiyasidagi hamda Ortopediya, travmatologiya institutidagi tiklash xirurgi-yasi tarkibidagi 15 o'rinli urologiya bo'limlari faoliyat ko'rsat-gan. 1952 yilda Toshkent shahar shifoxonasida 30 o'ringa mo'l-jallangan urologiya bo'limi ochildi. Bu bo'lim Toshkent vrach-lar malakasini oshirish instituti urologiya dotsentlik kursi uchun ilmiy baza hisoblangan. Bu kursni 1935 yildan 1950 yilgacha dotsent S.M.Igron, 1952 yildan esa dotsent E.A.Frakman olib borishgan.

Keyinchalik aholiga urologiya xizmatini yaxshilash maqsadida barcha viloyat shifoxonalarida urologiya bo'limlari ochishga, barcha viloyat va shahar poliklinikalarida urologiya kabineti tashkil qilishga hamda ko'proq urolog mutaxassislar, ayniqsa mahalliy xalq vakillaridan tayyorlashga qaror qilingan. Shunday qilib, 1955 yilda Respublika bo'yicha urologiya o'rinlari soni 125 tani, urologiya xonalari soni 12 tani, vrach-urologlar soni esa 32 nafarni tashkil qilgan (Berliner B.I., 1956) [8]. Bu ko'rsat-kichlar 1975 yilda taalluqli ravishda 1271, 139 va 210,

1980 yilda 1713, 194 va 281 tani tashkil qilgan bo'lsa (A.M.Xudoyberganov, 1981) [63], 2006 yilga kelib, Respublikamiz-da urologiya o'rinlari 1427 taga urologlar soni 589 taga etgan (A.A.G'aybullaev, 2007) [24]. O'zbekistonda hozirgacha urologiya-da asosiy ilmiy yo'nalish endemik kasallik sanalmish urolitiaz muammosi hisoblanadi. Birinchi dissertasiya ilmiy izlanishlari aynan siydik-tosh kasalligi masalalariga bag'ishlangan. Xuddi shunday, Xorazmdan A.A.Abudullaev (1962) «O'zbekiston SSR Xorazm va Samarqand viloyatlari davolash muassasalari materiallari bo'yicha bolalarda siydik-tosh kasalligining uchrashi», Qashqadaryodan A.A.Abduraxmonov (1968), «Bemorlarda toshli va toshsiz pielonefritni davolash tajribasi (O'zSSR Qashqadaryo viloyati kasalxonasi urologiya bo'limi materiallari asosida)», Samarqanddan N.A.Yusupov (1976) «Bolalarda ko'pjoyli urokalkulyoz» mavzularida dissertatsiya himoya qildilar.

1960 yilda esa I.P.Pogorelkonning «Siydik-tosh kasalligi» monografiyasi chop etildi. Bu fundamental ilmiy asar hozirda ham urologlarning doimiy qo'llanmasidir.

O'tgan asrning 60-80 yillarida O'zbekistonda urologiya fani va xizmatining rivojlanishida amaliyotga zamonaviy tekshirish usullari (radiologik, angiografik, urodinamik, kompyuter tomografiya va h.k.) kirib kelishi va davolash yo'llari (gemodializ,

TUR, perkutan va laparoskopik operatsiyalar, buyrak toshlarini masofadan parchalash va h.k.) tadbiriq etilishining ahamiyati katta bo'ldi va bu sohanning jahon andozalari darajasiga ko'tarilishiga imkon berdi.

Buyrak transplantatsiyasi masalalarida jahon olimlari qatorida O'zbekiston jarrorh-urologlari (O'.O.Oripov, D.L.Arustamov va boshq.) ma'lum yutuqlarga erishdilar.

Mamlakatimizda urologiyaning taraqqiyotiga professorlar I.P.Pogorelko, T.N.Pozdnyakova, O.M.Muxtorov, D.L.Arustamov, M.M.Mirsamatov va boshqalar ulkan hissa qo'shdilar.

Hozirgi davrda bu sohada yangi bo'g'in urolog-olimlari (F.A.Akilov, A.A.Gaybullaev, A.K.Shodmonov, Sh.T.Muxtarov, S.A.Allazov, F.Yu.Yuldashev va boshq.) keng qamrovli fao-liyat ko'rsatishmoqda.

Asrimizning boshlaridayoq respublikamizda shoshilinch tibbiy yordam markazi hamda viloyatlarda uning filiallari tarkibida shoshilinch urologiya bo'limlarining tashkil qilinishi mamlakatimizda urologiyaning rivojlanishiga yaxshi sharoit tug'dirdi.

Xorazmda Respublika ixtisoslashgan urologiya markazi filialining ochilishi va qolgan viloyatlarda ham shunday markazlar yaratilishi mo'ljallanganligi urologiya xizmatining yaxshilanishiga turtki bo'ladi.

O'zbekiston urologlari olib borgan ilmiy ishlari natijalari 6 ta Respublika (Toshkent, 1976, 1981; Farg'ona, 1981; Тошкент, 2015, 2016, 2022), 5 ta viloyat (Samarqand, 2001, 2022; Navoiy, 2004; Шахрисабз, 2019; Андижон, 2022) urologlari ilmiy amaliy konferensiyalarida hamda 6 ta Respublika urologlari s'ezdlarida (Toshkent, 1992, 2001, 2007, 2013, 2018, 2023) tahlil qilindi.

1.2. Samarqand urologiyasi tarixi

Samarqandda urologiya xizmati Respublikamiz miqyosidagi xuddi shunday xizmatning tarkibiy qismi sifatida barpo bo'ldi va taraqqiy etdi [3].

1932 yilda O'zbek davlat universitetining meditsina fakulteti va 1935 yilda Samarqand meditsina instituti tashkil qilinishi bilan fakultativ xirurgiya kafedrasi tarkibida urologiya fani ham o'qitila boshlangan.

Urologiyadan leksiyalarni har xil davrlarda professorlar A.A.Kozirev, B.E.Pankratev, A.V.Suqevskiy, G.M.Mins, dotsentlar B.F.Medvedkov, M.L.Kotlyarevskiy, M.K.Karaevlar o'qishgan.

1965 yili Respublika shifoxonasida (1-son Klinika) 45 o'rinli urologiya bo'limi ochilgach, uning bazasida IV kurs talabala-

riga ma'ruzalarni dotsent H.J.Raxmonov, amaliy mashg'ulotlar-
ni esa assistent N.A.Yusupov o'ta boshlagan. Mustaqil urologi-
ya kursi 1973 yili tashkil qilinib, uning birinchi mudiri qilib
dotsent H.J. Raxmonov tayinlangan (2-rasm). Dotsent Raxmo-
nov Hamid Jalilovich 1 may 1916 yilda Farg'onada tug'ilgan.
SamTI ni 1937 yilda tugatgan, Ikkinchi jahon urushida qatnash-
gan va 1947 yildan boshlab avval assistent, keyinchalik dotsent
bo'lib fakultativ xirurgiya kafedrasida, 1973-1984 yillar davo-
mida urologiya kursi mudiri va 1984 yildan to umrining oxiriga-
cha shu kurs, keyinchalik kafedra dotsenti sifatida faoliyat
ko'rsatgan. Dotsent H.J. Raxmonov uni bilganlar xotirasida
prinsipial xarakterli, yuqori professional xirurg-urolog va
kamtarin inson sifatida eslanadi. U bemorlarning hurmati va
olqishiga sazovor bo'lgan mutaxas-
sis edi.

Urologiya kursining birinchi
xodimlari dots. H.J.Raxmonov
(mudir), ass. N.A.Yusupov, ass.
N.K.Olimjonov va klinik ordinator
S.A. Allazovlar edi. 1976 yili N.A.
Yusupov dotsentlikka o'tkazildi va
R.N.Ibodov Moskvada aspirantura-
ni tugatib qaytgach, assistentlikka



2-rasm. H.J. Rahmonov
(1916-1988)

qabul qilindi. Urologiya jamoasi bu davrda ileotsistoplastika, siydik-tosh kasalligi, pielonefrit kabi muammolar ustida ilmiy izlanishlar olib bordi.

1979 yili urologiya kursi o'shanda qurilib bitkazilgan SamTI ning 2 son Klinikasi tasarrufiga o'tkazildi. 1984 yili kurs kafedraga aylantirildi va uning mudiri qilib shungacha fakultativ xirurgiya, bolalar xirurgiyasi va o'tishdan oldin pediatriya fakultativ xirurgiya kafedralarida ishlab yurgan t.f.d. U.B.Bekmuratov tayinlandi, ord. Shtiben F.P. bir muddat soatbay (keyin qisqa muddatga 0,25 stavkada) assistent bo'lib ishladi. U.B.Bekmuratov chet elga ishlashga ketgach, 1989 yildan boshlab urologiya kafedrasiga mudir qilib hospital xirurgiya kafedrasida ishlab yurgan t.f.d. A.S.Salomov o'tkazildi. Bu davrda kurs xodimlari buyrak va siydik yo'llarining infeksiyon-yallig'lanish kasalliklari, prostata bezining adenomasi kabi ilmiy muammolar ustida ilmiy ish olib borishdi. Urologiya kafedراسи 1990-1991 yillar davomida fakultativ xirurgiya kafedrasiga qo'shib yuborildi (kafedra mudiri - prof. I.R.Rustamov). 1997-1998 o'quv yili davomida urologiya kafedراسи pediatriya fakultetining xirurgiya kafedراسи bilan qo'shib, kafedra mudirligiga prof. A.S.Salomov saylandi. Bu paytda kafedrada urologiya bo'yicha darslarni prof. S.A.Allazov, t.f.n. ass. Z.R.Shodmonova, ass. D.R.Sayapova, ass. R.I.Hamitov va ass. N.A.Boboqulovlar olib borishdi.

1996 yilda D.R.Sayapova prof. S.A.Allazov rahbarligida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi. Bu yillarda urologiya klinikasida "Uroliks" majmuasi, Litotriptor "Urat-II" oʻrnatilishi tufayli viloyat aholisiga koʻrsatilayotgan urologiya xizmati yangi pogonaga koʻtarildi.

Urologiya kafedrasining aʼzolaridan S.A.Allazov 1992 yili Samarqandda birinchi boʻlib urologiya fanidan doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi va 1999 yil 1 sentyabrdan boshlab urologiya kursi mudirligiga tayinlandi. U urologiya kursi (yoki kafedrasida) subordinator, klinik ordinator, assistent, professorlikdan to kurs mudirligigacha boʻlgan yoʻlni bosib oʻtdi. Ayni paytda prof. S.A.Allazov Samarqand viloyat urologiya ilmiy jamiyatining raisi hamdir.

Urologiya kursi "Pediatriya fakulteti xirurgiyasi va urologiya" deb atalgan kafedradan 1999 yil 23 martda ajratildi va mustaqil urologiya kursiga aylantirilib, prof. Allazov S.A. mudir qilib tayinlandi.

Mustaqil urologiya kursi 2006 yildan 6-7 kurslar xirurgik kasalliklari kafedrasini bilan birlashtirildi.

Bu davrda urologiyada juda koʻp qoʻllaniladigan adenomektomiya jarrohligi amaliyotida qon ketishni toʻxtatish maqsadida juda qulay mahalliy usul – lagoxilus dimlamasidan foydalanib yaxshi natijalarga erishildi [2]. Bunda adenoma

o'rnini tampon qilish, tikish yoki koagulyatsiya qilishga hojat qolmaydi. 2013 yilda urologiya kursini xirurgiya kafedrasidan o'tkazilgan prof. B.U.Sobirov boshqardi. 2014 yildan to 2023 yilgacha urologiya kursini (kafedrasini) – t.f.n., dots. Z.R.Shodmonova boshqardi.

Hozirgi vaqtda 1-xirurgik kasalliklar, transplantologiya va urologiya kafedrasida t.f.d., prof. S.A.Allazov, t.f.n. dots. Z.R.Shodmonova, ass. t.f.n. B.T.Ishmuradov, PhD ass. R.R.Gafarov, ass. N.A.Boboqulov, ass. G'.A.Hamroev, ass. F.M.To'xtaev, ass. Yu.N.Iskandarovlar, ass. B.A.Batirov, magistrlar va klinik ordinatorlar faoliyat ko'rsatmoqdalar. SamTI urologiya kursida 2010 yilda magistratura ochildi va hozirgi kungacha 30 dan ziyod magistratura rezidentlari bitirib ketishdi.

Samarqandda birinchi 45 o'rinli urologiya bo'limi 1965 yilda 1-son klinikada tashkil qilingan (mudirlari N.A.Yusupov, J.B.Rustamov), ungacha urologik bemorlarni vrach-urolog N.A. Yusupov (keyinchalik t.f.n., dotsent) viloyat kasalxonasida, G.U.Rafikov (keyinchalik t.f.n., dotsent) shahar klinik shifoxonasida urologiya xonasida qabul qilishgan. 1979 yilda urologiya bo'limi 60 o'ringa yetkazilib, 2 son klinikaga o'tkazilgan (mudirlari t.f.n. M.Sh.Yagudaev, K.M.Mardonov). Keyinchalik 30 o'rinli urologiya bo'limi 1-son kasalxonasida (mudiri -

Z.J.Kamolov), 50 o'rinli ftiziourologiya bo'limi Silga qarshi kurash kasalxonasi qoshida ochilgan (mudiri - I.Ya. Xayimchaev, J.B.Rustamov) 60 o'ringa mo'ljallangan, alohida imoratda, zamonaviy jihozlangan urologiya bo'limi vrachurolog N.A.Mustafaev harakati bilan 1979 yilda Kattaqo'rg'on shahrida tashkil etiladi. Oxirgi yillarda viloyat tumanlaridan Urgut (mudiri - R.A.Amonov), Pastdarg'om (mudiri - N.S.Salimov), Payshanbada (mudiri - N.Maxmudov)da 20-30 o'rinli urologiya bo'limlari ochildi. «Sun'iy buyrak» bo'limi (mudiri - N.M.Saydaliev) oldin viloyat shifoxonasida ochilib, keyinchalik 2-son klinika tasarrufiga o'tkazildi. 2000 yil viloyat shifoxonasida 25 o'rinli urologiya va andrologiya bo'limi (mudir - B.O.Xolmatov) ochilishi bu xizmatni yaxshilashda katta qadam bo'ldi.

Shu kunlarda viloyatimizda 67 nafar urologlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ulardan 1 nafari t.f.d., prof., 1 nafari t.f.n. dots., 7 nafari t.f.n., 9 nafari oliy toifali, 13 nafari 1 toifalidir. Samarqandda 4 ta urologiya bo'limlarida 190 ta o'rin faoliyat ko'rsatadi, jumladan RSHTYOIM Samarqand filialida 10 o'rin, 1-son viloyat shifoxonasida 25 o'rin, 1-son shahar shifoxonasida 30, suyak sil kasalliklari shifoxonasida 40 o'rin. Bundan tashqari «Bolalar jarrohligi» markazida 40 o'rinli bolalar urologiyasi bo'limi faoliyat ko'rsatmoqda.

Viloyat urologlari faoliyatini boshqarish, takomillashtirish uchun Samarqand viloyati urologlari ilmiy jamiyatining ahamiyati kattadir.

Bu jamiyat birinchi bor 1983 yil 24 fevralda tashkil qilinib, raisligiga dots. H.J.Raxmonov saylangan bo'lib, jamiyatning faoliyati har xil sabablarga ko'ra 1986 yilda to'xtagan edi. SamTIda 15.VI.1999 yilda mustaqil urologiya kursi tuzilgach, jamiyat faoliyatini ham tiklashga erishildi (rais - prof. S.A.Allazov).

Samarqand viloyati urologlari urologik bemorlarga zamona-viy yordam ko'rsatishdan tashqari, ilmiy izlanishlar, o'quv jarayoni bilan ham band bo'lib, kelajakda yuqori ufqlarni mo'ljalab turibdi.

2-BOB. UROLOGIYA FANIDA ILMIY IZLANISHLAR OLIB BORISHNING METODOLOGIYASI (USLUBI)

“Fan”, jumladan “Urologiya fani” bir necha tushuncha va mazmun-mohiyatni qamrab oladi. Birinchidan, fan tabiat, jamiyat, fikrlash va atrof dunyoni o‘rganishga asoslangan bilimlarni shakllantirishga va tizimlashtirishga qaratilgan inson faoliyati doirasidan iboratdir. Ikkinchidan, fan inson faoliyati natijasi o‘laroq ilmiy bilimlarga ega bo‘lishdir. Va nihoyat, uchinchidan fan – bu sotsial institut bo‘lib, aholining dunyoqarashini shakllantiradi [7].

Fanning maqsadi ob‘ektiv va sub‘ektiv olam haqidagi bilim olish yo‘li bilan ob‘ektiv haqiqatga intilishdir.

Fanga taalluqli darsliklar, qo‘llanmalar va boshqa manbalarda keltirilishicha, urologiya – bu xirurgik fanlar jumlasidan bo‘lib, erkaklarda siydik-tanosil a‘zolarining va ayollarda buyraklar, siydik yo‘llari xirurgik kasalliklarini o‘rganadigan fandır [18,36,47]. Bu fanning bolalarga taalluqli tomonlari bolalar xirurgiyasi tarkibida o‘rganiladi. Oxirgi yillarda “Andrologiya” fani (“Erkaklar salomatligi”) taraqqiy etib, alohida soha mohiyatiga ega bo‘la boshlagach, urologiya fanining qolgan-qutgani dasturlarda “Umumiy urologiya” deb atala boshlandi. Bizningcha, kattalar va bolalar urologiyasini qayta birlashtirib,

“Umumiy urologiya” deb atash ma’qulroqdir. Zero, urologiya mustaqil fandır. Uni xirurgiyaning yoki bolalar xirurgiyasining bir qismi degan da’voga chek qo’yish vaqti keldi.

Ilmiy izlanishlar jarayonini zamon talab darajasiga ko’tarish bu yangi texnologiyalar va vositalarni modernizatsiyalash va takomillashtirishni talab qiladi [6,33,59]. Bundan asosiy maqsad: Nazariy va amaliy ilmiy mavzularni rejalashtirishda bu texnologiyalarning barcha turi bo’yicha bilim, ko’nikma va malakalarini inobatga olish va qo’llashdan iborat bo’ladi [9,10].

Bunday sharoitda tinglovchilar iqtidorli talabalar, yosh olimlar, ilmiy izlanuvchilar mavzuni o’rganish natijasida quyidagi bilim, ko’nikma va malakalarga ega bo’ladilar [58]:

- nazariy va amaliy mavzu yo’nalishlariga ta’rif bera bilish;
- Ilm-fan jarayoni elementlarini sanab bera olish;
- ta’lim beruvchining ilmiy raxbarlik, didaktik hatti-harakatlari mavzuni tushuntirib berishiga ko’mak berishi;
- Ilmiy izlanish bosqichlarining farqlanishi;
- Ilmiy maqsadlarni ularning turlari bo’yicha farqlash;
- Ilmiy izlanish jarayoniga axborot texnologiyalarini tadbiq etish;
- Ilmiy izlanishlarni isbotli tibbiyot darajasiga kutarish uchun innovatsion texnologiyalar, gemodializ, magnitli-rezonans

tomografiya, doppler tekshirishlari usullaridan keng foydalanish.

Amerikalik psixolog olim Bendjamin Blum tomonidan yaratilgan “Blum taksonomiyasi”ga ko‘ra o‘rganish darajasi 6 pog‘onaga ajratilib, «Bilish», «Tushunish», «Qo‘llash», «Tahlil», «Sintez» va «Baholash» darajasi kabi kognitiv o‘quv maqsadlari farqlanadi. Chet el tadqiqotlarida ko‘pincha algoritm (dizayn) usullari qo‘llaniladi (oddiydan murakkablashib borish tariqasida) [26,37,64]:


1. Ilmiy hodisani e‘lon qilish;
2. Ilmiy hodisalar guruhini tekshirish;
3. Hodisa – nazorat usuli;
4. Kogortt – tadqiqot;
5. Bir bosqichli tekshirishlar;
6. Randomizatsiyalangan klinik tadqiqot (“oltin standart”).
 - 6a. Ochiq tadqiqot,
 - 6b. Yopiq tadqiqot:
 - Oddiy ko‘r-ko‘rona,
 - Ikki tomondan ko‘r-ko‘rona,
 - Uch tomondan ko‘r-ko‘rona;
 - 6v. Multimarkazlashtirilgan

O‘zbekistonda boshqa fanlar qatori, urologiya sohasida ham, kogort, randomizatsiyalashtirilgan ilmiy tadqiqotlar bajarish

davri keldi deb o'ylaymiz [28,62]. Zamonaviy vrachlar, ilmiy xodimlarning kundalik mehnat jarayonlaridagi eng katta muammo dunyo miqyosidagi yangiliklar bilan tanishib borish uchun vaqtning etishmasligidir. Buning uchun kuniga kamida 15 ta jurnal maqolalarini o'qib borish kerak. Aslida, deylik Buyuk Britaniya vrachlari o'qishga bor-yo'g'i haftasiga bir soatgina sarf qilisharkan.

UROLOGIYA FANIDAN ELEKTRON O'QUV MODULI

**Oliy ta'lim o'quv jarayoniga texnologik yondashuvni
tadbiq etishning umumiy tavsifi**



MODUL ISHLANMASI

2.1. «Urologiya»

**Fanining 2022-2023 o'quv yili uchun mo'ljallangan
elektron modul tarkibi:**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI

SAMARKAND DAVLAT TIBBIYOT UNIVERSITETI

1-xirurgik kasalliklar, transplantologiya va urologiya kafedrası



**«Ilmiy izlanish uslubi va etikasi»
mavzusi bo'yicha**

KEYS – TEXNOLOGIYA

KEYS

**Urologik bemorlarda ilmiy tadqiqotlar olib borishda
iqtidorli talabalar, klinik ordinatorlar, magistrlar
va izlanuvchilar yo'l-yo'riqlari to'g'risidagi
muammoni hal qilishga qaratilgan**

SAMARQAND – 2023

2.2. Keyslar to'plami, amaliy topshiriqlar, ishlanmalar

Pedagogik annotatsiya. Fan: «Urologiya». Misol tariqasida ilmiy mavzu sifatida:

«Gematuriya: klinikasi, diagnostikasi, differensial tashxisi va davosi. Iqtidorli talaba taktikasi» olindi.

Keysning asosiy maqsadi:

- Gematuriya rivojlanishiga olib keluvchi asosiy sabablarni muhokama qilish;
- Talabalarga gematuriyaning diagnostika mezonlarini, gematuriya tasnifini o'rgatish;
- Differensial tashxis o'tkazish prinsiplarini ko'rsatish;
- Gematuriya bilan namoyon bo'lgan kasalliklarni davolash usullarini o'rgatish;
- Makrogematuriyada birinchi yordam ko'rsata bilishni o'rganish;
- Talabalarga sog'lomlashtirish rejasini tuzishni o'rgatish.

O'quv faoliyatidan kutilayotgan natijalar – keys bilan ishlash natijasida talabalar quyidagi ko'nikmalarni egallashadi:

- Holatni tahlil qilish va baholash.
- Tashxis qo'yish uchun to'g'ri algoritmni tanlash.
- Mustaqil davo tayinlash.
- Gematuriyada birinchi yordam ko'rsata olish.

Ushbu keysni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun talabalar quyidagi bilim va ko'nikmalarga ega bo'lmoqlari lozim:

- Gematuriya rivojlanishining mexnizmlari;
- Diagnostika mezonlari;
- Asosiy klinik belgilari;
- Differensial tashxis o'tkazish algoritmi;
- Davolash va profilaktika o'tkazish prinsiplari;
- Tor mutaxassislar ko'ruviga ko'rsatmalar.

Ushbu keys birlamchi zveno sharoitida real vaziyatni ifodalaydi.

Manbalardan foydalanish uchun tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati:

ASOSIY

1. Uchebnik «Urologiya». Pod redaksiyey N.A.Lopatkina M., Meditsina. 2008.
2. Uchebnik «Urologiya». Pod redaksiyey D.Yu.Pushkaryaya M., 2014.
3. Allazov S.A. Urologiya. Darslik. Samarqand, 2008: 132 bet.
4. Standartnie protokoli dlya VOP. 2005 g.

QO'SHIMCHA

1. www.uroweb.org
2. www.medscpa.com
3. www.emedicine.com
4. www.nejm.org

Texnologik xususiyatlardan kelib chiqqan holda keysning tavsifnomasi:

Ushbu keysning asosiy manbai kabinetli, lavhali bo'lib, vaziyat davriy ketma-ketlikda bayon etilgan. Keysning asosiy ob'ekti bemor. Bu tashkiliy institutsional keys bo'lib, ma'lumotlar vaziyatlar va savollar asosida tuzilgan. Hajmi o'rtacha, tizimlashtirilgan bo'lib, treninga mo'ljallangan o'quv mavzu bo'yicha bilim va ko'nikmalar hosil qilishga qaratilgan. Didaktik maqsadlarga ko'ra keys muammolarni taqdim etishga, ularni hal etishga, tahlil qilish va baholashga qaratilgan. Ushbu keysdan urologiyadan tashqari xirurgiya, travmatologiya hamda anesteziologiya-reanimatologiya fanlarida ham foydalanish mumkin.

«Gematuriya: klinikasi, diagnostikasi, differensial tashhisi va davosi. Iqtidorli talaba taktikasi»

Kirish

Gematuriya – siyish vaqtida namoyon bo'ladigan, patogenetik kelib chiqishi bir-biriga bog'langan simptom bo'lib, ushbu simptom asosan, buyrak, siydik yo'llari a'zolari kasalliklarida namoyon bo'ladi.

Mo'ljallangan keysni hal qilish talabalarga quyidagi o'quv natijalarga erishishga yordam beradi:

- Gematuriya: urologik va nefrologik xarakterdagi gematuriya bo'lgan bemor holatini tahlil qilish va baholash, gematuriyani uretroragiyadan farqlash.
- Tashxis qo'yish uchun to'g'ri harakat algoritmini tanlash.
- Differensial tashxis o'tkazish.

- Mustaqil ravishda davo choralarini belgilash.
- Gematuriyada birinchi yordam sifatida gemostatik chora-tadbirlarini qo'llash malakasini egallash.

Xolatiy vaziyat:

№1 Holat.

Shikoyatlari: Qabul bo'limiga 40 yoshli erkak bemor siydigiga qon aralashib chikishiga, kuchli og'riqli siyish qistoviga shikoyat qilib keldi.

Kasallik anamnezidan: 1 yil oldin bemor siyish vaqtida siydigiga qon aralashib ajralganligi va 2 kundan keyin o'zi yuqolib ketganligini eslatadi. Bugun ertalab besabab yana siydigida qon paydo bo'lgan va tez tibbiy yordam moshinasida shifoxonaga olib kelingan.

Ob'ektiv ko'rik: Bemor hushi joyida, savollarga adekvat javob beradi. Bemorning holati notinch, tana harorati 36,9°, AQB-100/50 mm sim. ust., puls – 1 daq. 95 ta Ko'zdan kechirilganda tashqi jinsiy a'zolar sohasida o'zgarishlar ko'zga tashlanmaydi. Qorin parda ta'sirlanish belgilari, meatostenoz, uretrorragiya alomati yo'q. Qo'l va oyoqlarning harakat faoliyati, bosh miya nervlarining faoliyati buzilmagan. Bemor idishga siydirilganda siydigi qizil-qoramtir

Prostata bezi barmoq bilan to'g'ri ichak orqali paypaslanganda og'riqsiz, yuzasi silliq, konturlari tekis.

Umumiy qon tahlili: Hg - 78 g/l, Er - $3,4 \times 10^{12}/l$, leykotsitlar - $5,2 \times 10^9$, p/ya - 6%, s-65%, e-2%, l-33%, m-4%, EChT-12 mm/soat.

Qon biokimyoviy tahlili: glyukoza - 4.5 mmol/l, siydikchil 6,6 mmol/l, kreatinin 0.09 mmol/l, bilirubin: to'g'ri - 3.3 mmol/l, umumiy - 10 mmol/l;

Buyrak UTT - o'ng buyrak konturlari biroz kattalashgan, notekis.

Qovuq UTT - qovuqda 100 ml hajmda siydik bor, qovuq bo'shlig'i-da tosh, o'simta, yot jism aniqlanmaydi. Prostata bezi o'lchamlari 3.6x3.4x2.5sm.

Savollar:

1. Tashxisingiz va uning asoslanishi?
2. Qaysi kasalliklar bilan differensial tashxis o'tkazish lozim?
3. Umumiy amaliyot shifokori taktikasini ko'rsating.

Topshiriq: Bemor holatini tahlil qilish asosida taxminiy tashxis qo'yish, zaruriy tekshiruvlarni o'tkazish, bemorni keyinchalik davolash uchun asosli to'xtamga kelish.

Talabalar uchun metodik ko'rsatmalar

Muammo:

Tashhislash va davolash prinsiplarini tanlash.

Kichik muammo:

1. Tashqi ko'rinishni tahlil qilish
2. Anamnez va kasallik rivojlanishiga sabab bo'lgan etiologik omillarni tahlil qilish
3. Ko'zdan kechirish davomida olingan ma'lumotlar tahlili
4. Kerakli tashxisot usullarini tanlash
5. Olingan natijalarni taqqoslash va differensial tashxis o'tkazish
6. QVP sharoitida muammoni hal qilishga erishish

Muammoni echish algoritmi

1. Tashqi ko'inishni baholash o'z ichiga quyidagilarni oladi: a) teri va shilliq qavatlarni ko'zdan kechirish; b) qon-tomir tizimining holati
2. Anamnez taxlili: a) boshdan o'tkazgan kasalliklari; b) oilaviy-ijtimoiy anamnez; v) kasallikning davomiyligi va xarakteri.
3. Ko'zdan kechirish davomida olingan ma'lumotlar tahlili: a) Puls, nafas olish soni; b) qorin va bel sohasi palpatsiyasi; v) turtki simptomi; g) buyrak, qovuq va tashqi jinsiy a'zolar palpatsiya va perkussiyasi.
4. Tashxis qilish uchun kerakli usullar: a) qon umumiy tahlili; b) qonning biokimyoviy tahlili; v) siydik yo'llari UTT; g) ko'rsatmaga ko'ra siydik yo'llari obzor va ekskretor urografiyasi.
5. Olingan natijalarni taqqoslash va quyidagi kasalliklar bilan qiyosiy tashxis o'tkazish: a) uretra toshi; b) qovuq o'smasi; v) buyrak o'smasi; g) qovuq toshi; d) uretra travmasi; e) qovuq travmasi.
6. QVP sharoitida muammoni hal qilishga erishish: a) davo belgilash; b) shoshilinch hospitalizatsiya; v) birinchi yordam ko'rsatish

Amaliy vaziyatni mustaqil ravishda tahlil qilish va hal qilish uchun yo'riqnoma

Vaziyatni tahlil qilish varag'i

Ish bosqichlari	Tavsiyalar va maslahatlar
1. Keys va uning axborot ta'minoti bilan tanishish	Avval keys bilan tanishing O'qish paytida vaziyatni tahlil qilishga shoshilmang
2. Berilgan vaziyat bilan tanishish	Ma'lumotlarni yana bir marotaba diqqat bilan o'qib chiqing. Siz uchun muhim bo'lgan satrlarni belgil-

	<p>ang. Bir abzatsdan ikkinchi abzatsga o'tishdan oldin, uni ikki marotaba o'qib, mazmuniga kirib boramiz. Keysdagi muhim fikrlarni qalam yordamida ostini chizib qo'ying.</p> <p>Vaziyatni tasniflashga harakat qilib ko'ring. Muhim va ikkinchi darajali ma'lumotlarni ajratib ko'ring.</p>
<p>3. Muammoli vaziyatni taxlil qilish</p>	<p><i>Muammo:</i></p> <p>Asosiy muammo nimaga qaratilganligini aniqlang. Muammo ostidagi muammolar asosiy muammo bilan qanday o'zaro bog'liqligiga izoh bering. Muammo-ning asosiy mazmunini ajratib oling. Muammoli vaziyatni tahlil qilish – bemorning holatini aniqlang, asosiy belgilariga e'tibor bering, muammoli vaziyat-ning hamma tomonlarini tahlil qiling.</p>
<p>4. Vaziyat tahlili-ni tashxislash.</p>	<p>Vaziyatni tahlil qilishda quyidagi savollarga javob toping:</p> <p>Qaysi kasalliklar peshobda qon bilan kechadi?</p> <p>Qaysi kasalliklar bilan qiyosiy tashxis o'tkazish kerak?</p> <p>Qanday tekshirish usullarini qo'llash kerak, QVP sharoitida bemorni tekshirish rejasini tuzing.</p> <p>Klinik tashxis qo'yish uchun qaysi tor mutaxassis-larning maslahati kerak?</p> <p>Keyingi kuzatuv zaruriyatini aniqlang (medikamentoz va nomedikamentoz davo).</p>

5. Muammoni echish usullari va vositalarini tanlash.	Ushbu vaziyatda muammoni hal qilishning barcha usullarini sanang.
6. Muammoli vaziyatni hal qilish	Tashxis qo'ying, qiyosiy tashxis o'tkazing, QVP sharoitida muammoni hal qiling.

**Amaliy vaziyatni guruh bilan tahlil qilish va yechish uchun
yo'riqnoma**

Ish bosqichlari	Tavsiyalar va maslahatlar
Vaziyat va muammo bo'yicha kelishilgan tasavvurga ega bo'lish.	Guruh a'zolarining muammo, vaziyat va kichik muammolar bo'yicha fikrlarini muhokama qilish va kelishish.
Muammoni hal qilish uchun taklif etilgan usullarni tahlil qilish va baholash, muammoni echish uchun ustuvor g'oyani tanlash.	Muammoni hal qilish uchun taklif qilingan usullarni baxolang va muhokama qiling. Sizning fikringizga binoan muammoni hal qilish uchun eng ustuvor bo'lgan g'oyani tanlang.
Muammoni hal qilishda hamma uchun ma'qul bo'lgan variantni topish va uni amalga oshirish uchun batafsil ishlab chiqish.	Muammoni hal qilish uchun hammaga ma'qul variantni tanlang va uni amalga oshirishni ishlab chiqing. Tashxisingizni asoslab bering; Xarakatlaringizni asoslang.
Prezentatsiyani tayyorlash	Guruh nomidan natijalarni og'zaki prezentatsiya shaklida tayyorlang. Guruh ishini kim himoya qilishini muhokama

	<p>qiling: lider yoki har bir talaba o'ziga biriktirilgan qismini aytib berishini hal qiling. Plakat, slayd yoki multimedia tarzida illyustratsiya materiallarini tayyorlang.</p> <p>Axborotni tayyorlayotganingizda nima to'g'risida gapirishingizni oldindan rejalashtiring, juda mayda tafsilotlarga e'tibor bermang!</p>
--	--

Muammoli vaziyatni tahlil qilish va yechish varag'i

Keys bilan ishlash bosqichlari	Ish bosqichining mazmuni
Keysda keltirilgan vaziyat bilan tanishish	Berilgan konkret vaziyatning obzori va masalani hal qilish uchun zarur axborotni aniqlash.
Vaziyatning tahlili	<p>Vaziyatni tahlil qilishda quyidagi savollarga javob bering:</p> <p>O'tkir siydik tutilishiga sabab bo'lgan anamnestik ma'lumotlar va dastlabki hodisalarni tahlil qilish.</p> <p>Ob'ektiv ko'ruvni tahlil qilish.</p> <p>Diagnostika uchun kerakli usullarni tanlash.</p> <p>Olingan natijalarni solishtirish va qiyosiy tashxis o'tkazish. QVP sharoitida muammoni hal qilishga to'xtalish</p>

Muammoni asoslash	Muhim muammo va uning tarkibiy qismlarini asoslash.
Muammoni yechish alternativlarini tanlash	Vaziyatli masalani yechishning alternativ usullarini ifoda qilish.
Muammoni yechish va asoslash	Konkret yechimni ishlab chiqish va asoslash.

O'qituvchi-keysolog tomonidan keysni yechish varianti

KEYS – SEMINARDA O'QITISH TEXNOLOGIYASI

O'qitish texnologiyasi modeli

Mavzu	Gematuriya
Ajratilgan vaqt – 2 soat	Tinglovchilar soni: 8-10
O'quv mashg'uloti shakli	Gematuriya mavjud bo'lgan bemorni olib borish taktikasini ishlab chiqish bo'yicha bilim va ko'nikmalarni chuqurlashtirish
Seminar rejasi	O'quv mashg'ulotiga kirish, Bilimlarni dolzarblashtirish, Keys bilan kichik guruhlarda ishlash, Natijalarni prezentatsiya qilish, Eng yaxshi strategiya variantini muhokama qilish va tanlash. Xulosa. Guruh va talabalar ishiga va o'quv mashg'uloti maqsadiga erishilganligiga baho berish.

O'quv mashg'ulot maqsadi: Gematuriya bezovta qilayotgan, ayniqsa, makrogematuriya bilan og'riqan bemorlarni olib borish usullari to'g'risidagi bilimlarni chuqurlashtirish. Vaziyatni baholash, tahlil qilish, tashxislash, bemorni olib borish taktikasini aniqlash, qiyosiy tashxis o'tkazish va davolashni o'rgatish.

Pedagog vazifalari:

- Vaziyatni va gematuriyasi bor bemorning umumiy ahvolini baholash to'g'risidagi bilimlarni mustahkamlash va chuqurlashtirish.
- Tashxis qo'yish uchun zarur ko'nikmalarni to'g'ri tanlash algoritmini o'rgatish.
- Davo belgilash ko'nikmalarini ishlab chiqish
- Gematuriyasi bor bemorni mustaqil olib borish ko'nikmalarini rivojlantirish

O'quv mashg'ulot natijalari:

- Vaziyatni va gematuriyasi bor bemorning umumiy ahvolini baholaydilar, tahlil qiladilar.
- Tashxis qo'yish uchun harakat algoritmini tanlaydilar.
- Gematuriyasi bor bemorni mustaqil olib borish ko'nikmalarini rivojlantiradilar
- Davolash rejasini ishlab chiqishadi

O'qitish usullari	Keys-stadi, munozara, amaliy usul
O'qitish vositalari	Keys, metodik qo'llanmalar
O'qitish shakli	Individual, umumiy, guruhlarda ishlash
O'qitish sharoiti	Guruhlarda ishlash uchun

	mo'ljallangan texnika bilan ta'minlangan auditoriya
Monitoring va baholash	Kuzatuv, test savollari, vaziyatli masalalar va amaliy ko'nikma

Keysga asoslangan o'quv mashg'ulotining texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va mazmuni	Faoliyat	
	Pedagog	Talabalar
<i>Tayyorlovchi bosqich</i>	Keys stadining maqsadi va uning professional bilimlarni rivojlantirishdagi o'mini tushuntiradi. Keys materiallarini tarqatadi va vaziyatni tahlil qilish algoritmi bilan tanishtiradi (talabalar uchun metodik ko'rsatmalarga qarang) Mustaqil ravishda tahlil qilish va natijalarni "Vaziyatni tahlil qilish varag'i"ga kiritish topshirig'ini beradi.	Eshitadilar Mustaqil ravishda keys mazmunini o'rganadilar va vaziyatni tahlil qilish varag'ini to'ldiradilar.
<i>I bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish (10-15)</i>	1.1. Mashg'ulotning nomi, rejasi, maqsadi, vazifalari va o'qitish natijalarini e'lon qiladi. 1.2. Mashg'ulot o'tkazish tar-	Eshitadilar Tegishli yozuvlarni qiladilar

<i>daqiq)</i>	tibi va natijalarni baholash mezonlari bilan tanishtiradi (talabalar uchun ko'rsatmaga qarang)	
<i>II bosqich</i> <i>Asosiy</i> <i>60 daqiqa</i>	<p>2.1. Muammoni qo'yish va vaziyatni tanlashni asoslaydi. Talabalarning mavzu bo'yi-cha bilimlarini faollashtirish uchun tezkor so'rovnoma o'tkazadi:</p> <p>Gematuriya simptomi qaysi a'zolar kasalliklarida rivojlanadi?</p> <p>Ushbu simptomning rivojlanish sabablari nima?</p> <p>Gematuriyada birinchi yordam nimadan iborat?</p> <p>2.2. Talabalarni guruhlariga ajratadi. Keysning mazmuni va vazifalarini eslatadi. Guruhlarda ishlash va bahslash qoidalari bilan tanishtiradi (eslatadi).</p> <p>2.3. Topshiriq beradi, topshiriqni to'g'ri tushunishganini aniqlaydi:</p>	<p>Savollarga javob beradilar, muhokama qiladilar, aniqlovchi savollarni beradilar.</p> <p>Guruhlariga bo'linadilar</p> <p>Muhokama qiladilar individual muammoni birgalikda tahlil qiladilar, vaziyatning eng muhim tomonlarini aniqlaydilar, ularni yechish usullarini belgilaydilar, to'xtam natijalarini rasmiylashtiradilar</p> <p>Muammoni hal qilish</p>

	<p>Qaysi kasalliklar bilan qiyosiy tashxis o'tkaziladi?</p> <p>QVP sharoitida qaysi diagnostik usullardan foydalaniladi?</p> <p>Gematuriyasi bo'lgan bemorlarni olib borish va davolash taktikasi qanday?</p> <p>2.4. O'quv faoliyatini muvofiglashtiradi, maslahat beradi, yo'naltiradi.</p> <p>Individual ish natijalarini baholaydi: Vaziyatni tahlil qilish varaqlari.</p> <p>2.5. Keysni echish natijalari bo'yicha prezentatsiyalarni tayyorlaydi, muhokama qiladi.</p> <p>Munozara tashkilotchisi: savollar beradi, e'tirozlar bildiradi, nazariy materialni eslatadi.</p> <p>2.6. Berilgan vaziyatda UASH faoliyati algoritmi organayzeri.</p> <p>2.7. Keysni echishning o'z</p>	<p>variantlarini 10-15 daqiqada izhor qiladilar</p> <p>Prezentatsiyadan keyin savollar beradilar, optimal variantni tanlaydilar</p> <p>Umumiy sistemani ishlab chiqadilar, munozara</p>
--	--	---

	variantini xabar qiladi	
<i>III bosqich</i> Darsga xulosa qilish, tahlil va baholash 20 daqiqa	3.1. O'quv faoliyati natijalarini umumlashtiradi, individual va umumiy ish bahosini e'lon qiladi. Guruhni tahlil qiladi va baholaydi, ijobiy va salbiy tomonlarni qayd qiladi. 3.2. Keys stadining ahamiyati va uning bo'lgusi mutaxassisga ta'sirini ta'kidlaydi	Eshitadilar. O'z-o'ziga va bir-birlariga baxo berishlari mumkin O'z fikrlarini bayon qiladilar

Jurnalist Baxrom Rajabov bu masalani dunyo miqyosida qiyosan o'rganib, Respublikamizda ilmiy izlanishlar holatiga xolisona baho berishga intilgan [50].

Muallif bu masalani ishonarli holda dunyo bo'yicha 1951 yildan boshlab keng tarqalgan "Aql markazlari" misolida tahlil qiladi.

Marhamat, qiyosiy statistika: AQSHda 1872 ta, Xitoyda 512 ta, Buyuk Britaniyada 444 ta, Hindistonda 293 ta, Germaniyada 225 ta, Qozog'istonda 31 ta, Qirg'izistonda 28 ta, O'zbekistonda 12 ta, Tojikistonda 7 ta. Yaxshiyam jon qo'shnimiz Tojikiston bor ekan, oxirgi o'rinda bo'lishlikdan qutqarib turipti.

Gap muallif keltirgan raqamlarda emas, gap bu muammoning o'zaklarini ochib tashlab, uni hal qilishning choratadbirlarini ko'rsata bilganida:

1. Mamlakatimizda "Aql markazlari" davlat tomonidan tashkil etilgan va ular ham hukumat buyurtmasini bajarishi maqbul hol emas.

2. Ma'lumotlar to'g'ridan-to'g'ri bu markazlarga ob'ektiv va ishonarli holda yetib bormasligi yuqorida keltirilgan birinchi muammo bilan bog'liq.

3. "Aql markazlari" xodimlarini, tadqiqotchilarini tayyorlashga mo'ljallangan korxonalarining yo'qligi.

4. Til to'sig'i, tahlilchilar etishmasligi, ya'ni nafaqat o'zbek tili, hatto rus, yapon, olmon va boshqa tillarda tayyorlangan "Aql markazlari" mahsulotlari ingliz tili kabi dunyo miqyosida qo'llanila olmaydi.

5. Taskin shundaki, oxirgi paytda bu yo'nalish ancha jonlandi. Ijtimoiy sohalarda o'rganilayotgan tahlili metodologiya, boshqa sohalarga ham tarqaladi, degan xulosa va umidlar jurnalist-tadqiqotchi B. Rajabovning bu masalaning kelajagini to'g'ri belgilaganligidan darak beradi.

3-BOB. OLIMLIK VA ILMIYLIK DA'VOLARI

*To quyosh sochgayki nur...
Uch bu so'z yondosh bo'lur:
Olimu ilmu amal...*

Erkin Voxidov (1936-2016)

Ilmiy ish bu tezis-maqolalar yozish, hattoki monografiyayu-darsliklar chop etish ham emas. Bular ilmiy izlanishning (agar ilmiy izlanish haqiqatan olib borilgan bo'lsa) yakuni, oxirgi bosqichidir, xalos [5].

Ayrim maqolalarga ismi sharifni qo'shib, ilmiy mahsulotlar sonini oshirish haqidaku gapirib ham o'tirmaylik.

Darvoqe bu turdagi «olim»larni quyidagi toifalarga bulish mumkin:

1. Ilm-fan olamining yulduzlari. Ularning nomi har xil ilmiy ishlarga birinchi bulib kiritilishiga ularni o'zlari chek qo'yishmasa, boshqalarning xaddi sig'maydi;

2. O'zlarining nomlarini birinchi bulib quyilishini odatga aylantirgan, aks holda bunday ilmiy ish yorug' dunyo yuzini kurmasligini atrofdagilarga anglatgan kursizo'rlar (qo'pol-u, lekin yangi ifoda);

3. Ilmiy ishlari sonini oshirishga intiluvchi, natijada har qanday maqolalarga nomi kiritilishiga rozi bo'laveradigan bo'sh, po'kak olimlar;

4. Tanlovdan o'tish yoki boshqa maqsadlar tufayli maqolalarga har qanday shart-sharoitlarga rozi bo'lib, nomini qo'shtirib oladigan bekorxo'jalar;

5. Plagiatlar (ulardan xudo asrasin).

Ilmiy ish bilan shug'ullanish bu qandaydir bir ilmiy muammoga qiziqish uyg'onib, uning yechimini topish ehtiyoji inson vujudini qamrab olsa-da, shu mavzuda bir reja tuzib, ilmiy kuzatishlar olib borib, ilmiy tadqiqotlar o'tkazib, qandaydir hajmda material yig'ib, uni tahlil qilib, aniq bir xulosaga kelib, shu asnoda ichki bir ko'ta-rinki qoniqish hosil qilishdir [18, 19].

Xullas ilm-fan sohasida faoliyat yuritishni quyidagi ramziy bosqichlarga bo'lsa bo'ladigandek:

1. Xayoliy parvoz;
2. Keng qamrovli o'qimishlilik;
3. Ilmiy muammoga to'qnashish;
4. Muammoni yechishga intilish (qaror qilish);
5. Shu asnoda tangri bir durust ilmiy rahbar rahmdil ustoz, haqiqiy olim uchratsaku, qaniydi.
6. Reja tuzib olib, undan qaytmaslik;
7. Ilmiy izlanish-tadqiqot azoblariga, xarajatlariga chidash;

8. Ilmiy tahlil va xulosa orqali engillashib olish;
9. Ilmiy ishdan qoniqish;
10. Boshqalar bilan bahamlashish, rozi-rizolashish maqsadida tezislari, maqolalar yozish, monografiya, o'quv qo'llanmasi, darsliklar yaratish.

Olim va maqola (ilmiy ish) nufuzining sifati muammosi hozirgi davr fanining o'zagini tashkil etadi. Bu yo'nalishda qator izlanuvchilar bosh qotirib, ilmiy maqolaning randomizatsiyalashtirilganidan tashqari uning sifatini baholash, undan necha marta iqtibos olinganini aniqlash uchun citation index (sitata olish indeksi), ilmiy jurnallar saviyasini belgilash uchun impact factor (iqtibos keltirish) kabi kursatkichlar joriy etilgan.

Respublikamizda ilm-fan taraqqiyotining jonkuyari professor Abdulla A'zam «Tafakkur» jurnalining 2013 yil 4-sonidagi suhbatida [52]: « ... ilmiy tadqiqot sifatini va saviyasini belgilovchi aniq ko'rsatkich ham, metodologiya ham hozircha topilgani yo'q: jurnallar sun'iy ravishda impact faktorini ko'tarishga zo'r beradi, bir guruh mualliflar, «kooperativlashib», til biriktirib, bir-birining maqolasidan iqtibos keltirishni kuchaytiradi va hokazo.

Qarabsizki, «sifat ko'rsatkichlari osmonga o'rlaydi, ammo sof ilmiy nuqtai nazardan, mazmun haminqa-dar», deb kuyunadi.

Vatanimiz ilm-fani nafaqat IX-XI va XIV-XV asrlarda, hatto yaqinda o'tgan asrning 20-yillarida ham Evropadan qolishmagan. Bir-ikki misol keltirish kifoya: akademik Habib Abdullaevning (3-rasm) geologiya sohasidagi ilmiy ishlari jahon geologlarini lol qoldirgan. Bu-ku mayli, bu ishlar respublikamiz foydali qazilmalarini topish va qayta ishlashga sharoit yaratib berdi.



3-rasm. Akademik
Abdullaev H.A.

Ming afsuski, shunday buyuk bir insonning qadrini bilishmadi, hasadchi-g'iybatchilar tomonidan umrining oxirgi yillarida nohaq jabrlandi.

Abdullaev Habib Abdullaevich 1912 yilning 31 avgustida O'sh shahri yaqinidagi Aravon qishlog'ida tug'ilib, boryo'g'i 50 yilga yaqin umr ko'rgan va 1962 yil 20 iyunida Toshkent shahrida olamdan o'tgan. Qisqa umri davomida erishgan yutuqlari, kashfiyotlari esa olamshumul. 30 yoshida (1942 y.) O'zbekiston hukumati raisining o'rinbosari, 35 yoshida (1947 y.) O'zbekiston FA vitse-prezidenti, 44 yoshida (1950 y.) FA prezidenti, 46 yoshida (1958 y.) SSSR FA muxbir-a'zosi, 47 yoshida (1959 y.) Lenin mukofoti laureati. Bu buyuk olimning geologiyaga oid nazariy fikrlari amaliyotda tasdiqlangan. U

birinchi bulib O'rta Osiyoni alohida metallogenik maxsus mintaqa sifatida ajratgan.

Metall hosil bo'lishi qonun-qoidalariga asoslanib qaysi joylarda metall konlari mavjudligini Habib Abdullaev oldindan ayta bildi va uning bu kontsepsiyalari asosida qazilma boyliklar topilib, amalda tasdiqlanganligi uning ilmiy asarlarini jahonga mashhur qildi. «Rudalanishning granitoid intruzivlar bilan genetik bog'liqligi» asari xorijiy olimlar taklifi bilan nemis, ingliz va xitoy tillariga tarjima qilingan. 7 jilddan iborat tanlangan asarlari 1964-1969 yillar davomida nashr etilgan. Abdullaev H.A. Toshkentdagi Chig'atoy qabristoniga dafn etilgan. Qabri ustiga marmar byust buyuk haykaltarosh E.V. Vuchetich (1908-1974) tomonidan qo'yilgan. Ta'kidlash joizki, E.V. Vuchetich 1931 yilda Samarqandga kelib, Tasviriy san'at fabrikasida ishlagan va bir muddat Leningrad Badiiy Akademiya-sida o'qib, 1933 yilda yana Samarqandga qaytib kelgan. Rostovda Samarqandda yaratgan asarlarining ko'rgazmasini o'tkazgan. «Voroshilov ot ustida» (1939), «General Chuykov» (1947), «Nazarali Niyozov» (1948), yozuvchi M. Sholoxov (1948) larning obrazlari, «Qilichlardan omoch yasaymiz» (1958), «F.E. Dzerjinskiy» (1959) nomli asarlari mashhurdir.

Boshqa bir matematik olim Sa'di Sirojiddinovning (4-rasm) obrusi dunyo olimlari orasida shu darajada yuksak

bo'lganki, uning sha'niga 1986 yilda Jahon statistika uyushmasi (Bernulli jamiyati) o'zining birinchi kongressini uning Vatanining poytaxti Toshkentda o'tkazgan.



4-rasm. O'zbekiston FA prezidenti T.N.Qori-Niyoziy (chapda) va vitseprezidenti S.H.Sirojiddinov (o'ngda)

Sirojiddinov Sa'di Hasanovich (1920-1988) matematik olim va jamoat, fan arbobi, O'zbekiston FA akademigi (1966), ToshDU rektori (1966-70; 1983-87), O'zbekiston FA vitseprezidenti (1970-1983) darajalariga erishgan. Ko'p uzgaruvchili klassik ko'phadlarning muhim xossalariga bag'ishlangan tadqiqotlari 50 yillarda Toshkent matematika maktabining yanada yuksalishiga olib keldi. Olim ehtimollar nazariyasi sohasidagi yutuqlarni dunyo miqyosida birinchi bo'lib, matematik statistikaga qo'lladi. S.H.Sirojiddinov Bernulli nomidagi Xalqaro matematik statistik va ehtimollar nazariyasi jamiyati (Gollandiya)ning haqiqiy a'zosi (1966) bo'lgan.

Professor Abdulla A'zam ta'kidlashicha «ilmiy tadqiqot sifatini va ilmiy xodim saviyasini maqolalar soni bilan o'lchashga urinish fanning tagiga suv quyish bilan barobardir»[52]. Ilmiy

izla-nish, ma'lumki, ilmiy tadqiqot mavzusini tanlashdan boshla-nadi. Oxirgi yillarda bu masalada ba'zi islohotlar o'tkazildi: nomzodlik darajasiga himoyalarning tuxtatilishi va yana tiklani-shi, ilmiy rahbar tanlash tartibi, har xil proektlar tuzush va hok.). Bo' o'rinda, aslida "ilmiy rahbarlik"ka (yana u ilmiy kengash-larda har xil "qiliqlar" bilan o'tkazib olingan bo'lsa!) ehtiyoj yo'qdek, amalidan foydalanib, 20-30 talab dissertatsiyalarga rahbarlik qilish, shu raqamlarni ro'kach qilib, o'zini „olimman" deb kekkayib yurganlar qancha. Umuman ilmiy rahbarlik degan amaliyotga chek qo'yish vaqti kelmadimi? Fikrimizcha, „Ustoz-shogird" tushunchasi boshqa gap: erkin, adolatli. Xorijda pro-yektga, dissertasiyaga ilmiy rahbarlik qilish amaliyoti yo'q-ku!

Ming afsuski, hozirgi ba'zi «zamonaviy olimlarimiz» mutafakkir Lyuterning (Martin Luther, 1483-1546) «Aflotun – do'stim, Suqrot ham do'stim, lekin haqiqatni afzal ko'raman», - degan so'zlarini esdan chiqarishmoqda.

Aslida, arab yozuvchisi Jabron Xalil yozganidek, haqiqiy «buyuk kishilarning yuragi ikkita bo'ladi, bittasi qon talashib yotsa, ikkinchisi har qanday sharoitda ham xormay-tinmay ishlayveradi».

Shu asnoda Aristotelning quyidagi so'zlari taskin bo'-lishi mumkin: «Bani bashariyat tabiatan bilimga intilib yashaydi».

Zero, ana shunday bani bashariyatning soni, qatori bizning kunlarda ham kamaymasin, deb niyat qilishdan boshqa choramiz yo'qqa o'xshaydi, chog'i.

Quroni Karimni yaratgan arab dunyosi hikmatlarga boy. Shulardan bittasi "Qo'lingdan kelsa olim bo'l, qo'lingdan kelmasa yaxshi olimga shogird tush, bu ham qo'lingdan kelmasa olimlarning achchig'ini chiqarma". O'zimizning Imom al Buhoriyimizning "Birinchi nafasingdan oxirigacha ilm ol" degani kammi.

Bir vaqtlar N.I. Pirogov «Xirurgiya o'ldi!» deganidek bugun biz olimligu-ilmiylik o'ldi deya olish darajasiga kelganmiz.

Hozirgi paytda dunyoda, jumladan respublikamizda ham ko'plab konferensiyalar, kongresslar, simpoziumlar, s'ezdlar, bir so'z bilan aytganda ilmiy anjumanlar o'tkaziladi, turli kompaniyalar, firmalar (asosan farmatsevtik) katta-katta xarajatlar qilishadi, to'plamlar sifatli qog'ozda, chiroyli qilib chop qilina-di. Natijada esa, bu to'plamlarni varaqlab faqat o'zimizning ilmiy ishlarimizni (ko'pincha tezis holida) ko'rib, shu bilan qanoatlanamiz xalos.

Farmatsevtika industriyasi ommaviy axborot vositalarini qamrab olgan reklamalari, savdo-sotiq tizimining qariyb yarmini, yoki qo'prog'ini ishg'ol qilgan kompaniyalaru dorixonalari

shunday bir 5-hokimiyatga aylanganki, uning oldida bugungi 4-ommaviy axborot hokimiyati ip esholmaydigina emas, unga xizmatkorlik qiladi hatto.

Olimlik aristokratizm, texnokratizm, pragmatizmga, ilmiylik esa farmatsevtika maxsulotlarini bir varakayiga ko'r-ko'rona maqtash, tashviqotdan iborat sxolastik prezentatsiyalarga aylanib qoldi.

Rossiya urolog-olimlaridan T.N. Garmanova ushbu yo'nalishda izlanishlar olib borib, Evropa urologlar assotsiasiyasining qiziq ma'lumotlarini keltiradi: 2013 yilda bu nufuzli jamiyat o'zlari o'tkazib turadigan s'ezdiga 14386 ta tezis yig'ishibdi. Lekin ahamiyatli tomoni shundaki, shulardan faqatgina 4172 (29%) tasi s'ezd to'plamiga kiritilgan. Qolganlari esa turli farmatsevtik firmalarning tashviqot ma'ruzalari bo'lganligi uchun qabul qilinmagan.

Ularda foydali ilmiy ma'lumot ham, yangilik ham bo'lmagan.

Tezislarning sifatini kanday aniklash mumkin? Evropa urologlari assotsiasiyasining s'ezdlariga tezislari maxsus ekspertlar tomonidan ishlab chiqilgan ma'lum ko'rsatkichlar va shkalalar yordamida saralanadi. Shunday s'ezdlardan birining dasturiga hatto s'ezd qo'mitasi raisining (prof. Rayxsvaller) tezisi ham kirmay qolganligi ma'lum.

Bunda isbotlanganlik darajasi va tezis sifatini baholash shkalasidan (TSBSH) foydalanish ularning haqiqatan ilmiylikini har tomonlama asoslanganligini ko'rsatadi.

D. Saketta va hammual. klassifikatsiyasi bo'yicha isbotlanganlik darajasi quyidagicha baholanadi:

1a daraja. Ilmiy natijalar randomizatsiyalangan tadqiqotlarni metaanaliz qilish yo'li bilan olingan.

1b daraja. Ilmiy natijalar kamida 1 randomizatsiyalangan tadqiqotdan olingan.

2a daraja. Ilmiy natijalar bironta metodik to'g'ri randomizatsiyalanmagan nazoratlanadigan tadqiqotdan olingan.

2b daraja. Ilmiy natijalar kamida bitta metodik to'g'ri kvaziekperimental boshqa turdagi tadqiqotlardan olingan.

3 daraja. Ilmiy natijalar metodik to'g'ri eksperimental bo'lmagan tekshirishlardan, jumladan qiyosiy, korrelyatsion tekshirishlar va alohida klinik kuzatuvlardan olingan.

4 daraja. Ilmiy ma'lumotlar ekspert komissiyasi hisobotidan olingan, yoki e'tiborli mutaxassisning klinik tajribalariga va fikrlariga asoslangan bo'ladi.

Bu klassifikatsiya ilmiy maqolalarga daxldordir. Tezislarni baholash maqsadida 2007 yilda Rudolf w Poolman yuqorida eslatilgan tezislarni baholovchi maxsus shkala (TSBSH) taklif qilib, ishonarli natijalarga erishgan (jadval)

Bazis darajasi	Ko'rsatkich	50
Muammoni ochish	Tushunarli	+5
	Tushunarli emas	0
	Yo'q	-5
Tadqiqot dizayni	Prospektiv	-5
	Retrospektiv	+5
	Faqat savolnoma	0
	Ko'rsatilmagan	-10
Nazorat guruhi	Ko'plab test «bitta guruh»	+5
	Xuddi shunday tekshiruv	+5
	Guruhlararo kutilmagan taqsimlash	+10
	Nazorat guruhining yo'qligi	-5
Material	Unikal	+5
	Standart (tadqiqot davomiyligi, guruh hajmi)	0
	Yetishmovchilik	-5
Natijalar	Unikal	+10
	Yangi va ahamiyatli	+5
	Allaqachon ma'lum ma'lumotlar	0
	Ahamiyatsiz yoki ilmiylik kelib chiqmaydi	-10
Xulosa	Ahamiyatli	0
	Natijalarga asoslanmagan	-5
	Yo'q	-10
Umumiy	Ballarning umumiy yig'indisi	0-90

Evropa Bolalar urologlari assotsiatsiyasi 2013 yilda tarqatgan axborotda ular o'tkazmochi bo'lgan konferensiyaga tezislar keltirilgan shkala asosida saralangan. Konferensiya ilmiy qo'mitasining 15 ta a'zolaridan 6 nafari ushbu shkala yordamida 498 ta tezisdan 188 tasi (37,75%)nigina konferensiya dasturiga qabul qila olish imkoniyatiga ega bo'lishgan.

Anjuman raisi Rita Gobert bu shkalaga yuqori baho berib, keltirilgan saralash tizimi ilmiy ishlarni baholashda ob'ektivlikka erishishning garovi ekanligini ta'kidlagan.

O'rni kelganda o'zimizda o'tkazilayotgan ilmiy anjumanlarga tezislarni tanlash ham halqaro mezonlar va baholash standartlari, shkalalari orqali o'tkazilishi foydadan xoli bo'lmasdi, deb o'ylaymiz.

4-BOB. UROLOGIYA SOHASIDA ILMIY IZLANISHLAR ETIKASI (ODOBI)

Fan haqidagi normativ-huquqiy hujjatlarda, ilmiy izlanishlar, ulardan kelib chiqqan maqsadlarga qarab fundamental (aniq) va amaliy fanlar hamda ishlab chiqarish fanlari guruhlariga bo'linadi [45].

Bu yo'nalishlarda bajarilgan ilmiy ishlarning ishonarliligini ("tozaligini") ta'minlash uchun ilmiy izlanishlarni metodologiyasidan tashqari ularni bajarishda etikaga ham amal qilish zarurligi haqida tarixiy, zamonaviy va o'zimizning tajribalarimizdan ba'zi lavhalarni keltirishni lozim topdik.

4.1. Mualliflik huquqi va prioritetlik masalalari

Mualliflar, kashfiyotchilar, ixtirochilar, ratsionalizatorlar huquqi qonun bilan himoyalanaadi [20,21,25,27].

Huquqiy himoyaga taalluqli ob'ektlardan eng asosiysi – kashfiyotdir. Kashfiyot oldin ma'lum bo'lmagan, lekin tabiiy olamda mavjud qonuniy holat bo'lib, u bilim darajasini tubdan o'zgartiradi. Shu bilan birga, foydali qazilma boyliklarni izlab topish, geografik, arxeologik, paleontologik kashfiyotlar, ya'ni ekspeditsion xarakterdagi topilmalar davlat ro'yxatiga

kiritilmaydi. Xuddi shuningdek ijtimoiy fanlar soha-sidagi yangiliklar ham kashfiyot hisoblanmaydi. Yangi, tubdan farq qiladigan, xalq xo'jaligi, davlat mudofasi ijtimoiy-madaniy sohalarda ijobiy natija beradigan yangilik kashfiyot sifatida himoyalanaadi.

Ratsionalizatorlik takliflari esa muassasalarda, tashkilotlarda yangi va foydali hisoblangan texnik yechimlardir [54].

Texnik ijodiyotda qo'shilgan shaxsiy ulush, birinchilik, prioritet masalalarining ahamiyati kattadir. Uning psixologik, etik va yuridik aspektlari mavjud [43,46,51,53,56,57].

Har qanday kashfiyotning ko'zga ko'rinadigan tomoni – uning yangiligidir. Butun dunyo bo'yicha bu himoyaga muhtojlik masalasida birinchi kriteriydir. Ilmiy yangilikka talab hajmi bo'yicha 1) mahalliy; 2) dunyo miqyosida absolyut; va 3) dunyo miqyosida nisbiy bo'lishi mumkin.

Mualliflik huquqi va prioritet bir-biridan ajralmas tushunchalardir.

Muallif uch xil mualliflik huquqiga ega bo'ladi: chop qilish, ko'paytirish va tarqatish [34,38]. Bunda yana boshqa uchta tushunchani inobatga olish kerak: 1) mualliflik – muallifning o'zi yaratgan asarning muallifi ekanligi haqida yuridik imkoniyat; 2) mualliflik nomi – o'zining nomi, taxallusi yoki anonim holda asarini chop qilish, ko'paytirish va tarqatish huquqi; 3)

asarning tahlikasizligi – muallifning tirikligida uning ijozatisiz asariga o‘zgartirish kiritishga hech kimning haqqi yo‘qligi.

Normativ hujjatlarda muallifdoshlik masalalari ham ko‘zda tutilgan. Muallifdoshlik asarga aniq bir ijodiy ulush qo‘shgandagina tan olinadi. Muallifga texnik yordam ko‘rsatish muallifdoshlik huquqini bermaydi. Fuqarolik ishlari bo‘yicha sud kollegiyasi ko‘rsatmalari bo‘yicha “begonalarning asarlarini to‘la va qisman nohuquqiy egallash (plagiat, qalloblik) mualliflik huquqini buzilishliklardan biri bo‘lib, bir yilgacha ozodlikdan mahrum qilish yoki jarima bilan jazolanadi”.

Endi bu yo‘nalishda e‘tiborga molik ba‘zi tarixiy va zamonaviy voqea va hodisalarga to‘xtalib o‘tsak [29]. Ular fundamental va amaliy fanlar, xususan urologiya faniga ham dahldor. Barcha buyuk insonlar kabi Franklin (5-rasm) o‘zining nazariyalariga nisbatan muxolifning e‘tirozlariga e‘tibor bermas va umuman shaxsiy xizmatlarini himoya ham qilmas, ustiga-ustak hasadgo‘ylardan qutilishning yo‘lini qilmas edi [19]. Shu bilan bir davrda differensial hisoblash yo‘li bilan dunyo tortishish qonunini Gukka (6-rasm) bog‘liq bo‘lmagan holda o‘zi ixtiro qilganini isbot qilish I. Nyutonning (7-rasm) butun umrini eb bitirdi [15,60].

Isaak Nyutonning optika sohasidagi ilmiy izlanishlari ayniqsa janjalli, ko‘p bahslarga sabab bo‘lgan.



5-rasm. Bendjamin Franklin




6-rasm. Robert Guk



7-rasm. Isaak Nyuton

Bu fan bilan u talabalik yillaridan boshlab qiziqqan. Optika sohasiga bag'ishlangan birinchi ilmiy ma'ruzasini 1672 yilda London qirollik jamiyatida qilib, nur va rangning yangi korpuskulyar gipotezasini taklif qilganida uning fikriga R.Guk qarshi chiqib, bu nazariyani o'zi birinchi bo'lib yaratganlik prioritetini talab qilgan. Ehtiroslarga berilgan Nyuton bu asarini tashlab qo'yib, R.Guk dunyodan o'tgach, bir yildan so'nggina chop ettirgan. Yana bir buyuk olim A.Eynshteyn (8-rasm) – nisbiylik nazariyasi haqida 1905 yilda maqola chop etadi [55]. Xuddi shu 1905 yili A.Puankare (9-rasm) “Elektron dinamikasi haqida” degan maqola yozadi va 1906 yili chop etadi [14]. U A.Eynshteyndan mustaqil ravishda nisbiylik postulatini yaratadi. Albatta Puankare na yozuvchi va na davlat yoki jamoat arbobi, bor-yo'g'i buyuk olim edi. Dunyoning qaysi burchagida “qaysi buyuk olimni bilasiz” deb so'rang, Arximed, Nyuton,



8-rasm. Albert Eynshteyn



9-rasm. Anri Puankare

Mendeleev, Eynshteyn, deb javob olasiz, lekin hech kim Puankareni eslamaydi. Garchi fan sohasida Puankarening xizmatlari o'sha olimlardan ortiq-ku kam emas. Bu hammasi Puankarega qolganda avtoritet va prioritet masalalarida tarixiy adolatsizlik tufayli edi. O'z davrida uni genial olim hisoblashgan. Lekin uning bir kashfiyoti bo'yicha nohaqlik haligacha saqlanib qolmoqda. Gap shundaki, nisbiylik qonunining birinchi va asosiy yaratuvchisi aynan Puankaredir. A.Eynshteynchi? Eynshteyn ushbu qonunning asoschilaridan biri, hatto mashhur $E=mc^2$ formulasining muallifi bo'lsa-da, u bu yangi qonunning yagona egasi emas. Puankare nisbiylik prinsiplari bilan 1890 yillardan boshlab shug'ullangan, bir necha kitob chiqargan, ma'ruzalar o'qigan. A.Eynshteyn esa 1905

yilgacha bironta chiqish qilmagan, fizikaning umuman boshqa muammolari bilan shug'ullangan; to'satdan nisbiylik nazariyasi asoslariga bag'ishlangan maqola chop qiladi. Haligacha ilm-fan tarixchilari "Eynshteyn Puankare maqolalarini o'qigan-mi?" deb bahs qilishadi. Eynshteynning o'zi "xabarim yo'q edi" deb javob berib kelgan. Faqat qarigan chog'ida vijdon qiynay boshlagan shekilli, shunchaki "Nisbiylik nazariyasini yaratishda Lorens va Puankarelarning xizmatlari bor" deb eslab o'tgan. Bu baxslardan Puankarening o'zi iztirob chekkanmi, yo'qmi endi fol ochishdan foyda yo'q, lekin uning bag'ri keng bo'lganligi aniq. Hatto o'nlab kashfiyotlarini boshqa ismlar bilan atagan: Betti sonlari, Kleyn guruhi, Puasson turg'unligi va boshq. U bir bor Eynshteynning ishga joylashishi uchun qo'llab-quvvatlab iltimosnoma ham yozgan ekan. Endi bugunga kelib nisbiylik nazariyasining yaratuvchilari Lorens, Puankare va Eynshteyn bo'lib, bu qatorda Puankarening xizmati, ulushi hammasidan ko'proqdir deb arz qilish zarur emasdir, ammo bu haqda eslatib o'tish adolatdan bo'ladi [52].

Endi biologiya sohasida. Darvinizm, organik dunyoning evolyutsion materialistik nazariyasi Ch.Darvin dunyoqarashi mahsuli [17]. Evolyusion nazariyani ishlab chiqishni 1837 yilda boshlab, 1858 yildagina Linney jamiyati yig'ilishida tabiiy turlanish haqida ma'ruza qildi. O'sha yig'ilishda A.Uolles ham

ma'ruza o'qidi, uning fikrlari Darvinniki bilan bir xil edi [13]. Ikkala ma'ruza ham jaimyat jurnalida birga chop etildi, lekin Uolles evolyusion nazariyani Darvin o'zidan oldinroq, chuqur va to'laroq ishlab chiqqan deb, ustiga-ustak o'zining 1889 yilda nashr etilgan aossiy ilmiy ishini "Darvnizm" deb atab Darvinning prioritetini ta'kidlaydi [17]. Darvoqe kizig'i shundaki bu ikki buyuk olimlarning bir xil bag'ri kengligi, ularning tashqi qiyofalarining o'xshashligida ham o'z isbotini topgan (10-rasm).

Ilm-fan sohasidagi bunday bahslar, munozaralar tibbiyotda, xususan urologiyada ham kam emas.



10-rasm

Ch. Darvin

A.P. Uolles

Ma'lumki urologiya amaliyotida keng tarqalgan adenomektomiya operatsiyasi qovuq, qov orti (Lidskiy A.T., 1923; Millin N., 1945), oraliq (Guthrie G.J., 1834), ishiorektal (Voelker Fr., 1911), to'g'ri ichak (Saposhkov K.P., 1926) orqali amalga oshiriladi.

Barchaning fikricha Rossiyada adenomektomiya operatsiyasini birinchi bo'lib, S.P.Fyodorov (11-rasm) bajargan (1909) (12-rasm), uning bosqichlari 13,14,15-rasmlarda keltirilgan [23].

Quyidagi ma'lumotlarning to'liq ishonarliligiga kafolat berolmagan holda, ta'kidlash kerakki S.S.Yudinning (16-rasm) ta'kidlashicha bu operatsiyani S.P.Fyodorovdan bir yil oldin G.L.Gar "Moszdrav Zaxarino xirurgiya sanatoriyasida amalga oshirgan" [65]. Bu haqda "Freyer bo'yicha prostatektomiya" nomi bilan "N.A.Velyaminov xirurgik arxivida" 1907 yoki 1908 yilda chop etilgan (17-rasm) [11,40].

O'zining nozik iboralari bilan buyuk xirurg S.S.Yudin G.L.Garga quyidagicha ta'rif beradi: "Haddan qo'pol va o'ylab o'tirmay operatsiya qilardi.

Lekin haqiqat yuzasidan ta'kidlash kerakki, Gar qiyin va ma'suliyatli operatsiyalarni bo'yniga olar va muvaffaqiyat bilan amalga oshirardi". "Velyaminov xirurgik arxivi"ni varaqlab, uning bir nechta chop etgan ishlarini topdim.



11-rasm. S.P.Fyodorov (1869-1936)




12-rasm. Ko'r-ko'rona adenomek-
tomiya (A.A. Pomeransev, 1959) [44]



13-rasm. Qovuqni ochish (D.P.
Chuxrienko, A.V. Lyulko, 1972) [44]



14-rasm. Adenoma tugunini ajra-tish
va olib tashlash (N.A. Lopatkin,
I.P. Shevsov, 1986) [42]



15-rasm. Adenoma o'rnini tampon
qilish yo'li bilan gemostaz



16-rasm. S.S. Yudin (1891-1954)



17-rasm. N.A. Velyaminov
(1855-1920)



18-rasm. A.P. Chexov
(1860-1904)

Uning Freyer usulidagi prostatektomiya, oshqozon raki bo'yicha rezeksiya kabi qator operatsiyalari hisobotini o'qib xayratga qolmay bo'ladimi; bu hisobotlar 1907 yoki 1908 yillarda chop etilgan edi shekilli".

Jurnalning nashr qilinishi redaktor hisobiga bo'lib, bir bor qiyinchilik tug'ilganda A.P.Chexov (18-rasm) ham homiylik qilgan: "Jurnalni qutqarish uchun men har kimga qulluq qilishga, har qanday dahlizda kutishga tayyorman, yaxshi xirurgik jurnalni qutqarish 20 minglab omadli operatsiyalar kabi foydali-dir". Jurnalning qaysidir bir tomida Rossiyada birinchi bo'lib bajarilgan qovuq orqali ochiq adenomektomiya haqidagi ilmiy hisoboti ham chop etilgan edi.

Afsuski, operatsiyasining prioritetini G.L.Gar o'ylamagandir ham. Zero, hayotda ko'p bo'lganidek yer yuzidagi oddiy insonlar yorug' nurli buyuklar soyasida qolib ketadi. Ko'ngilni to'ldiradigani shuki, kech bo'lsada, bunday tarixiy voqealarga aniqlik kiritib, esdan chiqqan yoki o'z vaqtida e'tibor berilmagan prioritet holatlarni ilm-fan ahliga etkazish joizdir.


4.2. Ilm-fanda plagiatlik (qalloblik) tushunchasi

Quyida kamina darsligiga nisbatan sodir bo'lgan plagiatlik xolatini keltiramiz. 2008 yilda nashr etilgan S.A. Allazovning "Urologiya" darsligi [4] ma'lum bir nashriyot tomonidan 2015 yilda chet el olimlari Pol Bregg va Patriitsiya Bregglarning nomidan chop etilgan [12]. Bu ikkala "mualliflar" chet el bestsellerlari hisoblanadi, ko'p yillar oldin dunyodan o'tgan (Pol Bregg suvga cho'kkan) (rasmlarga va nashriyotga yuborilgan xatga qaralsin).


Plagiatlik (qalloblik) tushunchasi va uning yuridik asoslari har tomonlama o'rganilgan bo'lishiga qaramasdan kundalik ilmiy dunyoda uni chetlab o'tishga urinishlar kuzatilib turadi. Bu yo'nalishda bir muncha izlanishlar olib borishimizga qaramasdan o'zimizni muhofaza qilolmaganimizdan afsusdamiz [15,17].

S.A. Allazov (2008) – asl nashr.

Pol Bregg, Patrityiya Bregg
(2015) – plagiat nashr.



Муқова



Titul

19-rasm. Asl (chap tomondagi ustun) va plagiat (o'ng tomondagi ustun)

**“Sano-standart” nashriyotiga
(100190, Toshkent shaxri,
Yunusobod-9, 13-54.
E-mail: sano-standart@mail.ru.)
SamMI urologiya kursi
professori Allazov S.A. dan**

Xat

Hurmatli nashriyot boshligi va xodimlari, Siz tomondan 2015 yil AI 245, 02.10.2013 nashr litsenziyasi bilan “Urologiya xastaliklari va davolanish choralari“ kitobi Pol Bregg, Patritsiya Bregg muallifligida chop etilganligi haqida men 2019 yilda xabar topdim. Bu nashr bilan tanishganimda u biz 2008 yilda nashr ettirganimiz “Urologiya“ darsligining aynan nusxasi ekanligi ma’lum bo’ldi.

Shuxrat Xoliqov men tomondan yozilgan, 2008 yil 8 may-da O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni Saqlash Vazirligining Tibbiy Ta’limni rivojlantirish markazi direktori tomonidan tasdiqlanib, 388-son bilan ruyxatga olingan va kirill hamda lotin alifbosida chiqarilgan darslikni tekstning ba’zi joylarini qisqartirib, rasmlarni tushirib qoldirib, nashrga tayyorlagani va kitob holida bizdan xabarsiz chop ettirganini biz plagiatlik (qalloblik) sifatida qabul qildik.

Shu masalada nashriyotdan tushuntirish xati kutib qo-
lamiz.

Manzilimiz: Samarqand sh., Bogbonlar, 8-uy.

Tel. mob. (90) 657-02-11. Ish. (+99866) 233-07-66.

E-mail: Sallahallazovich@rambler ru.

Parol: urologiya. Telegram: (90) 657-02-11

Prof. Allazov S.A.

14.01.2020 y.

Afsuski, nashriyot telefonda og‘zaki tushuntirish, uzr so‘rash va turli va‘dalar bilan chegaralandi. Javob xatdan haligacha (2023 yil) darak yo‘q.

Bu o‘rinda obro‘li “Tafakkur” jurnalida (2020; 3: 4-15) Sobirjon Yoqubov siyosatshunos olim, O‘zJOKU rektori Sherzodxon aka Qudratxo‘jaev bilan olib borgan suhbatidan bir qiziq, fikrlarimizga hamohang hodisani keltirish zarur ko‘rinadi [50].

Germaniya mudofaa vaziri K.T. su Guttenberg Angelo Merkel davrida (10 yillar oldin) obro‘li siyosatchi bo‘lgan, hatto Merkelning vorisi bo‘lishi haqda fikrlar yuritilgan.

Buni qarangki, bu huquqshunos olim o‘z yo‘nalishi bo‘yicha doktorlik dissertatsiyasini himoya qiladi. Oshkorolikni ko‘ringki, matbuot xodimlari u o‘z dissertatsiyasida bir necha olimlardan iqtiboslarini, ularning nomini va manbalarini aniq keltirmaganligida, ya‘ni plagiatlikda (kuchirmachilikda, fikr o‘g‘irligida) ayblanadi va iste‘foga chiqishga majbur bo‘ladi.

Shunga o‘xshash voqea zamonamizning eng mazmundor va mahsuldor ijodchisi Nurali Qobul tomonidan “Tavqi la‘nat tamg‘asi yohud Trumendan Trampu Tarakidan Turkmanboshigacha (2019) asarida ham keltirilgan [48]. Yozuvchimiz yozuvining ohoriga putur etkazmaslik uchun iqtibosni so‘zmaso‘z ko‘chirib keltiramiz”.

“Iqtidordagi xristian demokratik partiyaning taklifi bilan Olmon bundestagi Xorst Zeexoferni prezident etib sayladi. Biroq oradan bir yil o‘tar-o‘tmas yangi prezidentning bu maqomdagi rahbar, bilxossa olimga xos bo‘lmagan kirdikori oshkor bo‘lib qoldi. Zeexofer domla doktorlik dissertatsiyasini boshqalardan ko‘chirgan ekanlar.

Haqiqiy demokratik davlatlarda bunday ko‘z bo‘yamachiliklar kim bo‘lmasin kechirilmaydi. Nemischa hisob-

kitobning ixtirochilari bunday sharmandalikka toqat qilmaydilar va kechirilmaydilar. Plagiator – ko'chirmachi prezidentga saroyning chiqish eshigi ko'rsatildi.

Olmonlar prezident saroyida xonimbozlik qilgan Bill Klintonlarni kechiradigan amerikaliklar emas. Yuksak davlat va hukumat rutbalariga nopoku nohaq yo'llar bilan kelganlar faqat shunday yo'llar bilan hokimiyatni boshqarishini nemislar buyuk "ustoz" shayton Adolf Gitler timsolida juda yaxshi biladilar. Shuning uchun ham katta siyosatga nomunosib va tasodifiy kimsalarni yo'latmaydilar. Bundaylar adashib kirib qolsa, ko'cha eshigini ko'rsatadilar.

Mana sizga adli adolat. Agar Xorst Zeexofer prezident etib saylanmaganida ko'chirmachiligini ham hech kim bilmas, tirikchiligini qilib yuraverar edi. Shuhrat – ofat deb shuni aytadilar”.

Bunda gap qaysidir chet el siyosatchi olimning plagiatlikka bilib-bilmay qo'l urganida emas, bizni bezovta qilayotgani o'zimizda ilmiy izlanishlarning yo'l-yo'rig'i qay holatda ekanligidir.

Bu masalani kengroq yoritish uning bizning mavzumizga to'g'ridan-to'g'ri daxldor ekanligi va u chuqur tomir otganligidir.

4.3. Ilmiy izlanishda “ilmiy rahbar” va “ustoz-shogird” tushunchalari

*Shunday shogird bo‘lkin,
ustozing sen bilan faxrlansin,
Shunday ustoz bo‘lkin,
shogirding sen bilan faxrlansin.*

Gaybullo as-Salom (1932-2003)

Respublikamizda ilm-fan jarayonining, jumladan turli xil ilmiy darajalarga erishishning tashkiliy tomonlari haqida ba’zi shaxsiy fikrlarimizni aytmoqchimiz. Avvalo, fan nomzodi (DPh) yoki doktori (SDr) ilmiy izlanishlarini bajarishda ilmiy rahbarlikka hojat bormi? Negaki ilmiy rahbarlik statusi ayrim hollarda su’istemol qilinadi, egallab turgan lavozimlariga qarab tayinlanadi, ba’zilari o‘zlari dissertatsiya yozib berib, “izlanuvchiga” aylanib qoladi. Izlanuvchi dissertatsiyasini ilmiy rahbarsiz o‘zi bajargani ma’qul. Aks holda, ilmiy rahbar ko‘magidan, to‘g‘ri-dan-to‘g‘ri aralashuvidan, yozib berishidan kimga ne foyda.

Yana ustiga-ustak professorlik unvoniga sazovor bo‘lish uchun 3-4 nafar izlanuvchiga “ilmiy rahbar” bo‘lish majburiyati... (“Tafakkur”: 2013; 4: 4-11) [52].

Bu o‘rinda “Ustoz-shogird” tushunchasi tubdan farq qiladi: hujjatlashtirilmaydi, o‘zaro munosabat erkin va adolat zaminida

quriladi. Quyidagi xatdagidek:

“Privet iz Tatarstana! Zdravstvuyte doringie Salax Allazovich, Xadiya i vsya Vasha drujnaya semya. S glubokim uvajeniem pishet vseгда blagodarnaya Vam vasha uchenitsa Dinara. Dolgo vam ne pisala i ne sozvanivalas, v svyazi s chem prinoshu ot sebya bolshie izvineniya. To, chto kasaetsya semeynoy jizni, k sojaleniyu, xoroshego skazat ne mogu. V yanvare mesyatse v nashey semye proizoshla bolshaya nepopravimaya tragediya. 10 yanvarya umer Marat. V bolnitsu leg s diagnozom “Yazvennaya bolezn jeludka. Jeludochnoe krovotechenie”. Krovotechenie ostanovili bistro, gotovili k vipiske. No v statsionare proizoshla tomboemboliya i spasti uje ne smogli. Dlya vsekh nas eto, konechno strashnaya nepopravimaya tragediya, ot kotoroy ya do six por popravitsya ne mogu. Ved emu bilo vsego 55 let. Bil ochen dobrim i poryadochnim chelovekom, xoroshim mujem i otsom nashim detyam. Ochen chasto vsopimal Samarkand, vsekh vas. Silno skuchal po Uzbekistanu. Vtoroy sin Timur uchitsya uje na tretem kurse meditsinskogo universiteta. Ucheba ochen nravitsya. Xotelos by, konechno chtoby v budushem zanyalsya eshyo i naukoy. Salax Allazovich, podskajite pojaluysta, v kakom napravlenii emu dalshe v etom plane mojno dvigatsya. Poka xodit na studencheskie krujki. Nadeyus chto v budushem

posvyatit sebya urologii. Poseshaet krujok po urologii, farmakologii. Salax Allazovich, kak Vi dumaete, vozmojno li v budushem planirovat chto nibud na stike urologii i farmakologii. Ili mojete posovetovat chto-to v drugom napravlenii? Vsegda Vam blagodarna, chto v svoyo vremya pomogli i nastoyali chtobi ya zashitilas. Imenno eto mne zdes ochen pomoglo. Vsem bolshoy privet. S ogromnim uvajeniem i lyubovyu Dinara. 20.09.2020.”

Javob xati yozishga yuragim chidamay turipti.

Ilm-fandagi ba’zi qaltis holatlar badiiy adabiyotda ham o‘z aksini topgan (Keldi Qodirov. Sel. Qissalar. T. Adabiyot va san’at nashriyoti 1982. – 304 b.) [49].

“Yoshlar deysiz ... besh yillikda o‘nta kandidat, to‘rtta doktor tayyorlayman, deb so‘z berasiz. Iste’dodli kadrlarni asossiz ravishda bo‘shatib yuborasiz!... Uning hisobotini ilmiy kengashga qo‘ying, kengash qonikarli emas, deb topsa boshqa gap. Allaqachon yoqlab olgan shogirdlaringizning nimasi bor?” (106-bet).

“Aslida biz o‘zimizni aldab kelamiz.

- ... Maoshim etib turibdi ...
- Tahrir qilib berayotgan dissertatsiyalar hisobigami? ...
- Buni sizga kim aytdi?

- Bilaman, har tabog'iga ellik so'mdan olasiz. ... Uyat ... bundan ko'ra cho'ponlik qilganingiz ming karra afzal edi" (113-bet).

"Siz kandidatlik, doktorlik deysiz! Menimcha, umuman, himoyani va shu usullarni yo'qotish lozim! Nima bu? Har kuni himoya, himoya! Hamma ovora! ... dissertatsiyangiz bir kutubxonaning allaqaysi burchagida chang bosib yotaveradi." (115-bet).

"Bir kuni Muhayyo tugallagan dissertatsiyasini ilmiy rahbariga olib borgan edi. Ilmiy rahbar – yosh professor, kechqurun keling, men kunduzi band bo'laman, deb dissertatsiyasini olib qoldi. Nima bo'lsa bo'lar deb bordi. Professor ... ozroq konyak ichib, ... ochiqchasiga ko'chdi va Muhayyoni quchoqlab bag'riga tortdi.

-Hayvon! – Muhayyo shunday deb ustozining yuziga tarsaki tortib yubordi." (132-133-betlar)

Professor ... dovdiragancha borib Muhayyoning dissertatsiyasini qo'lga oldi-da, mana bu ishingizni olingda darhol ko'zimdan yo'qoling! "Dissertatsiyalariniyam er yutsin! Alam bilan o'ylardi domlasidan hech bunaqa qiliq kutmagan Muhayyo" (133-bet).

"To'g'risini ayting ..., Dissertatsiya bilan iste'dod bir tushunchami? Dissertatsiya va iste'dod, dissertatsiya va

muhabbat ... Bular qaerdan kelib chiqqan tushunchalar o'zi?"
(154-155-betlar).

Yana dono Nurali Qobulga o'girilsak... [48]

Zotan...

Yurt yukin ko'targan erlar,

El kuniga yarabsizlar.

Ota yodgor tuproqni deb,

Sog'u so'lga qarabsizlar.

Alp er To'nga naslimisiz,

Yo Temurdan tarabsizlar.

Farq emaski, inson o'lung,

Turku tojik, arabsizlar.

To'ymoq toymoq, o'zdan ketib,

Nogoh ko'krak keribsizlar.

Haq-huquqni poymol etib,

Kishi boshin yoribsizlar.

Ko'p duosi ko'ldir mudom,

Bir kun ketar eribsizlar.

Bugun shohsiz, yarin gado,

G'arib rizqin teribsizlar.

*Tuproq tortilar dam kelar,
So'rar kimsiz, yo Rab sizlar.
So'ng hukmni millat so'zlar,
Sharafilar, sharafsizlar.*

5-BOB. UROLOGIYA ILM-FANIDA BUYUKLARNING BUYUKLARI

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da keltirilishicha (2020) “Buyuk” - ulug‘vor, yuksak, tengsiz, mislsiz, aziz, mo‘tabar, muqaddas; “Buyuklik” - odatdagidan kattalik, ulug‘vorlik, tabarruklik ma‘nolarini anglatadi [41].

Buyuklarning buyuklari ham bo‘ladi. Urologiya sohasidagi, tarixidagi shunday siymolar haqida kamtarona so‘z yuritmoqqa tortinib jur‘at etdik.

Zero har bir fan sohasida erishilgan ulkan yutuqlar, yangiliklar, ixtiro va kashfiyotlar aniq bir inson, olim, mutaxassis tomonidan yaratiladi yoki ba‘zan kutilmagan holda yuzaga keladi.

Tom ma‘noda ahamiyatga ega bo‘lgan bunday kashfiyotlar, ba‘zan esa oddiygina takliflar bu buyuk insonlarning hayotligida tan olinmagan bo‘lishi mumkin, lekin vaqti-soati kelib, baribir tarixda oxir-oqibat o‘z o‘mini topadi va odamzotga xizmat qila boshlaydi.


Urologiya sohasida shunday buyuk insonlarning eng buyuklari, urologiya ilm-faniga bebaho hissa qo‘shgan quyidagi tarixiy shahslar haqida ular yashab o‘tgan davrlar tartibida ma‘lumotlar keltirmoqchimiz:

1. Gippokrat (lot: Hippocrates),
2. Galen Klavdiy (lot: Claudius Galenus),
3. Abu Bakr ar-Roziy,
4. Abu Ali ibn Sino,
5. Leonardo da Vinchi,
6. Ambruaz Pare,
7. Franchisko Diaz,
8. Pirogov Nikolay Ivanovich,
9. Atouлло tabib,
10. Fyodorov Sergey Petrovich,
11. Bogoraz Nikolay Alekseyevich,
12. Lopatkin Nikolay Alekseyevich,
13. Muxtorov Odil Muxtorovich,
14. Shabad Aleksandr Leonovich,
15. Arustamov Dmitriy Lvovich.

5.1. Gippokrat

Gippokrat (lot: Hippocrates) eramizdan oldin 460 yilda tug'ilgan deb taxmin qilinadi (20-rasm). Mashhur qadimgi grek vrachi. Tarixga "Zamonaviy tibbiyot otasi" sifatida kirgan.

Soran Efesskiyning yozishicha Gippokratga Kos orolida Asklepion (o'quv muassasasi) da otasi Geraklid va bobosi



20-rasm. Gippokrat (e.o. 460-377)

Gippokrat saboq berishgan. Keyinchalik mashhur faylasuf Demokrit va sofist Gorgiy qo'lida ta'lim olgan. Bundan tashqari ko'p mamlakatlarga borib, ularning tibbiyoti bilan ham tanishgan.

U birinchi bo'lib tibbiyotni dindan mustaqil fan sifatida

ajratdi.

Hozirgi paytda ham kundalik amaliyotda qo'llanilayotgan atamalar aslida Gippokrat tomonidan kiritilgan: "o'tkir va surunkali"; "endemik" va "epidemik"; "xuruj", "qaytalanish" (retsdiv), "krizis"; "paroksizm"; "cho'qqi (pik)"; "sog'ayish"; "kasallik tarixi".


Gippokratning buyukligi Aristotel davridayoq tan olingan. Galen uchun u "ilohiy" hisoblangan. Rivoyatlarga ko'ra Gippokratning qabriga asal arilar uya qo'yishgan, bu asaldan tatib ko'rgan bolalar og'iz kasalliklaridan forig' bo'lishgan. Zamondoshlari o'zlarining e'tiroflarini "Gippokratning aytgani tangrining o'zi aytgani" so'zlari bilan ifoda qilishgan.

Gippokrat ko'plab urologik kasalliklarga o'z munosabatini bildirgan. U buyrakda jarrohlik amaliyotini bajarishni


ta'qiqlagan, buni juda havfli, deb hisoblagan. Faqat buyrak abstsessi (ho'ppos)da operatsiyaga ko'rsatma bergan. Xuddi shunday, qovuq toshlari haqida ham u o'zining "Qasamyodida", "Men tosh kasalligiga muhtalo bo'lganlarda kesishni bajarmay, ularni bu ish bilan shug'ullanuvchilarga topshiraman", deydi. Zero, Gippokrat qovuq toshining klinik manzarasida 5 ta belgilarini keltiradi: 1-og'riq, 2-siydik oqimining susayishi, tomchilab ajralishi; 3-qon bilan ajralishi; 4-qovuqning yallig'lanishi; 5-siydikda qum bo'lishi.

Qovuq yaralarining xavfli ekanligini, o'limga olib kelishini Gippokrat bir necha marotaba keltiradi. U yana bir simptom haqida to'xtalib, bemor siyayotganda og'riq tufayli jinsiy olatini ishqalaydi, deb takidlagan. Bu simptom hozirgi zamonaviy urologlarimiz tomonidan ham keltirilib, faqat Gippokrat simptomi emas negadir "K.X. Toyirov" (1962) eponim simptomi tariqasida ishlatiladi.

Gippokrat o'z davrining eng ulug' kishilaridan biri edi. Shunga qaramay, u juda kamtarin bo'lgan. Gippokrat o'z shogirdlari bilan tibbiy asar yozib qoldirgan. U "Gippokrat to'plami" ("Korpus Hippocraticum") deb ataladi (21-22-rasmlar). "Gippokrat to'plami" Samarqand tibbiyot instituti professori V.I. Rudnev tomonidan yunon tilidan ruschaga to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilinib, uch tomli qilib chiqarilgan (23-rasm).



21-rasm. Gippokrat.
Tanlangan kitoblar.



22-rasm. Gippokratning “Tanlangan kitoblari” ning titul varag’i.



23-rasm. V.I. Rudnev (1870-1951)

“To’plam” “Qasamyod” asari bilan boshlanadi. Uni “Gippokrat qasamyodi” deb ataganlar. O’rta asrlarda doril-fununlarning tibbiy qulliyotlarini bitiruvchilar shu qasamyodni qabul qilishgan. Sovet Ittifoqi davrida shu qasamyod asosidagi “SSSR vrachi qasamyodi” qabul qilingan bo’lsa, hozir mustaqillik davrida, “O’zbekiston vrachi qasamyodi” qabul qilinadi.

Gippokrat umrining oxirida Larissa shahrida yashab, 377-yilda (83 yoshida) vafot etgan. Shahar aholisi uning xalq oldidagi alohida xizmatlarini taqdirlab, boshiga oltin gulchambar kiydirganlar. Ammo Gippokratning tibbiyot olimi sifatidagi xizmatlari faqat Larissa shahri aholisi oldidagina emas, balki butun jahon xalqlari oldida beqiyosdir.

Gippokratning buyuklarning buyukligini ta'minlagan urologiyaga taalluqli ba'zi hislatlari va xizmatlarini keltirish joizdir:

-tibbiyot fanini dindan ajratib, alohida fan sifatida shakllantirgani tufayli u "Tibbiyot otasi" bo'lib tarixda qolgan;

-bunga uning "Gippokrat to'plami" asarini yozib qoldirgani asos bo'lgan;

-"Kasallik tarixi"ni yaratib, kasalliklarning kechishini o'rganishining yo'l - yo'riqlarini hujjatlashtirishi";

-sperma, erektsiya, impotentsiya bo'yicha o'z davri taqozosida tushunchalar yaratishi;

-varikotsele kasalligining sabablari haqida so'z yuritib, "quyuq va qora safro qonning dimlanishi" deb ta'riflashi;

-qovuq toshining klinik manzarasini chizib berishi;

-birinchi bo'lib "buyrak sanchig'i"ni tasvirlashi: bel, buyrak, yonbosh sohasi va moyakdagi o'tkir og'riq, ko'p marta siyish, siydikka qum aralashuvi. Bular bizga yetib kelganlari.

5.2. Klavdiy Galen

Galen (Aelius Galenus, Claudius Galenus) antik dunyoning qadimgi Rim tabiblaridan eng mashhuri, jahon tibbiyoti tarixida Gippokratdan so'ng eng yirik olim va buyuk tabib sifatida shuhrat topgan (24-rasm). Akademik B.D. Petrov ta'kidlashicha "Galen bilan bir qatorga Gippokrat va Ibn Sinonigina qo'yish mumkin".

Galen eramizning 130-yilida tug'ilgan, 200-yili vafot etgan.

"Galen" so'zi - xotirjam ma'nosini anglatadi. Galenning zehni va salohiyati shu qadar kuchli bo'lganki, u 14 yoshidayoq falsafiy fanlarni o'rgangan. Aristotel va Platon asarlarini bimalol mutolaa qila olgan. 17 yoshdan esa Asklepion deb



24-rasm. Klavdiy Galen (130-200)

ataluvchi kasalxona va tibbiy maktabda tibbiyotni o'rganishga kirishgan. Galen 9 yil Iskandariyada yashab tibbiyotning hamma nazariy va amaliy sohalarni o'zlashtirgan. Keyinchalik 4 yil davomida gladiatorlar maktabida tabiblik qilgan. 164 yilda Galenni Rimga imperator Mark Avreliy saro-

yiga taklif etganlar va uni imperatorning saroy tabibi vazifasiga tayinlashganlar.

Galenning eng katta xizmatlaridan biri shuki, u birinchi bo'lib tibbiyot tarixida tajriba usulini joriy qilgan. Gippokratning "tabiatda tayyor dorilar mavjuddir", degan fikriga qo'shilmay, dorivor o'simliklarda ortiqcha keraksiz moddalar ham bo'lishligini ta'kidlab, dori tayyorlashda uning shifobaxsh qismini ajratib olib, eritma, qaynatma, talqon, kabi dori tayyorlash usullarini o'ylab topgan. Bunday dorilar "Galen preparatlari" deb atalgan.

Galen juda iqtidorli olim bo'lgan, u fanning ko'p sohalarida 400 dan ortiq asarlar yaratgan. Galenning tibbiyotga oid eng yirik asarlaridan biri "Odam tanasi qismlarining ahamiyati" nomli kitobidir (25-rasm).

Galenda Gippokratning ellinizmidan asar ham bo'lmagan, u sharq odami, shuning uchun ham arablarning sevimli olimi hisoblangan. O'zi haqida Galen juda yuqori fikrda bo'lgan: "Sofistikaning to'qimalariga emas, san'atimga suyanib men Rimning birinchi fuqarolariga va barcha imperatorlariga



25-rasm. Galenning "Odam tanasi qismlarining ahamiyati" asari

ma'lum va mashhur bo'ldim; keksa yoshimgacha tibbiyot bilan shug'ullanib, biror marta ham o'zim tayinlagan davolashimdan qizarganim yo'q. Boshqa ko'plab mashhur tabiblarda bu holat ko'p uchrashini ko'rganman. Agar kimdir san'at ishlarida mashhur bo'lishlikni istasa sofistikaning yolg'on-yoshiq to'qimalariga emas, men umrim davomida ko'p yillab olib borgan tadqiqotlarimga hech qiyinchiliklarsiz suyanishi mumkin"

Endi biz Galenni Galenga aylantirgan, buyuklarning buyuklaridan biri darajasiga yetkazgan ko'plab tadqiqotlari, usullaridan urologiya sohasiga doir izlanishlari xususida to'xtalamiz.

Mark Avreliy saroyida Galenga imperator uchun teriak dorisini tayyorlash yuklatilgan. Teriak - bu dori 60 dan ortiq moddalardan tashkil topgan bo'lib antiseptik, bardamlik, tetiklashtiruvchi hususiyatlarga egadir. Shu xizmatlari uchun Galenga oltin munchoqda medal topshirilgan. Medalda quyidagi yozuv bo'lgan:

“Autonius Rom. Imp.

Galeno Med.Imp.”,

ya'ni “Antonindan, rimliklar imperatoridan, - Galenga, tabiblar imperatoriga”. Teriak keyinchalik ko'p yillar davomida

qo'llanilib kelindi. 1908 yil farmakopeyasi bilan uni qo'llanish to'xtatilgan.

Urologiya sohasida Galen tomonidan o'rganilgan yangiliklar, ixtirolar uni shunday mashhur qilganki, keyinchalik uning to'g'ri dunyo qarashi qatorida ko'plab yangilish fikrlari ham 1100-1600 yillar davomida haqiqat sifatida qabul qilinib kelindi.

Galenning tibbiyot taraqqiyotiga qo'shgan hissasining chekchegarasi yo'qdir. Xususan:

- farmakologiyaga asos solgan ("Galen preparatlari");
- testosteron defitsiti sindromini asoslab bergan (kastratsiyadan so'ng erkak organizmida bo'ladigan o'zgarishlar);
- Buyrak absessi va gematuriya sababi konkretlar ekanligini ko'rsatishi;
- qovuqdan tosh olish amaliyotining Sels usulida davom ettirilishi;
- "Gonoreya atamasining tibbiyotga kiritilishi (erkaklar uretrasidan yiring oqmalarini urug' ajratmalari deb o'ylagan: gonos - "urug'", "rhoia" - ajralma);
- siyish jarayonida qovuqning ro'li, siydik naylarining intramural qismi (og'izchasi, labchalari) va uning antireflyuks funktsiyasi.

-gipospadiya paytida chekka kertmakni kesib, boshchasini o'rab tikib, meatusni shu hisobdan qoplash;

O'rta asr dorilfununlarida Galenning kitoblari darslik sifatida o'qitilgan. Hozir ham Galenning dunyo qarashlari o'z ifodasini topgan asarlari o'z qiymatini yo'qotgan emas.

Olimlarning buyukligini tirikligida foniy dunyoda shaxsiyati, boqiy dunyoda esa qoldirgan asarlari, ijodiyoti belgilaydi.

5.3. Abu Bakr ar-Roziy

Abu Bakr Muhammad ibn Zakariya ar-Razi (865-925) (26-rasm) ilk o'rta asr sharq fanining eng yirik namoyondalaridan biri bo'lib, ilmiy kuzatishlari, teran fikri, yangi va ilg'or nazariyalari, ilmiy kashfiyotlari va o'sha davr fanining barcha sohalari bo'yicha 150 dan ortiq yozgan asarlari bilan jahon fanini yuqori bosqichga ko'targan. Uning "Abu Bakr Roziy va uning shogirdi yozib qoldirgan kasalliklar tarixi" asari mashhurdir (27-rasm).

U Ibn Sino va Beruniydan 100 yil oldin yashab o'tganiga qaramay mazkur ikki donishmand ijodiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Tibbiyot bo'yicha 23 jilddan iborat asar yozgan.

Ar-Roziyning "Kitob al-Hoviy" ("Al-jomi al-kabir va gad



26-rasm. Abu Bakr ar-Roziy
(865-925)



27-rasm. “Abu Bakr ar-Roziy va unung shogirdi yozib qoldirgan kasalliklar tarixi” asari

urita bi-l-Hoviy” - “al-Hoviy” - “Katta to’plam”) nomli asari Ibn Sinoning asarlari kabi muhimdir. Yana bir muhim asar “34 ta kasalliklar tarixi” shogirdlari tomonidan yozib qoldirilgan.

O’zbekiston fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida Roziyning shogirdi to’plagan ushbu asarning turk tiliga qilingan tarjimasining yagona qo’lyozma nusxasini topishga erishildi.

Ar-Roziy Ray shahridan so’ng Huroson, Buxoro, Bag’dod shaharlariga kelib yashadi va nafaqat hukmdorlarga saroy tabibi sifatida, balki kasalxonalarda aholiga ham tibbiy yordam ko’rsatdi.

O'sha davrda Bag'dodda (hozirgi Iroq) ikki kasalxona barpo etilgan. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, Bag'dod hukmdori Adud at-Davla Roziydan shifoxonalarni shaharning qaysi joyiga qurish maqulligini so'raganda, "Bitta qo'y so'yib, uning go'shtini shaharning turli manzillariga osib qo'yish kerak, qaysi joyda go'sht buzulmay ko'proq saqlansa o'sha joyda shifoxona qurish ma'qul", deb javob bergan. Shifoxona bitgach uni bosh tabib etib tayinlashgan. Roziy rahbarligida shifoxonada sharqda birinchi bo'lib har bir bemor uchun maxsus varaqa (kasallik tarixi) joriy qilingan.

Roziy din masalasida zamonasiga mos kelmaydigan boshqacharoq nuqtaiy nazarga ega bo'lgan. U dinlar, payg'ambarlar va muqaddas kitoblarning ko'pligini va ulardagi qarama-qarshilikni din bo'sh narsaga asoslanganligi bilan bog'laganki, buni Beruniy o'zining "Fehrist" nomli asarida dinga, jumladan Islom diniga nisbatan g'arazgo'ylik deb baholagan. Aslida diniy sarqitlardan ancha uzoq bo'lgan, ilmiy ishlarida asosan kuzatuv va tajribaga asoslangan Beruniy bilan Roziyning ilmiy tadqiqotlari hamda dunyo qarashlari bir biriga yaqin bo'lgan.

Al-Hoviy asarining Hindistonda nashr qilingan nusxasining 10 qismi "Siydik yo'li va buyrak hamda boshqa haqida" deb ataladi. "Kitob fi tavallud al-hisot" - "Tosh paydo bo'lishi

haqida kitob”, ikkinchi to’liqroq nomi – “Buyrak va qovuqda bo’ladigan toshlar haqida kitob”dir. Asarda buyrak va qovuqda toshlarning paydo bo’lish sabablari, kasallik belgilari, kechishi va uni oldindan bilish hamda davolash tadbirlari bayon qilingan. Roziy bu kasallikni mumkin qadar dori bilan davolashga va zarur hollardagina jarrohlik bilan davolash tarafdori bo’lgan. Asarning 24-qismi “Kitob al-Boh” (“Jinsiy qobiliyat haqida kitob”) da jinsiy qobiliyatning mohiyati va uning sifatiga bag’ishlangan. Unda jinsiy aloqaning vaqti, manfaati, zarari, jismoniy quvvatni oshiradigan ovqatlar haqida ma’lumotlar bayon qilingan. Roziy asar muqaddimasida shunday deydi: “Jinsiy qobiliyat haqida ko’p kitoblar yozilgan, lekin hech qaysisi to’liq va yetarli emas, balki ular kamchilikka ega hamda ularning foydasidan zarari ko’p, shuning uchun bu ishga kirishdim. Bu sohada bir kitob yozib, tolib va tolibi ilmlarning shunday kitobga bo’lgan ehtiyojini yo’qotmoqchi bo’ldim.”

Quyida Ar-Roziyning shogirdlari yozib qoldirgan urologiyaga oid ba’zi kasallik tarixlarini asl holda keltiramiz.

1-kasallik tarixi.

“Abdulloh ibn Savoda goho olti kunda bir tutadigan goho uch kunlik to’rt kunlik va gohida har kuni tutadigan aralash isitmaga uchragan edi. Isitma tutishdan oldin ozgina titroq turar va ko’p marta siyar edi. Men bu isitmalar to’rt kunlik isitmaga

aylanadi, yoki kasal buyraklarida yiringli shish bor degan fikrga keldim. Bir ozdan keyin kasaldan siydik bilan birga yiring tushdi. Shundan keyin men unga isitma qaytalanmasligini aytdim va shunday bo'ldi. Men boshidanoq (kasalning) buyragida yiringli shish bor, deb qat'iy aytishga qarshilik qilgan narsa shu bo'ldiki, u avval 3 kunlik isitmaga o'xshab va boshqa xil isitmalarga uchragan; shu sababli bu aralash isitma 4 kunlik isitmaga aylanmoqchi bo'lib turgan yallig'lanishlardan paydo bo'lgan degan fikr quvvatlangandek bo'ldi. Bundan tashqari kasal menga turayotgan vaqtlarida belida og'ir narsa osilib turgandek tuyulishidan shikoyat qilmadi va men ham undan bu haqda so'rashni unutibman. Ko'p siyishi uning buyraklarida yiringli shish bor degan gumonimni kuchaytirdi. Bundan tashqari men kasalning otasi qovuq zayifligiga muhtalo bo'lganligidan va uning o'zi ham salomatlik vaqtida bu dardga uchraganligidan bexabar edim. Shunga ko'ra biz bundan buyon, xudo xohlasa, bunday hollarni g'oyatda, sinchiklab tekshirishdan g'ofil bo'lib qolmasligimiz kerak.

Siydik bilan yiring chiqqanidan keyin (kasalning) siydigi yiringdan tozalanguncha unga siydikni haydovchi (dori) lar tayinladim. Shundan keyin unga muhr loyi, kundur yelimi va bagam daraxti yelimidan ichirdim. Deyarli 2 oy ichida u o'z - o'zidan tuzalib butunlay xolos bo'lib ketdi. Kasal boshida beli

atrofidagi og'riqdan shikoyat qilmaganligi, uning buyragidagi yiringli shishning kichikligidan darak bergan edi. Ammo yiring siydigi bilan tushgandan keyin, undan shunday (og'irlik) holatni sezganmiding deb so'radim. U- ha dedi. Agar yiringli shish katta bo'lganida, albatta kasalning o'zi shikoyat qilgan bo'lar edi. Yiringning tez tozalanishi ham yiringli shishning kichikligidan dalolat beradi. (U murojat qilgan) mendan boshqa tabiblar siydik bilan yiring chiqqanidan keyin ham, undagi (haqiqiy) holatni mutlaqo bilmaganlar”.

Kommentariy (C.A.): Zamonaviy tashxis: Bu bemorda hozirgi zamonaviy tushuncha bo'yicha “Buyrak abstsessi, uning buyrak bo'shlig'iga yorilishi” kuzatilgan.

328-kasallik tarixi.

“Bir xotinning hamma a'zosida va qo'l barmoqlarining uchida og'riq bo'lib, siydik yo'lidan bir sovuq suv oqar edi. Ustoz boldirlariga qortiq solishni va sabr ivitmasini iste'mol qilishni buyurganida, u xotin juda chanqayman va ko'p siyaman dedi. Siydigi ko'rilganda diyobitusga uchragan kasallar siydigiga o'xshash ko'rindi. Shundan keyin ustoz kasallikka diyobitus deb hukm chiqardi, boldirlariga qortiq solishni man qilib, arpa suvini ichib yurishni, boshini issiq suvga tutishni va sabr ivitmasini iste'mol qilishni buyurdi”.

Kommentariy: Zamonaviy tashxis: Qandli diabet, poliuriya.

3-kasallik tarixi.

“Ibn Amravayning kasallik tarixi. Bu kishi sarsom kasalligidan murojaat qilib, o‘zidagi qulanj kasalligidan shikoyat qildi, lekin kasalini tushuntirib ayta olmadi. Unga tamri hindiy iste‘mol qilishini aytdim. U shunday qildi va og‘rig‘i bosildi. Ammo bir qancha vaqtdan keyin bir necha kun unda ich qotish bilan qorin og‘rig‘i yana paydo bo‘ldi.

Undan keyin savdo xilti sababli bo‘ladigan ichak shilinishiga uchrab shundan o‘ldi: bu vaqtda u mendan yiroqda edi. Shuni bilib qo‘yish kerakki, ba‘zi vaqtlarda ayrim kishilarda ichaklariga yomon o‘tning quyilishi sababli qorinda qattiq og‘riq paydo bo‘ladi va buning alomatlari qulanj alomatlariga o‘xshaydi. Bu narsa kasallarda o‘z asarini qoldirishi, natijada qattiq va yomon ichak shilinishi yuz beradi, ayniqsa savdo mijozli kishilarda shunday bo‘ladi. Ilk ham shunday kishilardan] edi.

Bundaylarga yumshatuvchi dori berib ichini yumshatish, undan keyin, ”xudo xohlasa 2 yelimlovchi dorilar ichirish va huqna qilish kerak. Men bunday kasallarni ko‘p joylarda ko‘rganman”.

Kommentariy: Zamonaviy tashxis: Yarali kolit.

3-kasallik tarixi (davomi).

“Ibn Amravayhning kasallik tarixi. Bu kishi sarsom kasalligiga juda moyil edi. Mening kelishimdan oldin sarsomga yuliqqan va undan tuzalib ketgan ekan, chunki qulog'iga chiqindi quyilib, u yerda oqma yara paydo qilgan. Kasallikning boshlanishida qon ham olingan ekan.

Tabiblarning notug'ri davolashlari natijasida qulog'idan madda (oqish) uzoq cho'zilgan kasallikka aylangan. Madda quloq pardasida ustma-ust qo'shilib qotib qolgan, shu sababli... paydo bo'lgan. [Shuning uchun] agar quloq yarasi chuzilgan kasallikka aylansa, uning tagida chiqiq paydo kilish uchun qon olamiz. Shunday qilib, uning qulog'ining tagida chiqiq chikib, yiring yig'di, shundan keyin davo bilan qulogi tuzaldi”.

Kommentariy: Zamonaviy tashxis: Yiringli otit.

4-kasallik tarixi.

“Muhammad ibn al-Husaynda qichima va toshma paydo bo'lgan. Keyin toshmalar olatining siydik chiqadigan joyiga toshgan. Men bu narsa olat ichiga ham toshgan bo'lsa kerak, deb qo'rqqan edim, o'ylaganimcha bo'lib chiqdi va undan yiring chiqdi.

Kommentariy: Zamonaviy tashxis: Jinsiy olat uchug'i (Herpes).

5-kasallik tarixi:

“Soqoli uzun paxtafurushning me’dasida eskidan og’rig’i bor edi. Unga kuchli sof sharob ichishni tayinlagan edilar. Sharobni ichganidan keyin og’rig’i pastga - kindikka tushgan. Undan keyin siydigi tutilib qovug’i to’lib qolgan. Kateter qo’yuvchi kateter bilan siydigan, men bo’lsam bu ishdan bexabar edim. Kateter qo’yishni qayta-qayta takrorlayverib qovug’ini shunday bir holga olib kelganki, hatto u beixtiyor siyib yuboradigan bo’lib qolgan. Siydigida xom oq xilt bor edi. Men buni yuqoridan tushayotgan narsa va u siydikni to’sib qo’yayotgan deb bildim. Shundan keyin ikki oyog’i butunlay falajga uchragan. Meni uyiga chaqirtirdi, men bordim, qarasam tabiblar oyoqlarini issiq yog’lar bilan yog’layaptilar. O’yladimki, qovug’i og’riyotgan va uning hamkorligida oyoqlariga keladigan asablar ham og’riyotgan, chunki u asablar bir-biriga yaqin, chunki asab boshlangan joylarda shish paydo bo’lgan edi. Bel atroflariga quyuq surtma bog’lab qo’ydim va shundan bir necha kun keyin, hozir shu qissani yozayotgan vaqtingacha u ikkala oyoqlarini asta-sekin harakatga keltirish holiga keldi.

Kommentariy: Zamonaviy tashxis: Orqa miya kasalligi.
Oyoqlar falaji. Siydik tutulishi.

XXIV. “Ibn Savodaning o‘g‘li tamog‘idan safroli isitmaga uchradi. To‘rtinchi kuni ertalab qonli siydi va keyin ichi qon aralash ko‘k - rangi go‘shni yuvganda oqadigan suvga o‘xshash keldi hamda quvvati tushib ketdi. Uning ahvoli bizga ayon bo‘lmadi, chunki kasalligi oldin tinch va sokin bo‘lib, keyin bir kechasi ahvoli o‘zgargan va kasalligi yuqoridagidek o‘tkirlashib, kuchayib ketgan. Biron zararli narsa ichgan bo‘lsa kerak deb taxmin qildik. O‘sha kuni asr vaqtida qora siydi va ichi ham qora o‘tdi. Oltinchi kuni azon vaqtida vafot qildi”.

Kommentariy: Zamonaviy tashxis: Xoletsistitda bo‘ladigan siydikdagi o‘zgarishlar.

314. “Bir siydikni olib keldilarki, u et yuvindisisimon edi. Bu siydik egasining orqasida og‘riq bor, gohida siydigi qonga o‘xshab ketadi va siyayotgan vaqtida chap siydik yo‘li kuyib achishadi dedilar. Ustoz u kishining buyragida yara bor deb, urug‘lardan yasalgan hab dori va qahrabo kulcha dorisini iste‘mol qilishni tayinladi”.

Kommentariy: Zamonaviy tashxis: Chap buyrak kasalligi (o‘sma, tosh?).

426. “Bir kishida siydik tutilishi bo‘lib, siygan vaqtida kuyib achishish paydo bo‘lar va ozgina qon chiqar edi. Ustoz unga urug‘lardan yasalgan hab dorisini iste‘mol qilishni va kunda uch marta issiq suvga tushib o‘tirishni buyurdi. Ovqatiga sovuq va

ho'l ovqatlar, semiz tovuq yoki bodom yog'idan tayyorlangan isfidbojni tayinladi. Bir kishida siydik tuta olmaslik bo'lib, siydigi somon rang.

O'zi qattiq chanqar va og'zi qurir edi. Ustoz kasallikni diyebitus deb, unga arpa suvi va uning choragi miqdorida achchiq anor suvini iste'mol qilib yurishni buyurdi. Ovqatiga summokiyani tayinladi.

Kommentariy: Zamonaviy tashxis: Prostata bezi xavfsiz giperplaziyasi, surunkali siydik tutilishi.

458. "Bir bolaning moyagida shish bor edi. Ikki kunda bir marta ogrigi kuchayar edi.

Ustoz uning tadbirida ba'zi yumushlar qilib yoki yurib charchaganidan keyin tez ovqatlanmaslikni, ovqatdan so'ng sira xarakat qilmaslikni, hamma vaqt zira juvorishnini iste'mol kilib yurishni, kasal a'zoni sovuq suvga solishni, bon yogi yoki xaluq yog'i yoki yasmin yog'ini surtishni buyurdi. Ovqatiga shakar bilan xall-u zaytni tayinladi va bu kasallik ichaklarning moyak xaltasiga tushishidir dedi.

Kommentariy: Zamonaviy tashxis: Chov-yorg'oq churrasi.

468. "Bir kishining moyagida, ushlaganda sovuq tuyiladigan bir shish paydo bo'lgan ekan.

Ustoz uning chorasida qustiruvchi dori berib, undan keyin boqillo uni sariq yo'ng'ichqa qaynatmasi bilan

kasal a'zoga qo'yib bog'lanadi, sovushi bilan yana isitib takror qo'yish ancha vaqtgacha davom ettiriladi deb buyurdi. Shu tadbir bilan yuqorida aytilgan kasallik bir kunda yuqoldi".

Kommentariy: Zamonaviy tashxis: To'g'rilanuvchi chov-yorg'oq churrasi.

Ar-Roziyning urologiyaga taalluqli asarlari siydik tosh kasalligiga bag'ishlangan:

-buyraklarda tosh hosil bo'lishi yuqori issiq iqlim yoki tuzlar bilan bog'liqligi;

-kichik hajmli toshlarni davolash uchun kirkazon (ruscha: polin) va qalampirni tayinlagan, jinsiy olatga chayon yog'i surtgan;

-qovuqdan tosh olishda Raulga taqlid qilgan;

-“Kontinens” asarining 10-jildida qovuqdagi katta toshlarni maxsus kuchli pintset bilan parchalashning yangi usuli keltirilgan;

-Galenning ba'zi fikrlariga shubha bilan qaragan va bu haqda mahsus “Shubhalar” degan traktat yozgan.

Abu Bakr Ar-Roziyning asarlarida o'sha zamon tibbiy asarlaridan farqli o'laroq tibbiyotning nazariy tomonlari emas balki amfliy sohalari qamrab olingan.

5.4. Abu Ali Ibn Sino

*Aql bovar etmas avliyodir u –
Mislini ko'rmagan ilm dunyosi!
Tibbiyot ufqida porlagay mangu
Quyoshday, O'zbekning Ibn Sinosi*

Jumanazar Beknazar, 2020.

Abu Ali bn Sino (Avitsenna, 980-1037) (28-rasm).
“Davolash kitobi” va “Tib qonunlari” kitoblarini yaratgan. “Tib qonunlari” asari XVIII asrgacha musulmon dunyosi va yevropa universitetlarida asosiy darslik hisoblangan (29-rasm).

Bu 5-jildli asarning 3-jildi buyrak va tanosil kasalliklariga bag'ishlagan bo'lib, Ibn Sino tibbiyotning urologiyaga taalluqli masalalarni quyidagicha talqin qiladi:



-jinsiy nomutanosibliklar;
-qovuqdan toshni olib
tashlash usulini batafsil
keltirgan;

-“Jinsiy quvvat” asarida
jinsiy kasalliklar tashxisi va
davolash usullari o'rganilgan;

28-rasm. Abu Ali ibn Sino (980-1037)



29-rasm. Ibn Sino asarlari

-bepushtlikning sababini u erkaklar urug'ida yoki ayollik urug'ida, yo bo'lmasa urug' ishlab chiqaradigan a'zolardan izlagan.

Ibn Sino o'z davrining juda mohir jarrohi ham edi. Ibn Sino tomonidan mohirlik bilan amalga oshirilgan qovuqdan tosh olish amaliyoti tafsiloti tahsinga arziydi: "Kursi tayyorlab, unga bemorni yotqizish kerak. Yordamchi xodim (hozirgi iborada – asisstant) o'z qo'lini bemor tizzasiga olib borib, uni mahkam ushlab turadi. Shundan so'ng jarroh operatsiyaga kirishadi. Dastlab u toshni qo'li bilan tashqi tomondan turib topadi va uni bosib, kesiladigan joyga suradi. Buning uchun jarroh qiz bolalar va erkaklarning orqa teshigiga, juvonlarning esa qiniga barmog'ini kirgizadi. Shu yo'l bilan qovuqdagi tosh topiladi. Uni ikkinchi qo'l bilan yuqoridan pastga tomon bosib, siydik qopchasining og'ziga tomon olib kelinadi.

Shundan so'ng tosh joylashgan joy bir oz qiya qilib kesiladi. Bunda asab tomirlarini kesib yubormaslik uchun juda ehtiyot bo'lish kerak. Kesilgan joy siydik qopchasining bo'yin qismiga to'g'ri kelishi zarur. Agar tosh kichik bo'lsa, ba'zan uni bosib, siqib chiqarish mumkin. Tosh katta bo'lganda qovuqni kattaroq kesishga to'g'ri keladi. Tosh esa ilmoq yordamida chiqarib olinadi. Ba'zan esa tosh juda ham katta bo'lishi mumkin. Lekin qovuqni toshning kattaligida kesish mumkin emas, albatta. Bunday holda tosh qisqich bilan maydalab chiqarib olinadi. Bunda toshning eng kichik bo'laklarini ham bitta qo'ymay chiqarib olish lozim.

Chunki uning zarrachasi qolsa ham, hajmi ortib kattalashadi». Bu operatsiyani bajarishda Ibn Sino og'riqsizlantirish usulidan foydalanishni tavsiya qiladi. Buning uchun u bemor qovug'iga og'riqni yo'qotuvchi dori surtishni buyuradi.

“Tib qonunlari kitobi” Ibn Sinoning shoh asaridir. Shu kitob tufayli u butun jahonga mashhur bo'ldi. Abu Ali ibn Sino o'zining bu asarini “Qonun” deb bejiz aytmagan.

U haqiqatdan ham O'rta asr dorilfununlarida talabalar va o'qituvchilar uchun bir necha asr davomida asosiy qonunga aylangan edi. Kitob hatto yuridik jihatdan ham qonunlashtirilgan edi. Masalan, Krakovdagi Yagello dorilfununi dasturida bunday

deb yozilgan: «Tibbiyot bilimini o'rganayotgan har bir talaba "Tib qonunlari" ning birinchi kitobini va qog'oz kitobning birinchi qismini bilishi shart".

"Tib qonunlari" katta tarixiy ahamiyatga ega. Kitob o'z davrida tib ilmining rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatgan. Ibn Sino o'z kitobida faqat o'tmish davr tibbiyotini umumlashtiribgina qolmay, balki uni o'z tajribalari bilan boyitgan.

Ibn Sino juda murakkab yo'lni bosib o'tdi. Avvalo shuni aytish kerakki, Abu Ali ibn Sino O'rta Osiyo tibbiyotining klassigi hisoblanadi. U O'rta Osiyoda ilmiy tibbiyotga asos soldi. Uning eng muhim xizmatlaridan biri shuki, u o'z faoliyati va ilmiy asarlari bilan O'rta Osiyoda mavjud bo'lgan amaliy-nazariy tibbiyotni umumlashtirdi, uni boshqa Sharq va G'arb mamlakatlari tibbiyoti erishgan yutuqlar bilan boyitib, bir butun tizimga keltirdi. Ibn Sino O'rta Osiyo tibbiyotini jahon tibbiyoti darajasiga ko'tardi. Olimning sermahsul ijodiy mehnatlari tufayli bizning tibbiyotimiz o'rta asrlardayoq jahon tibbiyoti qatoridan faxrli o'rin egalladi.

Ulug' shifokor olimning doimiy notinch, sertashvish hayoti uning sog'ligiga o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmadi. Shahar-shahar ko'chib yurishlar, quvg'inlar, hibslar va xatarli hayot

oqibati uning salomatligiga putur yetkazdi va u 1037-yilda Hamadonda 57 (xijriy hisobida 58) yoshida vafot etdi.

Ibn Sino haqida frantsuz tarixchisi L.Men'ye o'zini ko'z-ko'z qilish uchunmi uni "tibbiyotning otasi" emas, balki Gippokrat va Galendan ko'chirma qilib katta-kichik, uzundan-uzoq asarlar muallifi sifatida tariflagan. Go'yoki uning ming yillar butun jahonda darslik bo'lib kelgan kitoblarida hech bir yangilik yo'qday, ar-Roziyning asarlari ko'proq ilmiy va haqiqiy emish. L.Men'ye bu ikki buyuklarning buyuklari asarlarini diqqat bilan o'qimagan ko'rinadi, maqsad farang tibbiyotini maqtab Ibn Sinoni yerga urushga urunishdan iboratga o'xshaydi. Ibn Sino o'zining tabiblik faoliyatida avvalo o'z bilimi va tajribasiga asoslanganini gapdon bu frantsuz qayerdan bilsin!? Xuddi shunday, S.Mettler (AQSH, 1947) unga maddohlik qilib, "Ibn Sino amaliy meditsinaga biron bir hissa qo'shgan, deb aytish mumkin emas" deb iddao qiladi. Ibn Sinoning "Tib qonunlari"ga eng yuksak va odilona bahoni mashhur olim va tabib Nizomiy Aruziy Samarqandiy bergan: "Agar Gippokrat va Jolinus tirilib kelib Ibn Sinoning "Tib qonunlari"ni ko'rsalar edi ular bu kitob oldida bosh eggan bo'lur edilar".

Hatto Sadriddin Ayniy ibn Sino davrini va faoliyatini chuqur va batafsil o'rganib, avvalo uning nasl-nasabiga asosli izoh

beradi: “Yevropada Avitsenna nomi bilan shuhrat topgan bu ulug’ donishmandning ismi Husayn binni Abdullo binni Sino bo’lib, Abu Ali ibn Sino uning kuniyasi, shayxur-rais esa ilmiy laqabidir. Abu Alining otasi Abdullo binni Sino Balxning fozillaridan bo’lib, Somoniylar davrida Buxoroga ko’chib keladi. Abu Ali o’z harakati bilan man’tiq, hikmat, ilohiyot, handasa (geometriya), ilmi nujum (astronomiya) va boshqa ilmlarni o’rgangach, ilmi tib (meditsinaga) qiziqib qoladi, tibbiy kitoblarni mutolaa qiladi, bemorlarni davolaydi. Shu zaylda o’n yoshida hoziq tabib bo’lib yetishadi. Sadriddin Ayniy (1939,1941) inb Sinoga quyidagicha yuqori baho beradi: “Abu Ali ibn Sino ellik yeti yil umr ko’rdi. Bu umrdan o’n sakkiz yili ilm tahsiliga sarf bo’ldi, ko’p vaqti zindonda, talon-taroj bo’lish va o’ldirilish xavfi ostida o’tgan o’ttiz yeti yil davomida shu qadar katta ilmiy ishlar yozdiki, shunday sharoitda olamda hech bir olim uning bergan mahsulining yarmini ham bera olmas edi”.

Buyuk tabib mashhur asarini yakunlagach “Tib ilmida ko’zlagan orzularim ushaldimi? Ilmiy asarlarim bilan xalqimga naf etkaza olyapmanmi? Ona qishlog’im Afshonam, Buxoroi sharif va butun turkiy elim tibbiyot borasidagi xizmatlarimdan rozi bo’larmikan?” – deb xitob qiladi (Jumanazar Beknazar. Buyuk Sino, 2020) [30].

5.5. Leonardo da Vinchi

Leonardo da Vinchining (Leonardo di ser Piero da Vinchi, 1452-1519) erektsiya bo'yicha juda qiziq kuzatishlari tarixdan ma'lum (30-rasm). U Gippokratning erektsiya jinsiy olatning



30-rasm. Leonardo da Vinchi
(1452-1519)

havo bilan to'lishiga bog'liq degan fikrini quyidagicha rad eta olgan.

Da Vinchi diniy ekstaz holatida o'z-o'zini kastratsiya qilgan erkaklarda yoki osishga hukm qilingan mahbuslarda reflektor erektsiya yuzaga kelishiga e'tibor bergan.

Ularning jinsiy olatini o'limidan keyin kesib olib, tekshirib ko'rganda olat havo bilan emas, balki qon bilan to'lgani ma'lum bo'lgan.

Anatomiyadan rasmlarini qizil qalam bilan tuzgan atlasini 7000 varaq qo'l yozmalardan iborat bo'lgan. XVIII asrning ikkinchi yarmida uning asarlari 13 jilddan iborat bo'lib chop etilgan.

5.6. Ambruaz Pare

Ovropoda uzoq vaqt jarrohlik - tibbiy fan emas, deb hisoblanib kelindi. Jarrohlik ishi bilan maxsus tibbiy ma'lumotga ega bo'lmagan siryulniklar (sartaroshlar) shug'ullanardilar. Shuning uchun ular tibbiy kasb egalari qatoriga qabul qilinmasdilar. Ammo jarrohlik o'z muvaffaqiyatlari bilan asta-sekin tibbiy bilimlar qatoridan joy ola boshladi. Jarrohlikning fan sifatida tan olinishida asosiy rolni mashhur fransuz jarrohi - Ambruaz Pare (1510-1590) o'ynadi (31-rasm).

Buyuk jarrohi tibbiyot sohasida 17 yoshidan boshlab faoliyat olib borgan, 19 yoshidan harbiy xizmatga o'tgan va ko'plab harbiy yurishlarda qatnashib, dala harbiy tibbiyotida katta tajriba orttirgan.

U davr janglarida o'q otar quroldan jarohatlanganda organizmga kukun (ruscha: порошок) zahri o'tadi, uni davolashning eng afzali yaradagi



31-rasm. Ambruaz Pare (1510-1590)

zaharni, kukun qoldiqlarini yo'qotish kerak deb o'ylashgan. Buning uchun yara qizdirilgan temir bilan G.Gersdorff usulida kuydirilgan hamda qaynab turgan qatron (ruscha - смола) tomizilgan. Ambruaz Pare o'zining ko'p kuzatishlari natijasida bu usul tamomila zararli ekanligini isbot etgan va o'zi birinchi bo'lib bu usuldan voz kechgan. U jarohatlangan joyni toza mato bilan bog'lab qo'yish va bu bog'lamni hadeb yangilash kerak emasligini tafsiya etdi.

Ambruaz Parening jarrohlik oldidagi xizmatlari juda katta. Yevropada uzoq vaqt jarrohlik ilm emas, oddiy bir sartaroshning hunari bo'lib kelgan. Ambruaz Pare tufayli jarrohlik tibbiy bilim deb tan olindi. Bu uning eng katta xizmatidir. Ambruaz Pare jarrohlikda juda ko'p yangiliklar kiritdi.

O'sha paytlarda harbiy yurishlar, janglar bo'layotgan sharoitda sartaroshlar yashash joylari yaqinida gulxan yoqib uning ustida qozonlarda qatron (smola) qaynab turgan.

1537 yilgi Italiya harbiy yurishlaridan birida jangdan so'ng yaradorlar shunday ko'payib ketganki, sartaroshxonada qizdirilgan qatron yetishmay qolgan. Natijada Ambruaz Pare qolganlarning yarasiga tuxum sarig'i va oddiy moy surtib toza bog'lam qo'ygan. ("Yaxshi doktor bemorning o'lishiga xalaqit bermaydi, yomoni – o'ldiradi". F.Geke, 1661-1737). "Ertalab hayron bo'lib qaragam, deb yozadi kundaligida Ambruaz Pare, -


bemorlar tetik, uyquga to'ygan, yaralari shishmagan, yallig'lanmagan edi". Shu bilan birga yaralari kuydirilib qaynab turgan qatron tomizilgan jarohatlanganlarda esa varaja kuchaygan, kuchli og'riq, yara chandiqlari yopishgan bo'lgan. Ambruaz Parening aynan shu kashfiyoti bilan o'q otar quoldan paydo bo'lgan jarohatlarni davolashning yangi davri boshlangan. Bu haqda buyuklarning buyugi "Men uni bog'ladim, xudo bo'lsa davoladi", deb o'ziga yarashgan tarixiy iborani aytgan.

Hozirgi paytda oddiy manipulyatsiya hisoblangan, qisqich bilan ushlab qon tomirni bog'lab gemostaz qilishni ham Ambruaz Pare o'ylab topgan. Qovuqdan tosh olishda yarani tikib yopishda ipak choklarni qo'llagan, qovuqni esa kumush naylar yordamida drenajlagan.

Varikotsele, "tomirlar chigalida qon dimlanishidan iborat" degan ta'rif ham Ambruaz Parega taalluqlidir.

U jinsiy olat protezi-ning birinchi muallifidir (32-rasm) [32].

Ambruaz Pare yozgan 10 ta kitobdan 3 tasi urologiyaga taalluqlidir: VIII kitob - issiq siydik haqida;



32-rasm. Ambruaz Pare qurilmasi – jinsiy olatning birinchi protezi

IX kitob - siydik tosh kasalligi haqida; X kitob - siydik tutilishi haqida.

Ambruaz Pare butun umri davomida Frantsiska II, Karl IX, Genrix III kabi qirollarni davolagan. Aytishlaricha, dahshatli Varfalomey kechasida qirol Karl IX sevimli shifokori Ambruaz Pareni saroyning bir chekka xonasiga yashirib, talofatning oldini olgan.

5.7. Franchisko Diaz

Franchisko Diaz tibbiyot doktori (33-rasm), Alcalá de Henares universiteti falsafa magistri, Philip II qiroli jarrohi, ispan vrachi. Franchisko Diazni ayrim tarixchilar urologiyani tibbiyotning alohida fani sifatida asoslagan olim sifatida hisoblashadi. Uning 1588-yilda Madridda chiqqan 3 jildlik mo-



33-rasm. Franchisko Diaz

nografiyasi to'liqligicha urologiya kasalliklarining kelib chiqishi, klinikasi, tashxisi, davolanishiga, urologik amaliyot texnikasi, instrumentlarning qo'llanilishiga bag'ishlagan. Monografiyada siydik-tosh kasalligi, siydik-tanosil


a'zolarining yallig'lanish kasalliklari, prostata bezi havfsiz giperplaziyasi hamda ushbu kasalliklar paytida bajariladigan amaliyotlar batafsil keltirilgan.

5.8. Pirogov Nikolay Ivanovich

Rus klinik olimlaridan eng ko'zga ko'ringanlari N.I. Pirogov (1810-1881) va S.P.Botkindir. N.I.Pirogov 1810 yilda Moskva-da, harbiy qismda, xo'jalik lavozimida xizmat qiluvchi kishi oilasida tug'ildi (34-rasm). U yosh bolalik chog'idayoq atrofdagilarni o'zining harakatchanligi va o'tkir zehni bilan hayratda qoldirar ekan. N. I. Pirogov erta savod chiqardi.

Avvalo u uyiga kelib dars beradigan o'qituvchilardan ta'lim oldi. So'ng uni V.S. Kryajev degan kishining xususiy pansioniga o'qishga berdilar. Bu yerda Pirogov ikki yil ta'lim oldi.

Pirogovlarning oilasiga pedagoglar, tabiblar tez-tez kelib turishar edi. Shular qatorida Moskva dorilfununi-



34-rasm. N.I. Pirogov (1810-1881)

ning professori Ye.O.Muxin ham bor edi. U yosh Nikolayning o'tkir zehni va o'qishga bo'lgan zo'r qobiliyatini ko'rib, uni albatta dorilfununga o'qishga kirishi kerakligini ta'kidladi va o'zi bu ishga yordam berdi. N.I.Pirogovning bilimi va tayyorgarligi shu qadar kuchli ediki, u gimnaziyani tugatmasdan, 14 yoshida to'g'ridan-to'g'ri Moskva dorilfununiga qabul qilindi. N.I. Pirogov tibbiyotga juda qiziqardi. Shuning uchun u tibbiyot fakultetiga o'qishga kirdi.

N.I.Pirogov dorilfununning eng qobiliyatli talabalaridan biri edi. Bilimlarni juda oson o'zlashtirardi. 1828 yilda N.I.Pirogov dorilfununni muvaffaqiyatli tugatdi. Uning dorilfunda qolib talabalarga dars berish istagi bor edi. Ammo N.I. Pirogov qanchalik qobiliyatli bo'lmasin, dorilfununda, ayniqsa tibbiy fakultet o'qitish-ta'lim ishlari ancha past darajada bo'lganligi tufayli u chuqur bilim va tajriba orttirgan emasdi. Buning uchun Derpt Tartuda ochilgan professorlar tayyorlovchi ilmgohga o'qishga jo'nadi. Bu ilmgohga dorilfununni imtiyozli tugatgan va qobiliyatli mutaxassislar qabul qilinardi. N.I.Pirogov har jihatdan bu talabga javob berardi. N.I.Pirogovda fiziologiya fani bo'yicha mutaxassis bo'lish niyati bor edi. Ammo u yerda bunday bo'lim yo'q edi. Shu sababli u jarrohlik bo'limiga o'qishga joylashdi. Ilmgohda N.I.Pirogov o'zining dastlabki ilmiy ishlarini boshladi. U 1829 yildayoq "Yirik arteriyalar

bo'ylab qo'yilganda qanday o'zgarishlar yuz beradi", degan birinchi ilmiy asarini yozdi. Bu ish uchun N.I.Pirogov oltin medalga sazovor bo'ldi. 1832 yilda esa N.I.Pirogov doktorlik dissertatsiyasini yoqladi. Dissertatsiyaning nomi "Chov sohasida anevrizma paydo bo'lganida qorin aortasini bog'lash oson amalga oshiriladigan va xatarsiz ishmi?", deb atalardi.

Derpt ilmgohida N.I.Pirogov besh yil davomida tajriba orttirdi va bilimini oshirdi. Ammo u ilmgohni tugatgandan so'ng ham o'z bilimi va tajribasini yetarli deb hisoblamadi. U yanada chuqurroq bilim va tajriba orttirish zarur deb bilardi. Shu maqsadda u 1833 yilning may oyida chet elga - Germaniyaga jo'nab ketdi. Bu yerda u ikki yil davomida dastlab Berlin klinikasining boshlig'i S.F.Graffe, so'ng Xettingen klinikasining boshlig'i B.Langenbek rahbarligida anatomiya, operativ va klinik jarrohlik sohasida o'z bilim va tajribasini oshirdi. Shundan so'nggina N.I.Pirogov o'zini yetuk mutaxassis hisoblab Rossiyaga qaytdi.

1835 yilda uni Derpt ilmgohining jarrohlik klinikasiga jarroh etib tayinladilar. Bu yerda u dastlabki qilgan operatsiyalaridayoq o'zining juda mohir va tajribali jarroh ekanini namoyish qildi. 1836 yilda N.I.Pirogovga professor unvoni berildi. Derptda N.I.Pirogov besh yil ishladi. Bu davr ichida kasallarni operatsiya qilish va talabalarga dars berishdan

tashqari muhim ilmiy ish ham olib bordi. Klinikadagi o'z tajribalarini umumlashtirib ikki jildlik «Jarrohlik klinikasining solnomasi» nomli kitob yozdi. Shunisi qiziqki, bu kitobda N.I.Pirogov klinikada amalga oshirilgan muvaffaqiyatli operatsiyalar qatorida yo'l qo'yilgan xatoliklarni va shaxsan o'zining xatoliklarini ham bayon etgan.

Derptda N.I.Pirogov olim sifatida anatomiya, xususan topografik anatomiyani o'rganishni davom ettiradi va shu ishlari asosida "Arterial tarmoqlar va fastsiyalarning jarrohlik anatomiyasi", «Operativ davolash vositasi sifatida Axill payini qirqish» nomli asarlarni yozadi. N.I.Pirogov Derpt ilmgohida ilmiy xodimlarga rahbarlik ham qildi. Bu yerda uning rahbarligida 12 ta doktorlik dissertatsiyasi yoqlandi.

1840 yilda N.I.Pirogovni Peterburg Tibbiy-jarrohlik Akademiyasiga ishga taklif etdilar. 1841 yilda Harbiy-dala gospitalining boshlig'i qilib tayinlandi. N. I. Pirogov Tibbiy-jarrohlik Akademiyasida talabalarga ko'proq amaliy jarrohlikni o'rgatishga intildi. Shu maqsadda u akademiya gospital jarrohlik klinikasini tashkil etdi. Bu klinikada ilmiy ish olib bordi. Bir qancha kitoblar, darsliklar va ilmiy maqolalar yozdi. "Odam tanasi amaliy anatomiyasining to'liq kursi", "Adliya vrachlari uchun mo'ljallangan odam tanasining anatomik ko'rinishi (atlas bilan)", "Muzlatilgan odam tanasining uch

yoʻnalishda arralangan koʻrinishining rasmlari topografik anatomiyasi” kabilar shular jumlasidandir. N.I.Pirogovning bu oxirgi kitobi anatomiyani oʻrganish sohasida qoʻllangan yangi usulning natijasi sifatida yuzaga kelgan. Muallif odam anatomiyasini, xususan, topografik anatomiyani oʻrganishda ilgari hech kim tomonidan qoʻllanilmagan usulni amalga oshirdi. Klinik jarrohlikga ham N.I.Pirogov bir qancha yangiliklar kiritdi. U Rusiyada birinchi boʻlib, ogʻriqsizlantirish usulini qoʻlladi. Shunisi muhimki, u bu usulni urush sharoitida amalga oshirdi. Bu usulni u 1847 yilda Kavkazdagi Salti qishlogʻida jangda jarohatlangan askarlarni operatsiya qilish vaqtida qoʻlladi. Unda efir eritmasidan foydalandi.

N.I.Pirogov jarrohlik bilan cheklanib qolmay, boshqa sohalar bilan ham shugʻullandi. Xususan, u patologik anatomiya bilan ham shugʻullandi. 1848 yilda Peterburgda vabo kasalligi tarqalib ketganda oʻsha joyga borib shu kasallik bilan ogʻrib vafot etgan 800 kishining jasadini yorib, kasallik patologik anatomiyasini tekshirdi.

N.I.Pirogov uchun jarrohlik asosiy soha boʻlib qoladi. U oyoq panjasi kuchli jarohatlanganda uni kesib tashlab, tovon suyagini saqlab qolish usulini (bemor yaxshi yura olishi uchun) ishlab chiqdi. Bu usul “Pirogov usuli” deb ataladi. N.I.Pirogov harbiy-dala jarrohligi printsiplarini ishlab chiqqan. U 1853-1856

yillardagi Qrim urushida jarroh sifatida qatnashib, so'ng 1870-1878 yillarda Germaniya va Bolgariyada davom etgan urushlarda jarrohlik yordamini tashkil etishni ko'zdan kechirib va uni chuqur o'rganib shunday qarorga keldi: Urushda yaradorlarga yordam berishda asosiy masala bu ishni tashkil qilishdan iborat. Shunga asosan N.I.Pirogov o'zining harbiy-dala jarrohligi doktrinasini (ta'limotini) ishlab chiqdi. Bu doktrina shundan iboratki, birinchidan, urush - travmatik epidemiyadir. Bu epidemiyada jarohatlanganlarning soni doim o'zgarib turadi. Ikkinchidan, jarohatlarning og'ir yengilligi urush qurollariga bog'liq. Jarohatni muvaffaqiyatli davolash yaradorga o'z vaqtida yordam berish va jarohatning og'ir yengilligiga bog'lik. Uchinchi doktrina - jarohatlanganlarni va kasallarni davolashda tibbiy yordamdan ko'ra bu ishni tashkil etish rol o'ynaydi. Xususan tibbiy qismlarning yordami, ish uslubi, tibbiy bo'linmalarga boshliq huquq va maqsadlarini aniq belgilab qo'yilishi va nihoyat, tibbiy xizmatni aniq va yuqori sifatli boshqarish vaqtiga bog'liq. Bu yerda Pirogov jarohatlarning og'ir yoki yengil ekanini aniqlash, og'ir yaradorlarni yengil yaradorlardan ajratish, ularni shunga qarab evakuatsiya qilishga alohida e'tibor bergan. Uning fikricha, bu ish to'g'ri yo'lga qo'yilsa, tibbiy yordam berish punktlarida ko'p yaradorlar to'planib qolmaydi, ularga tibbiy yordam berish

yengillashadi. N.I.Pirogovning bu fikrlari bizning davrimizda ham o'z ahamyatini yuqotmagan. Bu qoidalar Ulug' Vatan urushi frontlarida ham qo'llanilindi. N.I.Pirogov mohir jarroh va chuqur bilimli olimgina bo'lib qolmay, jamoat arbobi ham edi. U 1856-1866 yillarda dastlab Kiyev, so'ng Odessa maorif okrugi boshqarmasining boshlig'i bo'lib xizmat qildi. N.I.Pirogov bu vazifada o'zining zo'r tashkilotchilik qobiliyatini namoyish qildi. Bu okruglarda o'quv-tajriba ishiga yangiliklar kiritdi. Pirogov o'rta va oliy o'quv yurtlariga talaba qabul qilishda yoshlarning tabaqalarga bo'linishiga qarshi chiqdi. U o'quv yurtlariga kirish huquqiga ega bo'lgan yoshlar guruhlarini kengaytirishni talab qildi va bu talablar bo'yicha muhim tadbirlarni amalga oshirdi.

N.I.Pirogov mutaxassislar va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash ishiga ham katta hissa qo'shdi. Bu ishga to'gridan-to'g'ri rahbarlik qildi. Chet mamlakatlarga o'z bilimini oshirish uchun yuborilgan mutaxassislar bilan birga bordi. Ammo N.I.Pirogovning ilg'or fikrlari va u amalga oshirayotgan reformalar o'sha davrdagi rahbarlarga yoqmas edi. Ularning tazyiqi bilan olim 1861 yilda o'z vazifasidan chetlatildi. Shunday qilib, faqat Rusiyadagina emas, balki Ovrupo miqyoshida ham tanilgan olim ishdan bo'shab, Vinnetsiya yaqinidagi Cherry qishlog'iga kelib, umrining ko'p qismini shu

yerda o'tkazdi. N.I.Pirogov katta ilmiy meros qoldirgan. 10 ta monografiya, ko'plab qo'llanmalar va ilmiy maqolalar yozgan, ko'p shogirdlar tayyorlagan. Shulardan 23 kishi fan doktori va professorlardir.

N.I.Pirogov o'z dunyoqarashi bilan o'zi tan olgandek, eklektik edi. U falsafiy fikrlarida dualistik va idealistik xatolarga yo'l qo'ygan. Masalan, N.I.Pirogov darvinizmga qarshi chiqqan edi. Bu xatolariga qaramay, N.I.Pirogov XIX asrning buyuk klinitsist olimlari qatoridan joy oldi. U tibbiyot fanining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan.

Jarroh, topografik anatomiya, harbiy dala jarrohligi, efir bilan og'riqsizlantirishning asoschisi, buyuk pedagog. U asosan harbiy jang sharoitida urologik jarrohlik amaliyotini mohirona bajargan. Aytishlaricha, qovuq toshini olib tashlash amaliyotini 5-6 daqiqada bajara olgan.

N.I.Pirogov 1881 yil boshlarida tanglayida og'riq seza boshlaydi. 1881 yil 24-mayida N.V.Sklifosovskiy unga yuqori jag' saratoni tashxisini qo'ydi. U Germaniyaga borib o'zini buyuk jarroh Bilrotga ham ko'rsatdi. Bilrot kasallikning o'tib ketganligini inobatga olib va deontologik nuqtai nazardan saratoni inkor etdi va jarrohlik amaliyoti zarur emasligini takidladi, konservativ davo tafsiya etdi. (Keyinchalik N.I.Pirogov bu masalaga alohida to'xtalib, ancha-muncha

kinoya bilan "Bilrot menga to'g'ri tashxis qo'ya olmadi, aks holda, operativ davolash mumkin bo'lardi, degan da'vosini ochiq aytdi).

Pirogovning kasallik sababini haligacha turlicha tushuntirishadi. Pirogov umrining ko'p qismini gospital sharoitda o'tkazgani va dori, zaharli moddalar ta'siri bilan bog'lashdi. Pirogov ashaddiy kashanda bo'lgan, bu ham sabab deb taxmin qilindi. N.I.Pirogov 1881 yilda 71 yoshida vafot etdi.

O'limidan sal oldin olim yana bir kashfiyotni qildi: murdani mumiyalashning yangi usulini yaratdi, uning o'zining ham jasadi Vishni qishlog'ining cherkovida shu usulda mumiyalanib, hozirgacha saqlanmoqda. Rus vrachlari N.I.Pirogovning xotirasini abadiylashtirish maqsadida uning nomida xirurgik jamiyat tuzishdi, muzey ochishdi, Moskvada haykal o'rnatib e'zozlab kelmoqdalar.

5.9. Atoullo tabib

Atomuhamedov Atoulloxon (1852-1938) ning kelib chiqishi afg'on bo'lib, Samarqandda yashab, faoliyat ko'rsatgan (35-rasm). Prof. Qodirov A.A. (1994) [31] yig'gan ma'lumotlarga ko'ra, u XIX asrning oxirlarida Afg'onistondan Samarqandga ko'chib



**35-rasm. Atomuhamedov Atoulloxon
(1852-1938)**

kelib, oila qurgan va umrining oxirigacha O'zbekistonga yashagan.

Atoullo tabibning 6 nafar farzandi bo'lgan: Habibullo, Nematullo, Inoyatullo, Saboqatxon, Saodatxonim, Sanavarxonim. Ulardan 4 nafari ota kasbini tanlab, shifokor bo'lishgan. Atoulloxon vrachlik sulolasini boshlab bergan. Hozirgi paytda uning nabiralari, evaralari orasida 8 nafari tibbi-

yot fanlari doktorlari, 2 nafari Rossiya fanlar akademiyasining muxbir a'zolari, 4 nafari xizmat ko'rsatgan fan arboblari, 7 nafari O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan vrach, 14 nafari tibbiyot fanlari nomzodlari va 50 ga yaqin vrachlar mamlakatimizning turli viloyatlarida samarali mehnat qilib kelmoqda. (Xo'jayev H., 2011) [61].

Mamedxanov Xasan va boshqalarning xabar berishicha, Atoullo tabib juda bilimdon inson bo'lgan, arab, fors, afg'on, o'zbek, turk, rus tillarini bilgan. U o'rta asr sharq, hind, grek tibbiyotidan xabardor bo'lgan, lotin tilini ham o'rgangan bo'lsa

kerakki, bemorlar lotin tilida u yozib bergan retsept asosida dorixonadan dori-darmon olishgan. Asli, dorilarning ko'pchiligini o'zi tayyorlagan. Bemorlarni uyida qabul qilgan. Buning uchun ikkita xona ajratilgan bo'lib, ularning tokchalariga tibbiyotga doir ko'plab kitoblar terib qo'yilgan.

Atouullo tabib katta tajribaga ega bo'lgan, tibbiyotning umumiy tekshirish usullaridan (palpatsiya, auskultatsiya, perkussiya, pulsni sanash va boshqalar) mohirona foydalangan, ba'zi kichik jarrohlik amalyotlarini ham bajara olgan. Yana o'sha X.Mamedxanovning eslashicha, yaradan o'qni, tishni olib tashlash, yiring o'chog'ini, ayollarda mastitlarni ochish qo'lidan kelgan. Albatta, tabiiyki, boshqa ko'plab kasalliklar qatorida siydik-tanosil a'zolari kasalliklarini ham davolagan bo'lishi kerak.

5.10. Fyodorov Sergey Petrovich

S.P.Fyodorov (1869-1936) – buyuk rus va sovet xirurgi, tibbiyot fanlari doktori, professor, xirurgiya sohasida katta maktab asoschisi, "Rus urologiyasi otasi", xirurg, tibbiyot doktori P.N.Fyodorov oilasida dunyoga keldi (36-rasm). 1886 yilda gimnaziyani a'lo baholarga tugallaydi va otasi yo'lidan borib, Moskva universitetining tibbiyot fakultetiga o'qishga



36-rasm. S.P. Fyodorov (1869-1936)

kiradi. Universitetni ham 1891 yilda imtiyozli yakunlab, A.A.Bobrov klinikasida ish faoliyatini boshladi.

S.P.Fyodorovning faoliyati ko'p qirrali. Urologiya sohasida u quyidagi jarrohlik amaliyotlarini ishlab chiqqan:

- pielolitotomiya "in situ";
- subkapsulyar nefrekomiya;
- nefropeksiya.

A'zolarga jarrohlik usulida yetib borish:

-XII qovurg'aning oxiridan kindikga tomon qorin devorida yoysimon kesim (buyrak va siydik nayi yuqori uchligigacha yetib borish).

Instrumentlar ishlab chiqdi va amaliyotga tatbiq etdi:

- buyrak oyoqchasini qisish uchun (jarrohlik paytida);
- buyrak oynasi;

Bir paytning o'zida u 1895 yil aprel oyida doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi. U 1907 yilda Rossiya urologlari jamiyatining raisi etib tayinlandi. 1909 yilda faxriy jarroh, 1912 yilda imperator oilasining jarrohi lavozimiga loyiq topildi.

Birinchi jahon urushi boshlanishi bilan S.P.Fyodorov imperator

Nikolay II va shaxzoda Alekseyi kuzatib yurgan. 1917 yil fevral va oktyabr voqealaridan keyin u akasining va chet el jarrohlarining Frantsiyaga emigratsiya qilish haqidagi takliflarini rad etadi va xalqiga xizmat qilish hamda vatanida jarrohlik fanini rivojlantirishga qaror qiladi.

1921 yilda Y.O.Galperin bilan birga jarrohlik bo'yicha birinchi bor Sovet ittifoqida "Noviy xirurgicheskiy arxiv" jurnalini ta'sis etishadi. S.S.Girgolav va A.B.Martinovlar bilan hamkorlikda amaliy jarrohlik bo'yicha to'qqiz jildlik qo'llanmaga tahrirlik qiladi. 1928 yilda Rossiyada xizmat ko'rsatgan fan arbobi unvoniga sazovor bo'ladi. 1933 yilda ish faoliyatining qirq yilligi munosabati bilan jarrohlar o'rtasida birinchi bo'lib Lenin ordeni bilan taqdirlanadi.

Uning "Xirurgia pochek i mochetchnikov" nomli olti jildli kitobi dunyo miqyosida juda mashhurdir (37-rasm).



37-rasm. S.P. Fyodorovning 6 jildlik
"Buyrak va siydik nayi xirurgiyasi" kitobi

Har qanday faol jarrohlarda uchrab turadigan ba'zi xatolar Fyodorov hayotida ham bo'lgan.

Bemorning sil bilan kasallangan buyragi qolib ketib, sog'lom buyragini olib tashlagan, tabiiyki bemor buyrak yetishmovchiligidan vafot etgan.

Albatta, Fyodorov bu haqda ommaviy axbarot vositalarida va ilmiy matbuotda o'z xatosini ochiqchasiga tan olgan.

Bu shu sohaning buyuk mutafakkirini larzaga solgani shubhasiz.

Muxoliflarga esa rivoyat uchun gap topilgan. Emishki, Sergey Petrovichda ham barcha ruslarga xos bir odat, ya'ni jarrohlik amaliyoti oldidan operatsion hamshira qo'lidan 100 gr (stopka) toza spirt icharkan.

O'ylaysizki, eslatib o'tilgan dahshatli voqeadan so'ng leyb-medik (podshoning oilaviy, shaxsiy duxturi) bu odatini tashlaganmi? Unda u leyb-medik bo'lmasdi-da.

Oldin dadillik uchun deb "stopka"ga qo'l urgan bo'lsa, endi operatsiyadan keyin asablarni tinchitish uchun deb, rusligidan va "odati" dan kechmagan.

Buni "rivoyat" dedigu, ko'proq haqiqatga ham o'xshaydi. Har holda kim biladi... odamzod hom sut emgan banda-da.

5.11. Bogoraz Nikolay Aleekseyevich

Matonatli va jasoratli jarrohlarning silsilasida alohida o'rin egallagan Nikolay Alekseyevich Bogoraz (1874-1952) haqida tushuncha hosil qilish uchun uning shaxsiy hayoti, boshidan kechirgan kulfatlarni eslash zarur bo'ladi (38-rasm).

Tassavvur qiling, ikkala oyoqlari amputatsiyadan keyin protezlangan bo'lsada, operatsiya stoligacha yetib borsak bo'lgani, u yog'iga oyoqlar emas, qo'llar ishlaydi, degan olim, shu holda dunyoviy – kashfiyotlar, olamshumul ixtirolar qila olsa!

N.A. Bogoraz o'z faoliyatini urologiya muammolarini hal qilishga qiziqish bilan boshladi.

Xronologiyaga murojaat qilamiz:

1. 1909 yil. Siydik nayini to'g'ri ichakka implantatsiya qilish. Ko'rsatma: qovuq ekst-rofiyasi, siydik tutolmaslik.

2. 1910 yil. "Buyrakning teri osti shikasti" ilmiy ishi



38-rasm. N.A Bogoraz (1874-1952)

.Uning fikricha bunday vaziyatda a'zoni saqlab qolish asosiy vazifa bo'lishi kerak.

3. 1910 yil. 3 yashar bolada tanasining oldingi yuzasida jinsiy a'zolar sohasini ham qamrab olgan kuyishdan keyingi chandiqlar bilan qoplangan holat. Jinsiy olat qorin devorining pastki qismiga yopishib ketgan va bola qoringa qaratib siya olardi. Xirurgik davolash zakarni chandiq to'qimalardan ajratish va uning yuzasini qorin devorining pastki qismi terisi bilan qoplashdan iborat bo'lgan.

4. 1914 yil. "Bachadon fibromiomasini mavjud bemorda qovuqning qorin bo'shlig'iga yorilishi" maqolasini chop etdi. 30 yashar ayolda umr yo'ldoshi qorinining pastki qismiga tumtoq travma yetkazib, shifoxonaga olib kelishgan. Laparotomiya amalga oshirilganda qovuq devorining 6 sm shikastlanganligi va bachadonda "odam kallasini kattaligida" fibromatos mavjudligi aniqlangan. Qovuq devori defekti tikib yopilgan va gisterektomiya bajarilgan.

5. 1936 yil 7-noyabr. Bogoraz birinchi bo'lib Azov va Qora dengiz mintaqasi xirurgik jamiyatida falloplastika uchun qovurg'a tog'ayini qo'llash haqida xabar berdi. Shu yilning o'zida rus va nemis jurnallarida maqola chop ettirdi. Bungacha falloplastika va zakarning implantatsiyasi jarrohligi haqida bironta ilmiy ish bo'lmagan. 5 oy kuzatuvdan keyin bemorda

neofallos faoliyat ko'rsata boshlagan, jinsiy aloqa tiklangan, ejakulatsiya kuzatilgan. Bemor uylangan, homiladorlik kuzatilgan, uning jinsiy aloqa paytidagi hissiyoti zakar yo'qotilgunchadagidek.

Umr yo'ldoshining aytishicha, u bunday seksdan to'liq qoniqqan. Bogoraz neofallosning maksimal uzunligini 12 sm deb belgilagan.

6. 1939 yil. Bogoraz 16 nafar bemorlarda (zakarning qisman yoki tamoman yo'qotilishi, travma, yara, gangrena, rak, mikropenis, og'ir gipospadiya, epispadiya va qovuq ekstrofiyasi) o'z usulini qo'llash natijalari haqida maqola chop etgan.

Bu ilmiy izlanishlar, amaliyotlar Bogorazni butun dunyo olimlari tomonidan tan olinishi va uning "falloplastika va zakar implantatsiya jarrohligi rus pioneri" sifatida dovrug' taratishiga zamin tayyorladi.

N.A.Bogorazning "Vosstanovitel'naya xirurgiya" (1948) asari unga tirikligida qo'yilgan haykal bo'ldi (39-rasm).

Bu haykalning poydevoriga uning o'zining yozib qoldirgan so'zlarini keltirish o'rinli bo'lardi: "Mayli oyoqlardan ajraldik, lekin atrofni kuzatish uchun ko'zlar qoldiku, bu hodisalarni anglash uchun miya qoldiku, tajriba qilish va insoniyatga ilmiy va amaliy ko'mak berish uchun qo'llar qoldiku".



39-rasm. N.A. Bogorazning “Qayta tiklash jarroxligi” kitobi

1920 yil 8-sentyabrda Nikolay Alekseyevichning hayotida dahshatli voqea sodir bo'ldi. Bu uning irodasi va xarakterining sinovi edi. O'sha kuni Nikolay Alekseyevich gospitalga konsultatsiyaga shoshib klinikadan chiqa solib odam to'la tramvay vagoniga kirib olishga urunib, tushib ketadi va oyoqlari bilan ikkinchi vagon g'ildirakarlari ostida qoladi. N.A.Bogoraz ikkala oyoqlaridan ajraladi. “Mayib” degani jarrohlikka mos kelmaydi. Bu - ko'zi ko'rmaydigan samolyot uchuvchisi yoki ovozi chiqmay qolgan artistga o'xshaydi.

Jarrohlik, ma'lumki ko'p soatlab oyoqda turib ishlashdan iborat. Bunda soppa-sog'lom odamning oyoqlari charchaydi, haliku ikkala oyog'ida protez kiyib operatsiya qilish.

Bogorazning mehnat faoliyatini qayta boshlashi haqiqatan insoniy qahramonlik edi. U 2 hafta o'tar-o'tmas katalkada o'tirib klinikaning barcha kasallarini ko'rikdan o'tkazib chiqadi, 6 oydan keyin operatsion stol yonida turib, bunday og'ir travmalardan keyin birinchi operatsiyasini bajaradi. Bu fojia N.A.Bogorazni qahramonlik oreoli bilan qopladi, "oyoqsiz jarroh" haqida badiiy filmlar yaratildi, ajoyib-g'aroyib rivoyatlar paydo bo'ldi. Ulardan biri: go'yoki u travmadan keyin oyoqlarini operatsiya qilishni o'zi boshqarib turgan emish. Bu, albatta rivoyatdan ko'ra, xalq mehri qorilgan "ertak"ka ko'proq o'xshaydi.

Xirurgiya bo'limining mudiri G.S.Budagov bunday hikoya qiladi, ular talabalik davrida Nikolay Alekseyevichning operatsiyalarini jonu-dildan kutishgan. Professor qo'llarini o'tirib yuvgan, steril xalat kiyg'izilgandan keyin uning ikki yonboshiga steril kiyimlar kiygan ikkita assisentlar kelishgan. U assisentlarning yelkalariga suyanib, ikki tomonga chayqalib, oyoqlarini oldinga tashlab-tashlab operatsion stolga asta-asta yaqinlashib kelgan. Bu ritual atrofdagilarga chuqur taassurot qoldirgan. Xonada bu paytda jim-jitlik hukm surgan, hamma o'z joyini egallagan va operatsiya boshlangan. Nikolay Alekseyevich ko'pincha tikka turib operatsiya qilgan, oyoqlarini ikki tomonga keng tashlab, qorni bilan yuqoriroq ko'tarilgan

stolga yondoshib operatsiya qilgan. Uning plastik operatsiyalarini kuzatish huzur bag'ishlardi. Uni bemorlar, farroshar, jarrohlari, shogirdlari bir xil sevardi.

Ulug' Vatan urushi yillarida Rostov-na Donudan N.A.Bogoraz boshqalar qatori Toshkent shahriga evakuatsiya qilingan, turmush haddan tashqari qiyinlashgan. Rostovda keng va yorug' ko'p xonali kvartiradan chiqib ketib, endi gospitalning o'zida bitta xonada yashashga to'g'ri kelgan. Yarim kechasi navbatchi vrach oyog'i amputatsiya bo'lgan bemorni ruhiy qo'llash zarur deb iltimos qilgan holatlar ham bo'lgan. Nikolay Alekseyevich kiyinib bir qo'li bilan tayoqqa, boshqasi bilan esa birovning qo'lidan ushlab borgan. Palatalar va koridorlar jimib qolgan: protezlarda ikki tomonga chayqalib, yoshi ulug' inson, mashhur jarroh o'tib borayotganini hamma sezgan. Baqirib chaqirayotgan bemorning yoniga o'tirgan, ko'z oynagini peshonasiga ko'tarib, uni bir koyib, bir hazil-mutoyiba bilan tinchlantirgan.

Toshkentda ko'p qiyinchiliklar bilan bir qatorda Bogorazning hayoti ko'plab esda qolarlik voqealarga ham boy bo'lgan. N.A.Bogorazning vrachlik faoliyatining 45 yillik yubileyi bo'lganda bemorlar birga o'tkazishni iltimos qilishgan. Bu "tadbir" navbatma-navbat har bir palatada kechqurunlari qariib 1 oy davom etgan.

Toshkentda N.A.Bogoraz xirurglar ilmiy jamiyatini boshqargan. 1943 yilda "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi" faxriy unvoni bilan taqdirlangan. U O'zbekiston Oliy Sovetni faxriy yorlig'iga sazovor bo'lgan.

II Moskva tibbiyot instituti pediatriya fakultetining xirurgiya kafedrasiga mudir bo'lib saylandi, hamda Moskvaga kafedrani boshqarish uchun qaytdi.

1944 yil Sovet hukumati uning erishgan yutuqlarini qadrlab, Lenin ordeni bilan taqdirladi.

Yillar o'tgan sari N.A.Bogoraz kuch-quvvatdan keta boshlaydi. 57 yoshida kafedrani B.V.Petrovskiyga topshiradi. Ikki hafta o'tmay unda miokard infarkti ro'y beradi, sog'lig'i to'liq tiklanishiga ulgurmay, chov churrasi qisilishi bilan operatsiya qilinadi, bir yarim oy o'tib ikkinchi tomondan chov churrasi qisilib qoladi. Oila a'zolarining iltimosi bilan operatsiyani B.V.Petrovskiy qiladi. Ikkinchi marta miokard infarktini Nikolay Alekseyevich Bogoraz ko'tara olmaydi va 1952 yilning 15-iyulida 79 yoshida olamdan o'tadi.

5.12. Lopatkin Nikolay Alekseyevich

Buyuk insonning buyuk solnomasi (40-rasm). Avvalo: atoqli Sovet va Rossiya urologi.



40-rasm. N.A. Lopatkin (1924-2013)

- 1924 yil: tavalludi;
- 1941 yil: Tez tibbiy yordam sanitari va feldsheri;
- 1947 yilda II-Moskva tibbiyot institutini tugatgan;
- 1947-1950 yillarda A.N. Bakulev rahbarlik qilayotgan kafedraning ordinatori;
- 1956-1962 yillar: Urologiya kafedrasining assistenti va dotsenti;

-1953 yil: nomzodlik dissertatsiyasi himoyasi; “Proniknoveniye penitsillina cherez plevralniye listki”;

-1959 yil: Tibbiyot fanlari doktori dissertatsiyasini himoyasi: “Pochechnaya angiografiya”;

- 1962 yil: Professor;

- 1968 yil: II-Moskva tibbiyot instituti urologiya va operativ nefrologiya kafedrası mudiri;

- 1968 yil: SSSR tibbiyot fanlari Akademiyasining korrespondent a'zosi;

- 1971 yil: SSSR tibbiyot fanlar Akademiyasining (hozirgi Rossiya fanlar Akademiyasi) haqiqiy a'zosi;

- 1979-2007 yillar. RSFSR (hozirgi Rossiya Federatsiyasi) Sog'liqni saqlash Vazirligining Urologiya ilmiy-tadqiqot instituti direktori;

Urologiya fani sohasidagi xizmatlari:

- buyraklar va ularning tomirlarining kasalliklarida angiografiya tekshirish usullari printsiplarini ishlab chiqish (1956);

- quyidagi kasalliklarda original jarrohlik usullarni qo'llash:

*patologik harakatchan buyrak (nefroptoz),

*siydik nayi displaziyasi,

*qovuq-siydik nayi anastomozlarining ba'zi variantlari,

*varikotsele,

*buyraklarda ekstrakorporal operatsiyalar,

*buyrak autotransplantatsiyasining original usuli.

SSSRda birinchi bo'lib, "Sun'iy buyrak" apparatini ishga tushiradi va gemodializ o'tkazadi (A.Ya.Pitel bilan hamkorlikda) (1958);

- murda buyragi transplantatsiyasi;

- buyrak venoz gipertenziyasining yangi davolash usullari;

- qovuq o'smalari, nurli va kuyish sistitlarida "Dibunol" dorisuni ishlab chiqish va urologiya amaliyotida qo'llash;

Tashkiliy va ijtimoiy faoliyati;

- SSSR da surunkali gemodializ bo'limlarini tashkil qilish;
- Moskvada Urologiya ilmiy-tekshirish institutining ochilishi;

- Moskva shahar soveti xalq deputati;
- KPSS XXVI va XXVII sezdalarining delegati;
- Xalqaro va Yevropa Urologlari jamiyati a'zosi;
- Vengriya va Chexslovakiya urologlari jamiyati a'zosi;
- GDP fanlar Akademiyasi faxriy a'zosi;
- "Urologiya va nefrologiya" jurnali bosh redaktori;
- "Yevropa urologiyasi" jurnali redkollegiyasi a'zosi;

Taqdirlanishlar:

- SSSR Davlat premiyasi - 2 marta (1971,1984);
- Sotsiyalistik mehnat qahramoni, Lenin ordeni, "Uroq va bolg'a" oltin medali (1978-yil 27-iyun);
- "Lenin" ordeni (2 marta);
- "Oktabr revolyutsiyasi" ordeni;
- "Mehnat qizil bayroq" ordeni;
- "Vatan oldidagi xizmatlari uchun" (III-darajali) Rossiya ordeni;

- "Xalqlar do'stligi" ordeni;

-medallar,

Umuman:

- Tibbiyot fanlari doktori (1959);

- professor (1964);
- Rossiya Federatsiyasida xizmat ko'rsagan fan arbobi;
- SSSR Davlat premiyasi laureati (1971,1984,1990);
- SSSR ministrlar soveti premiyasi (1981);

Dunyodan o'tgan san'asi: 2013-yil.

Kamina Sovet davri Urologiyasi buyuklarning eng buyugi Nikolay Alekseyevich Lopatkinni shaxsan tanirdim. SSSR urologlari ilmiy jamiyatining oxirgi IV se'zdida menga o'zining endigina chiqqan katta formatdagi "Urologiya" darsligini avtograf bilan tuhfa qilgandi. Doktorlik ishim himoyasi masalasida bu buyuk insonning menga qilgan buyuk xizmatini qayt etmasam, chiday olmayman. Nomzodlik dissertatsiyam bo'yicha ilmiy rahbarim prof. Omirov Rauf Yo'ldashevich meni qo'limdan ushlab Moskvaga, Urologiya ilmiy-tekshirish instituti direktori, akademik xonasiga yetaklab olib kirdi. O'zlari xirurg ekanliklari va shogirdi kamina urolog ekanligim tufayli urologiya mutaxassisligi bo'yicha menga ilmiy rahbarlik zaruriyati tug'ilganligini xolisona tushuntirdilar. Akademik darhol joni-dili bilan yordam berajagani, o'zlari ham Samarqandda bir necha bor bo'lganliklarini, o'zbek xalqining bag'rikengligi va mehmondo'stligini ko'tarinkilik bilan esladilar. Ilmiy rahbarlikni ilmiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari t.f.d., prof. Shabad Aleksandr Leonovichni

(eksperimental onkologiya fanining asoschisi, akademik Levon Manusovich Shabadning farzandi) tayinladilar. Keyinchalik himoya jarayonida ham otalarcha yordamlari tegdi. 1992 yilda Ittifoq tarqalgach, Rossiyada MDH (Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi) dan kelganlar uchun himoyalar to'lovli bo'lgandi. Menga ilmiy bo'lim va buxgalteriyadan 4700 so'm o'tkazish uchun qog'oz yozib berishdi. Samarqandga kelib bu mablag'ni izlay boshladim (o'zimizda kam qismigina bor ekan). O'sha davrdagi SamTI rektoriga uchrashgan edim" endi Ittifoq davlatlari tarqalib ketdi, Rossiya hisobiga bizdan pul o'tkazishga biron-bir grafa yo'q" - degan javobni oldim. Qarzga ham bu mablag'ni (o'sha davrdagi bitta "Jiguli" markali mashinaning narxi) topolmay, boshim qotib yurgandim, Moskvadan telefon bo'ldi; "Doktor gde vi xodite, akademik spetsialno dlya predstaviteley drugix respubliki dobilsya, chtobi oni zashitilis besplatno, srochno priyezjajte!". Moskvaga "uchib" desam mubolag'a bo'lar, uchoqda uchib bordim, tezda, himoya ham yaxshi o'tdi. Urologiya institutining mo'jazgina kafesida "banket" da Lopatkin "graduirovanniy" stakanda yarmi koka-kola, yarmi "Samarqand" konyagi, biz esa kichikroq ryumkachada bir qultum aroq bilan "yuvdik". Bir insonning bag'ri kengligi, mehr-shavqati, buyukligi bo'lsa, shuncha bo'lar. Bu eng buyuk inson haqida bir rivoyatona gapni aytmoqchiman.

Moskvada edim, ertalabki konferentsiyaga akademik kechikibroq, ancha-buncha darg'azab kirib keldilar, kechirim so'raganday bo'lib, "Buxoroda GAI xodimlari urologlarga chest beradi, bizda Moskvada akademiklarning pravasini oladi" – dedi va yig'ilishni boshladi.

O'zlaridan bu gapning sababini so'rash noqulay bo'ldiyu, nima bo'ldi- nima qo'ydi talabalarning paxta terimida bir qizimizning otasi – Buxoro tibbiyot instituti urologiya kursi mudiri, dots. Zikrillayev Ziyodullo aka qizidan xabar olishga bitta qo'y tandir kabobi bilan (qiziga va dugonalariga bir tuyur, domlalariga butun qolgani) kelib qoldi. Suhbat chog'ida o'sha gapni eslab qoldim. Do'stim Ziyodulla aka Lopatkinni Buxoroni tomosha qildirib olib yurganini, o'sha moshin Obkomning (hokimning) xizmat moshini ekanini, GAIIlar bizlarga emas, moshinaga chest berishganini" qiziq qilib aytib hangomaga oydinlik kiritdilar. Baxtli onlar edi u davr.

5.13. Muxtorov Odil Muxtorovich

Muxtorov O.M. (1928-1988) urolog, tibbiyot fanlari doktori (1970), prof. (1971) (41-rasm).

ToshTI fakultet xirurgiya klinikasining ordinatori (1949-1951), Andijon viloyati Marhamat va Jalaquduq tumanlari



41-rasm. O.M. Muxtorov (1928-1988)

kasalxonalarida urolog, bosh vrach (1951-1953), ToshTI normal anatomiyasi kafedrasining aspiranti, asistenti (1953-1963), O'zbekiston travmatologiya va ortopediya hamda teri-tanosil kasalliklari ilmiy-tadqiqot institutlari, Toshkent vrachlar malakasini oshirish instituti, ToshTI urologiya kafedrasida katta ilmiy hodim, asistent (1964-1970), ToshTI

urologiya kafedrasida professori (1971-1972). 1972 yildan Toshkent vrachlar malakasini oshirish instituti urologiya kafedrasida mudiri. UzSSR sog'liqni saqlash vazirligining bosh urologi (1972), O'zbekiston urologlar ilmiy jamiyati raisi (1971).

O'zbekiston urologiyasining rivojlanishida hamda mutaxassis urologlarni tayyorlashda o'zining katta hissasini qo'shgan olim. U 1971-1988 yillari Toshkent vrachlar malakasini oshirish institutining urologiya kafedrasini boshqargan. O.M.Muxtorovning tasabbusi bilan Respublika viloyatlarida vrachlar malakasini oshirishning joylardagi sikllari

tashkillashtirilgan, Toshkent shahrida urologik tez tibbiy yordam brigadalari yaratilgan, viloyatlarda tumanlararo urologik bo'limlar ochilgan. O.M.Muxtorov "O'zbekiston tibbiyot jumali", "Fan va turmush" jumallarining hamda "O'zbekiston tibbiyot ensiklopediyasi" tahririyatlari kengashlarining a'zosi bo'lgan. Fan sohasidagi yutuqlari uchun "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi" unvoni bilan taqdirlangan. O.M.Muxtorov turli urologik muammolar bo'yicha bir qator monografiya, uslubiy qo'llanmalar chop etgan hamda A.Ya.Pitel va N.A.Lopatkin tomonidan chop etilgan "Urologiya" darsligini va A.L.Shabad muallifligida tuzilgan o'quv qo'llanmani ruschadan o'zbek tiliga o'giran.

O'zbekiston urolog olimlari I.P.Pogorelko, T.N.Pozdnyakova, D.L.Arustamov, M.M.Mirsamatov, A.A.G'aybullayev, F.A.Akilov va boshqalar silsilasida tibbiyot fanlari doktori, professor Muxtorov Odil Muxtorovichning alohida o'rni bor.

Bu buyuk insonning tavalludiga 80 yillik xotira yubiley o'tkazilayotganini eshitib, rahmatlik bilan Farg'onada 1981 yil sentabrda uchrashganimizni esladim va quyidagi kamtarin xotira satrlarini bitishdan o'zimni tiya olmadim.

O'shanda O'zbekiston urologlarining II-ilmiy konferensiyasi bo'lib o'tayotgan edi. Boshqa barcha urologlar qatori biz

Samarqandliklar ham katta ko'tarinkilik bilan Farg'ona shahriga yetib keldik. Bag'ri kengligini qarangki, bizlar bilan alohida uchrashib, hol-ahvol so'rashib, "nega kamchiliksizlar" deb so'radilar. Chunki konferensiyadan 1-2 yil oldin Samarqandda bo'lib, ko'p yaxshi maslahatlar bergandilar, jumladan troakar sistostomiya usulini ko'rsatib, bu haqdagi kitoblarini ham sovg'a qilgandilar.

Bu chehrasi ochiq, rangi tiniq, bet tuzulishi proporsional, chiroyli, sochlari qop-qora, jingalak to'lqinli, bo'ylari sal pastroq bo'lsa-da, miqti, kelishgan, kiyimi o'ziga yarashgan inson, ochig'ini aytsak hammamizning havasimizni keltirgan edi.

Konferensiyani o'zlari juda faol, qiziq va yuqori saviyada olib bordilar. Ma'ruzalarimizga diqqat bilan quloq solib, otalarcha maslahat berdilar. Banketni ham o'tkazib rasmlarga tushib (42-rasm) ko'tarinki ruh bulan qaytib keldik.

Shaxsan men o'zim o'shanda yosh edim, negadir keyin hech uchrasha olmadik.

Buni qarangki, 1988 yilning o'zida "O'zbekiston tibbiyot jumali" ning birinchi sonida 60 yillik yubiley tabrigini o'qib qanchalik xursand bo'lgan bo'lsak, beshinchi sonida Odil Muxtorovichning bevaqt vafoti haqidagi nekrologni o'qib shunchalik azob tortdik, yuraklarimiz qon bo'ldi!



42-rasm. O'zbekiston urologlari II konferentsiyasi bir guruh ishtirokchilari.
Chapdan: birinchi assistent (hozir professor) Allazov S.A.,
uchinchi professor Muxtorov O.M.

Tarix shuning uchun ham tarix ekanki, yaxshi insonlar xalqqa hamma yaxshiliklarini bari bir qilib ulgura olmas ekan.

Har holda hayot hammani o'z o'miga qo'yar ekan. Mana hozir biz navbatdagi bo'g'in, avlod urologlari Odil Muxtorovichning ko'plab foydali asarlarini mutolaa qilib, maslahatlarini eslab, minnatdorchilik bilan saboq olishni davom ettirib kelmoqdamiz.

Ming afsuski bu keng qamrovli olim, ulug' inson hayotdan tez ko'z yumdi. Bo'lmasa, O'zbekiston urologiyasi ehtimol boshqacharoq, halqchilroq yo'ldan taraqqiy etarmidi.

5.14. Shabad Aleksandr Leonovich

Aleksandr Leonovich Shabad 1932 yil 25-yanvarda Leningrad (hozirgi Sankt-Peterburg) shaxrida vrachlar oilasida dunyoga keldi (43-rasm). Uning otasi Shabad Leon Manusovich SSSR fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi, eksperimental onkologiya fanining asoschisi edi. Keyinchalik prof. Shabad A.L. shu yo'nalishda jinsiy olat kertmagi smegmasining rak chaqirishi bo'yicha nomzodlik dissertatsiyasini bajargan.



43-rasm. A.L. Shabad (1932-1995)

Onasi Tat'yana Abramovna Shtessel ham olimi toksikologiya bo'yicha professor bo'lgan. Alikning (uni yaqinlari shunday chaqirardi) 9 yashlarida ulug' vatan urushi boshlanib, shu bilan bolaligi o'smirligi tugadi, bir yildan ko'p Leningrad qamali sharoitida, keyinchalik Tomsk shahrida evakuatsiyada yashab, harbiy davr azob-uqubatlarini boshidan o'tkazdi.

1949 yili u maktabni "Oltin medal" bilan tugallagach I.M.Sechenov nomida 1-Moskva tibbiyot institutiga kiradi. Bu davrda u nafaqat o'qishga, balki juda qiziqqan shariatga ham vaqt topa biladi. Buning isboti bo'lib A.L.Shabad yaratgan I.M.Sechenov nomida 1 MTI madhiyasidir. Madhiyani erkin tarjima qilib, uning ohangini o'zgartirib qo'yishdan hayiqib rus tilida, aslicha keltirmoqchimiz:...

Smelie s proverennimi nervami,

Vsem smertyam, boleznyam vopreki,

V meditsine vsyudu budut pervimi

1-go MOLGMI vipuskniki.

Skoro jizn svoi otkroyet dveri nam,

Vperedi doroga nam kruta.

Vstretyat nas s lyubovyu i doveriyem

Klinika, bolnitsi, roddoma.

Bo'lg'usida doktorlik dissertatsiyasi bo'yicha ilmiy rahbarim madhiyasidan ruhlanib, kamina ham Samarqand tibbiyot universitetining Madhiyasini yozishga jur'at qildik:

*Ona dargoh salobating katta bir qasr!
Tilagimiz umring bo'lsin necha bir asr!
Shogirdlaring qahramon, akademiklar.
Madhiyamiz sengadir, adog'siz bu nasr.*

*Naqorat: Sen haqingda kuylashga qurbim yetmaydi,
Sendan qarzim uzishga umrim yetmaydi!*

*Tiniq bir buloqdek qaynaysan tinmay!
Aytchi, osonmikin bir buloq bo'lmoq!
Shogirdlar tashnaligin qondirmoq uchun
Toshni o'yib chiqqansan bo'lib sen buloq!*

*Naqorat: Sen haqingda kuylashga qurbim yetmaydi,
Sendan qarzim uzishga umrim yetmaydi!*

*Sharaflaymiz seni ey, aziz tahsilgoh,
Bergan tarbiyangdan rozi bo'l endi!
O'tayotir umrlarning bahori-qishi,
O'gil-kizing bir bo'lib dardlarni yengdi.*

*Naqorat: Sen haqingda kuylashga qurbim yetmaydi,
Sendan qarzim uzishga umrim yetmaydi!*

*Tibbiyot maskani bu, ta'lim maskani!
Bundan-da buyuk maskan dunyoda qani!
SamTUmiz obod va mashhur buldiyu,
Ulug'landi xakim-u olimlar nomi!*

*Naqorat: Sen haqingda kuylashga qurbim yetmaydi,
Sendan qarzim uzishga umrim yetmaydi!*

I.M.Sechenov nomidagi 1-MTIning tugatgach bu har tomonlama qobiliyati buyuk insonning hayot solnomasi quyidagicha shakllanadi:

1955-1957 yillar: klinik ordinatura (I.M.Sechenov nomidagi 1-MTI);

1959-1964 yillar: Moskva, S.P.Botkin shifoxonasida, prof.A.P.Frumkin qo'li ostida. Bu davrda 1963 yilda yuqorida eslatganimiz "Jinsiy olat saratoni" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qiladi.

1964-1967 yillar: N.I.Pirogov nomidagi 2-Moskva davlat tibbiyot instituti urologiya kafedrasida. Bu yerda 1973 yilda "Buyrak sili patogenezi va diagnostikasi" mavzusida doktorlik dissertatsiyasini yoqlaydi.

1967 yildan umrining oxirigacha A.L.Shabad Akademik N.A.Lopatkin boshchiligida faoliyat ko'rsatadi.

Prof. Shabad A.L.ning buyukligi quyidagi jabhalarda ko'zga tashlanadi:


- 20 tadan ziyot monografiyalar muallifi;
- 200 tadan ziyot ilmiy maqolalar chop yetgan;
- O'quv darsliklari bilan nafaqat oliygohlarda vrachlar tayyorlashda, balki kichik va o'rta tibbiyot hodimlarini ham tarbiyalashda ulkan xizmatlari ma'lum. Shunday darsliklaridan biri ("Urologiyadan o'quv qo'llanma" va "Manual de Urologia") o'zbek va ispan tillariga tarjima qilingan;
- Urologiya sohasi kadrlarini tayyorlashda (O'zbekiston, Qozog'iston, Moldoviya, Mordoviya, Ural mintaqasida) jonbozlik ko'rsatgan;
- 1979 yildan RF SSV urologiya ilmiy-tadqiqot instituti direktor o'rinbosari;
- 1982 yil. "Urologiya" darsligi uchun boshqa mualliflar qatori Sovet ittifoqi davlat premiyasi sovrindori;
- 1982 yildan - Sovet ittifoqi jurnalistlar soyuzining, "Literaturnaya gazeta"ning redkollegiya a'zosi;
- 1967-1995 yillar: "Urologiya i nefrologiya" (hozir "Urologiya") jurnalining ma'sul kotibi.

Uning rahbarligida 22 ta nomzodlik, 4 ta doktorlik dissertatsiyalari himoya qilingan.

Uni tanigan - bilganlar “O‘tkir qalamli” (“Ostroye pero”) olim va ijodkor deya baholashardi.

5.15. Arustamov Dmitriy Lvovich

D.L.Arustamov 1943 yilda tug‘ilgan (44-rasm). 250 dan ortiq ilmiy ishlar, 2 ta monografiya, 3 ta ilmiy jamlanma, 7 ta metodik tavsiya, 9 ta ilmiy kashfiyot muallifi. Bu ilmiy ishlar, asosan, a'zolar transplantologiyasi, siydik-tosh kasalligining



44-rasm. D.L. Arustamov (1943 yilda tug‘ilgan)

diagnostikasi va uni davolash, uroonkologiya va andrologiya masalalariga bag'ishlangan. D.L.Arustamov 9 ta tibbiyot fanlari doktori va 45 ta tibbiyot fanlari nomzodlarini yetishtirib chiqargan.

U O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash sohasida xizmat ko'rsatgan xodim, Abu Rayhon Beruniy mukofoti hamda "Xalqlar do'stligi" ordeni sohibi. Kafedraga rahbarlik qilish bilan bir vaqtda u Respublika ixtisoslashtirilgan urologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi direktori, Respublika urologlar ilmiy jamiyatining raisi va "Urologiya va nefrologiyaning dolzarb masalalari" ilmiy jamlanmasi muharriri lavozimida ishlab kelgan.

D.L.Arustamov rahbarligida ilk bor 1991 yilda Urologiya ilmiy markazi tashkillashtirilgan. Respublikamizning viloyatlaridagi, jumladan, Samarqand, Buxoro, Urganch, Andijon Tibbiyot institutlarida ham urologiya kurslari tashkil etilgan. Zabardast urolog olim, professor.

Zarafshon vodiysi, Samarqand zaminidan yetishib chiqqan ko'plab olimu fuzalolar nafaqat Respublikamizning, balki xorijiy davlatlarda ham o'z xalqining, yurtining sharafini, dovrug'ini taratib kelmoqdalar. O'zbekistonda urologiya xizmati tarixi o'tmishda buyuk alloma bobomiz Abu Ali Ibn Sinodan boshlangan bo'lsa, hozirda adolat yuzasidan aytadigan bo'lsak,

yurtdoshimiz professor Arustamov Dmitriy Lvovichga kelib taqaladi.

Kamtarin, kamgap, shu bilan birga qattiq qo'l, talabchan, butun dunyo urologiyasi taraqqiyotidan xabardor inson. Uning 60 yillik to'yini nishonlash arafasida tarjimayi holi va mehnat daftarchasida (o'zlaridan so'rab o'tirmadik, chunki "qo'ysanglarchi, boshqa ishlarning yo'qmi?" kabi rad javobini olishimizni aniq bilardik), juda qisqa, lekin mazmun-mohiyati jihatidan olam-olam ma'no qamralgan shiddatli hayot haqidagi ma'lumotlarga ega bo'ldik.

- Tug'ilgan sanasi: 1943 yil 29-aprel.
- Tug'ilgan joyi; Samarqand shahri.
- Ma'lumoti: Samarqand davlat tibbiyot instituti (1959-1966), vrach, nomzodlik dissertatsiyasi (1967), doktorlik dissertatsiyasi himoyasi (1972), urologiya va operativ nefrologiya kafedrası professori (1981).
- Til bilishi; ruscha (erkin), inglizcha (qoniqarli).
- Kompyuter bo'yicha malakali: kompyuter bilan umumiy ish ko'nikmalari LEKSIKON, VORD.
- Asosiy mutaxassisligi: vrach urolog.
- Mutaxassislik bo'yicha ish tajribasi: 35 yildan ko'p.
- Professional tajribasi: II ToshTI urologiya kafedrası mudiri, O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash vazirligi

urologiya ilmiy markazi direktori; Respublikamiz miqyosida olib borilayotgan urologiyaga taalluqli 3 ta ilmiy yo'nalish rahbari, hozirgi paytda Moskva shahrida faoliyat yuritmoqda.

- Ilmiy mahsuloti: 3 ta monografiya, 54 ta jurnallarda va 187 ta konferensiya va s'ezdlar to'plamlarida chop etilgan maqolalar.

Dmitriy Lvovichni bilgan Samarqandliklar 70-80 yillarda talabalik yillaridayoq ilmiy ish bajarish, institutni tugatar-tugatmas nomzodlar dissertatsiyasini, yana 4 yil o'tar—o'tmas, doktorlik dissertatsiyasini himoya qila olgan bu “vunderkind” bilan faxrlangan bo'lsalar, hozirgi paytlarda esa Samarqandda tug'ilib, ulg'ayib, respublika urologiya ilmiy markazining direktori darajasiga yetib borgan, butun dunyo olimlari tanigan, tan olgan olim-professor Arustamov Dmitriy Lvovich bilan haqli ravishda g'ururlanadilar.

Darvoqe, o'zim guvoh bo'lgan bir voqea: 1990 yil Moskvada Urologiya instituti direktori Akademik Lopatkin Nikolay Alekseyevich xonasida ilmiy ishlar yuzasidan suhbat qilib o'tirganimizda uning o'rinbosari, mening ilmiy rahbarim marhum (joylari jannatda bo'lsin) professor Shabad Aleksandr Leonovich kirib qoldilar. U kishi kechagina Toshkentdan qaysi bir himoyada opponetlik qilib qaytgan ekan. Akademik Lopatkinga butun bir hayajon bilan “Nikolay Alekseyevich

znayete, Tashkentsi, Arustamov davno nas operedili!” - deb aytgan gapi hali-hali esimda.

Moskva, demakki, butun dunyoni qoyil qoldirish uchun professor D.L.Arustomovga nafaqat o'z ustida ishlash, nafaqat o'zi boshliq jamoani oldinga yo'naltirish, yuksaklarga ko'tarish balki eng ilg'or urologiya markazlari sharq-u g'arb urolog olimlari bilan muloqotda bo'lib ularning tajribalarini, eng yangi texnologiyalarini, asbob-uskunalarni Toshkentga “tashib” kelish zarur bo'ldi va bu ulkan yumushni hali Ittifoq davridayoq qoyillatib uddaladi.

Poytaxtimizdagi bitta “Urologiya markazi” majmuasi, uning imoratini aytmayizmi! Bu imorat, bu inshoot rus shoiri tili bilan aytganda Dmitriy Lvovich uchun “qo'l bilan tiklab bo'lmas haykaldir”. Har safar bu ilm o'chog'i urologiya fanining barcha zamonaviy yutuqlari yetib kelgan markazda bo'lganimizda, ustozning o'zlari bilan soatlab suhbatlar qurganimizda olam-olam ta'assurotlar, yangi-yangi bilimlar sohibi bo'lganimizdan, tajribamiz yanada oshganini o'zimiz ham sezmay qolgan ekanmiz, vallohi a'lam!

Respublikamizda urologiya xizmatini takomillashtirishga ta'alluqli 555-buyruqqa sababchi bo'lib, urologiya sohasida o'sha 80 yillardayoq amalga oshirilgan islohotlar (barcha institutlarda urologiya kursi va kafedralari tashkil qilinishi,

urologiyadan subordinatura, klinik ordinatura, aspirantura ochilishi, tuman poliklinikalarida, shifoxonalarida vrach-urolog stavkalari ajratilishi va h.k.) muallifi ham professor D.L.Arustamovdir. O'zbekiston urologlarining "siydik-tosh kasalligi va prostata bezi xavfsiz giperplaziyasi" ga bag'ishlangan oxirgi 2 ta s'ezdlarning eng zamonaviy ruhda va dunyo miqyosida yuqori darajada o'tishi ham qadrli ustozimiz, mislsiz tashkilotchi Dmitriy Lvovich tufayli ro'y berdi. Professor D.L.Arustamovning shogirdlari, oddiy vrach-urologdan tortib, vazir va vazir o'rinbosarlarigacha bo'lgan yuqori mavqelarda xalq xizmatida (45-rasm).



45-rasm. Prof. D.L. Arustamov shogirdlari davrasida. Oldingi qatorda o'ngdan ikkinchi - prof. S.A.Allazov, uchinchi - prof. D.L.Arustamov

Aslida har birimiz o'zimizni bir ozgina bo'lsa-da urolog deb his qilib yurgan bo'lsak bu ham, sirasini aytganda shu zahmatkash insonning bag'ri kengligi natijasidir.

XOTIMA

Mamlakatimizda ilm-fan taraqqiyotini yanada takomillashtirish, jahon miqyosida birinchilar qatorida bo'lish dolzarb masalalardan biridir.

Bugungi kunda Oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari ta'lim sohasida tibbiy biologik fanlarni o'qitish, ta'lim-tarbiya, o'zlashtirilgan bilimlar darajasini zamonaviy pedagogik texnologiyalarga suyangan holda tashkil qilish, baholash, tibbiy biologik fanlar bo'yicha yangi o'quv dasturlarini yaratish muhim muammolardan biridir. SHu o'rinda aytish kerakki, ta'lim-tarbiya tizimini ishlab chiqishda uzluksizlik, yaxlitlik va bog'liqlikni ta'minlovchi «bosqichli ta'lim» kontsepsiyasi tavsiya etildi. Kontsepsiya negizida maktabgacha ta'lim sohasida o'zlashtirilgan elementar ta'lim-tarbiyadan to madaniyatlilik darajasigacha bo'lgan jarayon qamrab olinadi. Bu jarayon tarbiyalanuvchilarga tayyorgarlik, tafakkur, fikrga egalik, ong va madaniyatlilik kabi sifatlarni yetkazishni talab qiladi.

Urologik fanlar sohasida zamonaviy texnologiyalar, axborot-kompyuter texnologiyalari (AKT)ning roli beqiyosdir.

Oliy ta'lim tizimida AKT ning qo'llanilishi, O'zbekiston Respublikasidagi barcha ta'lim muassasalari AKT bilan ta'minlanganlik holati tahlili, shuningdek urologik fanlarni o'qitishda AKTni samaradorligi muhimdir.

AKTni ilmiy izlanishlarga tadbiq etishning muammolari va urologiyada uni yanada takomillashtirishni taqoza etadi.

Yuqoridagilardan xulosa qilib, shuni aytish mumkinki, masofaviy ta'lim kompleksini ta'lim muassasalariga joriy etilishi har tomonlama foyda keltiradi. Oliy ta'lim tizimida bu kompleksni joriy qilish uchun barcha shart-sharoitlar mavjud.

Respublika miqyosidagi barcha Oliy ta'lim muassasalari ilmiy tekshirish institutlari kompyuter, axborot va kommunikatsiya texnologiyalari bilan yaxshi ta'minlangan. Ularning barchasi Internet tarmog'iga ulanganlar. Ushbu texnologiyalarni ilmiy izlanishlarga keng joriy etish ko'p muammolarni o'z paytida hal etishga yordam beradi.

Urologiya sohasida ilmiy izlanishlar metodologiyasi va etikasini takomillashtirish bo'yicha quyidagi chora-tadbirlar ishlab chiqilib amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

1. Kompyuter va telekommunikatsiya infratuzilmani rivojlantirish sohasida ilmiy tekshirish muassasalarining va birlashgan korporativ tarmoqni loyihalashtirish, qurish, xizmat ko'rsatish uchun bajaruvchi organlarni yanada takomillashtirish. Kompyuter texnikasi va Internetdan samarali foydalanishni oshirishda barcha bo'linmalarning mas'uliyatini oshirish.

2. Litsenziyalangan dastur ta'minotini xarid qilish. Multime-diya va boshqa dastur mahsulot turlarini, elektron ma'lumotlar

bazasini, Web-saytni, skopius va boshq. izlanuvchilar faoliyatida elektron ko'inishi, uslubiy qo'llanmalarni ishlab chiqish ishlarni yo'lga qo'yish.

3. Oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tekshirish institutlari orasida eng yaxshi ishlab chiqilgan dasturlar va proektlar bo'yicha tanlovlar o'tkazish, yosh olimlar, magistrlar va izlanuvchilarning kompyuter savodhonligini oshirish.

4. Tashkiliy jarayonda ilmiy rejalarni shakllantirishda kadrlarga ehtiyoj bo'lgan tashkilotlarga yordam berish, shuningdek uslubiy-texnik bazani mustahkamlashda amaliy qo'llab-quvvatlash.

5. Ilmiy-tadqiqot sohalarini moliyalashtirish, axborot texnologiyalar bilimiga ega bo'lgan xodimlar va ilmiy-izlanuvchilarni moddiy rag'batlantirish mexanizmini ishlab chiqish.

Ushbu takliflarni amalga oshirish quyidagilarga erishishga imkon beradi:

1. Urologiya fanini o'rganish, ilmiy izlanuvchilarda zaruriy ilmiy ko'nikmalar ishlab chiqish, mobil ishlash ko'nikmasini hayot tarziga aylantirish, ta'lim sub'ekti sifatida ularni faollashtirish, telekommunikatsiya vositalari yordamida uzoqdagi manbalardan ham foydalanish mamlakatimizda bu fan sohasida olib borilayotgan ilmiy izlanishlarni jonlantiradi, yangi yutuqlarga imkon yaratadi

2. Dastur bilan muloqotli ravishda ilm olish izlanuvchida urologiya faniga qiziqishini oshiradi;

3. Axborot texnologiyalaridan foydalanish ilmiy izlanish jarayonini jadallashtiradi.

4. Urologiya fani bo'yicha ilmiy izlanish jarayonida kompyuter dasturlari (Microsoft Word, Microsoft Access, Excel, Microsoft Power Point), skopius va boshqalardan foydalanish imkoniyati yuzaga keladi;

5. Fanga oid bilimlarni rivojlantirish, Respublikamiz sharoitidan kelib chiqib urologiyada ilmiy muammolarni hal qilish aholi orasida keng tarqalgan kasalliklarning oldini olish va davolash jarayonining xalqaro yuksak darajalarga ko'tarilishiga zamin yaratadi.

6. Urologiya ilm-fani taraqqiyotiga buyuk xizmatlari o'tgan siymolar haqida ma'lumotlar tayyorlab keng ommaga yetkazib turish yosh olim va izlanuvchilarning dunyoqarashini kengaytiradi, yangi yuksak ilmiy cho'qqilar sari chorlaydi.

ADABIYOTLAR

1. Allazov S.A. Avtorskoe pravo i prioritetnost v prikladnix naukax, biologii i meditsine. Prob. biol. i med., 2017; 3 (96): 181-186.
2. Allazov S.A. Lagoxilus v urologii. Samarkand, 2021; 216 s.
3. Allazov S.A. Samarqand urologiyasi. Samarqand, 2009; 64 b.
4. Allazov S.A. Urologiya. Darslik. Samarqand, 2008; 132 b.
5. Allazov S.A. Urologiyada ilmiy izlanish metodologiyasi va etikasi. O'quv qo'llanmasi. Samarqand, 2020; 50 b.
6. Anderson S.M., Helberg S.B. Chart-based, case-based learning. S.D. Med., 2009; 60(10): 391.
7. Ayupov O. (tuzuvchi). Dunyo. Siyosat. Jamiyat. 6-nashri. Guliston, 2015; 224 b.
8. Berliner B.I. Ocherk istorii i razvitiya xirurgicheskoy pomosci naseleniyu Uzbekskoy SSR. Tashkent: Gosizdat UzSSR, 1956; 92 s.
9. Bezuidenhout J., Wasserman E., Mansvelt E., Meyer C., van Zyt G., Orth H., Els A. Clinical rotation in pathology: Description of a case based approach. J.Clin. Pathol., 2006; 59(4):355-359.
10. Blewett E.L., Kisamore J.L. Evaluation of an interactive, case-based review session in teaching medical microbiology.

11. BME. Velyaminov N.A. (1855-1920). Izd. 3., T. 4, M., 1976; 103.
12. Bregg Pol, Bregg Patriitsiya. Urologiya xastalıkları va davolanish choralari. Nashrga Oqilov SH. tayyorlagan. Toshkent: Sano-Standart, 2015; 128 b. (Allazov S. Urologiya. Darslik. Samarqand. 2008; 132 b. kitobidan 100% ko'chirilgan plagiat).
13. BSE, II izd. 44 tom, M., 1956; s.247. Uolles Alfred Rassel (1823-1913).
14. BSE. 3-izdaniya, 21 tom. M., 1975; 211. Puankare jyul Anri. (1854-1912).
15. BSE. Izd. Trete, 18 tom, 1974; 164-166. Nyuton Isaak (1643-1727).
16. Chuxrienko D.P., Lyulko A.V. Atlas operatsiy na organax mochepolovoy sistemy. M.: Medizdat, 1972; 376 s
17. Darvinizm. BSE, III izd. 7 tom, M., 1956; S.550-551.
18. Diagnosticheskie i lechebnye standarty v ekstrennoy urologii. Pod red. prof. Allazova S.A. Izd. 2-oe dopolnennoe. Samarkand, 2015; 37 s.
19. Dombrovskiy V., Shimulyan A. Jizn Franklina. Leningrad: Detsk. lit., 973; 176 s.
20. Efimov E. N. Nauchnoe otkrytie i ego pravovaya ohrana. M., 1971.

21. Efimov E. N. Otkrytiya, izobreneniya i ratsionalizatorskie predlozheniya pod ohranoy zakona. M., 1976.
22. Entwistle N. Teaching for Understanding at University. Deep approaches and distinctive ways of thinking. Basingstoke: Palgrave Macmillan, 2009.
23. Fedorov S.P. Xirurgicheskoe lechenie gipertrofiya predstatelnoy jelezы. Xirurgiya, 1909; 25-67.
24. Gaybullaev A.A., Kariev S.S. Sostoyanie i perspektivy razvitiya urologicheskoy pomoshchi v Respublike Uzbekistan. Infeksii mochevogo trakta. Materialy III s'ezda urologov Respubliki Uzbekistan. Tashkent, 2007.
25. Gribyan A. M. Avtorskoe pravo na proizvodenie nauki. Erevan, 1975.
26. Harvard Business School. Available from, 2011.
27. Ilek F., Kuba I., Ilkova YA. Mirovie izobreneniya v datax: Xronologicheskii obzor znamenatelnykh sobytiy iz istorii izobreneniya v oblasti texniki. Tashkent. Uzbekistan, 1982; 271s.
28. Ishmuxamedov R., Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. Toshkent: 2013; 278 b.
29. Ivich A. Priklyucheniya izobreteniy. M. «Molodaya gvardiya», 1966.

30. Jumanazar Beknazar. Buyuk Sino. Toshkent: Yangi avlod, 2020; 368 b.
31. Kadirov A.A. Istoriya meditsini Uzbekistana. Tashkent, 1994. -233 s.
32. Kapto A.A. Annali urologii ot 5000 goda do n.e. do 2014 goda. M.: Poligraf-Inform, 2014; 544 s.
33. Kechikmoq – boy bermoqdir. O‘zJOKU rektori, siyosatshunos olim Sherzodxon Qudratxo‘jaev bilan •Sobirjon Yoqubov suhbat. Tafakkur. 2020; 3: 4-15.
34. Konyushko D.P. (sostavitel). Sbornik ofitsialnykh materialov po oformleniyu otkrytiy, izobreteniy i ratsionalizatorskix predlozeniy v meditsine M.: «Meditsina», 1979; 472 s.
35. Lebin B.D., Rassudovskiy V.A., Sinkin G.A. Nauchniy rabotnik (prava i obyazannosti). Izd.vtoroe. L.: «Nauka», 1982; 236 s.
36. Lopatkin N.A. Urologiya. Uchebnik. Moskva, 2013; 816 s.
37. Lutfullaev M.X. Masofadan o‘qitish tizimida multimediali elektron darsliklar strukturasi. Masofadan o‘qitish texnika va texnologiyasi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi ma’ruzalar to‘plami. Toshkent, 2002.
38. Mamiofa I. E. Oxrana izobreteniy i texnicheskiy progress. M., 1974; 200 s.

39. Muxtarov Sh.T., Akilov F.A., Mirxamidov D.X. Istoriya urologii Uzbekistana. Tashkent, 2023; 181 s.
40. Nikitin G.D., Agafanov N.A., N.A. Velyaminov, P.K. Dyakonov, N.V. Sklifosovskiy. Osnovateli xirurgicheskix jurnalov v Rossii. Xirurgiya, 1972; 149-152.
41. O'zbek tilining izohli lug'ati. Birinchi jild. Toshkent: "O'zbekiston nashriyoti", 2020; 680 b.
42. Operativnaya urologiya. Pod. Red. N.A. Lopatkina i Shevsova. L.: Medizdat, 1986; 480 s.
43. Orlov V. Traktat o vdoxnovene, rojdayushem velikie izobreteniya. M:«Znanie», 1964.
44. Pomeransev A.A. Adenoma (gipertrofiya) predstatelnoy jelezы. Mnogotomnoe rukovodstvo po xirurgii. Tom IX. Xirurgiya mochevыx i polovыx organov i zabryushinnogo prostranstva. Pod. Red. A.YA. Pytelya M.: Medgiz, 1959; 421-439.
45. Popjay J, Baldwin S, Arai L, Britten N, Petticrew M, Rodgers M, Sowden A. Methods Briefing 22. Narrative synthesis in systematic reviews, 2011.
46. Praxov B. G., Zenkin N.M. Spravochnoe posobie po izobretatelstvu, ratsionalizatsii i patentnomu delu. Kiev, 1977.
47. Pushkar D.Yu. Urologiya. Uchebnik. Moskva, 2017;472 s.

48. Qobul Nurali. Tavqi la'nat tamg'asi yohud Trumendan Trampu Tarikidan Turkmanboshigacha. Roman – panflet. Toshkent, 2019; 352 b.
49. Qodirov Keldi. Sel: Qissalar. Toshkent, 1982; 304 b.
50. Rajabov B. G'oya – taraqqiyotga doya. Tafakkur, 2020; 3: 16-19.
51. Rassudovskiy V.A. Pravo i nauchno-texnicheskoe tvorchestvo. M., 1975.
52. Riyozat chekmaguncha. Professor Abdulla A'zam bilan suhbat. Tafakkur, 2013; 4: 4-11.
53. Ryasensev V.A., Zenkin N. M. Prava izobretateley i ratsionalizatorov. M., 1977.
54. Skripko V.R. Ispolzovanie izobreteniy i ratsionalizatorskix predlojeniy: pravovye voprosy. M., 1978.
55. Smorodinskiy Ya.A. Eynshteyn Albert. Bolshaya sovetskaya ensiklopediya. Trete izdaniya. 29 tom. M., 1978; 578-579.
56. Soyfer V. G. Trud rabotnikov nauki: pravovie voprosy. M., 1981.
57. Staxeev L. E. Osobennosti pravovogo regulirovaniya truda nauchnykh rabotnikov vuzov. Avtoref. kand. dis. L., 1972.

Ilmiy nashr

Allazov Saloh Allazovich

ILMIY UROLOGIYA

Monografiya

Muharrir:

Hafiza Aslanova

Musahhih:

Zavqiy Meliyev

Sahifalovchi:

Qobiljon Djurayev

“FAN BULOG’I” nashriyoti.

Samarqand shahri, S.Buxoriy ko’chasi, 1^a-11 uy.

Nashriyoti litsenziyasi: №4341-5160-642c-944b-ab74-5062-3969

Bosishga 16.02.2023 yilda ruxsat etildi.

Qog’oz bichimi 60x84_{1/32}. Ofset bosma usulda.

Nashr bosma tabog’i 6.25.

Adadi 100 nusxa. Buyurtma raqami № 08/23

ISBN: 978-9943-9263-0-1



SALOH ALLAZOV - tibbiyot fanlari doktori, Samarqand Davlat tibbiyot universiteti professori, "Turon" Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi. 2 ta darslik, 5 ta o'quv qo'llanma, 7 ta monografiya, 368 ta ilmiy maqolalar, 370 ta tezislar, 29 ta uslubiy qo'llanmalar, 63 ta ratsionalizatorlik takliflar, 111 ta gazeta maqolalari muallifi. 28 ta ilmiy ishlar to'plamlarining muharriri.

Spetsializatsiyasi: urologiya. 1999 yildan Samarqand viloyati urologlar ilmiy jamiyatining raisi va O'zbekiston urologlari ilmiy jamiyati boshqaruvi a'zosi.



SALOH ALLAZOV - tibbiyot fanlari doktori, Samarqand Davlat tibbiyot universiteti professori, "Turon" Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi. 2 ta darslik, 5 ta o'quv qo'llanma, 7 ta monografiya, 368 ta ilmiy maqolalar, 370 ta tezislar, 29 ta uslubiy qo'llanmalar, 63 ta ratsionalizatorlik takliflar, 111 ta gazeta maqolalari muallifi. 28 ta ilmiy ishlar to'plamlarining muharriri.

Mutaxassisligi: urologiya. 1999 yildan Samarqand viloyati urologlar ilmiy jamiyatining raisi va O'zbekiston urologlari ilmiy jamiyati boshqaruvi a'zosi.



SALOH ALLAZOV – tibbiyot fanlari doktori, Samarqand Davlat tibbiyot universiteti professori, "Turon" Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi. 2 ta darslik, 5 ta o'quv qo'llanma, 7 ta monografiya, 368 ta ilmiy maqolalar, 370 ta tezislar, 29 ta uslubiy qo'llanmalar, 63 ta ratsionalizatorlik takliflar, 111 ta gazeta maqolalari muallifi. 28 ta ilmiy ishlar to'plamlarining muharriri.

Muassisligi: urologiya. 1999 yildan Samarqand davlat tibbiyot universiteti urologlar ilmiy jamiyatining raisi va O'zbekiston urologlari ilmiy jamiyati boshqaruvi a'zosi.